MUZAFFAR NAIMOV



# XOR VA XORSHUNOSLIK DIRIJYORLIK ASOSLARI

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI

MUZAFFAR NAIMOV

# XOR VA XORSHUNOSLIK. DIRIJYORLIK ASOSLARI

**60111300-Musiqa ta`limi yo‘nalishi talabalari uchun**
**( “XOR VA XORSHUNOSLIK. DIRIJYORLIK ASOSLARI” fanidan darslik )**

Farg‘ona – 2026

UO‘K: 78.071.2(075.8)
KBK : 85.315ya73
N 19
**NAIMOV MUZAFFAR**
*XOR VA XORSHUNOSLIK.* DIRIJYORLIK ASOSLARI **[DARSLIK]**
Farg‘ona: 2026. “Classic” nashriyoti- 2026 214-b.
**ISBN: 978-9910-231-60-5**

**Taqrizchilar:**

**Abduraim Tursunov** Termiz davlat universiteti “Musiqa ta’limi” kafedrasi Dotsenti

**Dilovar Avlaqulov** Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Maktabgacha ta`lim” kafedrasi Katta o‘qituvchisi

**Annotatsiya:**

Ushbu - “Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari” darsligi oliy o‘quv yurtlarining 60111300 - ”Musiqa ta`limi” yo‘nalishi talabalari uchun “Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari” faniga mo‘ljallangan bo‘lib, bundan talabalar xor san’atining tarixi, nazariy, amaliy jihatlari, xordagi ovoz turlari, ijrochilarning vokal ko‘nikmalari, xor jamoasiga rahbarlik qilish hamda dirijyorlikning boshlang‘ich bosqichidan boshlab dirijyorlik mahoratini egallash uchun zarur bo‘lgan mavzularni, xor asarlari namunalarini o‘zlashtirishi, amaliyotda qo‘llash imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Bundan havaskorlik xor jamoalari rahbarlari ham foydalanishlari mumkin.

**Аннотация:**

Настоящее учебник - «Хор и хороведение. Основы дири-жирования» предназначено для студентов высших учебных заведений направления 60111300 – «Музыкальное образование» по предмету «Хор и хороведение. Основы дирижирования», которое включает в себя закрепление знаний студентов по истории, теоретическим и практическим аспектам хорового искусства, видам голосов в хоре, вокальному мастерству исполнителей, руководству хором и пению в хоровых стилях. Учебник также может быть использовано руководителями любительских хоровых коллективов.

**Abstract:**

This textbook - "Chorus and Choral Studies. Fundamentals of Conducting" is intended for students of higher educational institutions of the direction 60111300 - "Music Education" in the subject of Chorus and Choral Studies. Fundamentals of Conducting, which includes strengthening students' skills in the history, theoretical, practical aspects of choral art, types of voices in the choir, vocal skills of performers, leading a choir and singing in choral styles. It can also be used by leaders of amateur choirs.

***O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 20-fevraldagi o‘quv adabiyotini ekspertizadan o‘tkazganlik natijasi bo‘yicha berilgan ma’lumotnoma asosan nashrga tavsiya etilgan.***

6112

**UO‘K: 78.071.2(075.8)**
**KBK : 85.315ya73**
**ISBN: 978-9910-231-60-5**
**“Classic” nashriyoti- 2026**

## KIRISH

Ma`lumki, musiqa dunyosi shunchalik rang-barang, imkoniyati keng chegara bilmas ilohiy kuchga ega bo‘lgan san’at turi bo‘lib, inson ruhiyatiga kuchli ta`sir etuvchi quvvatga ega. Chunki inson qanday holatda (yaxshi, yomon, g‘amgin, quvnoq, ko‘tarinkilik) bo‘lishidan qat`iy nazar musiqa tinglaydi va shuning uchun musiqa ohanglari inson dilining tub-tubidan o‘rin olib kishi kayfiyatini ko‘tarib o‘z ta`sirini namoyon etadi. Chet el allomalaridan biri Yulius Fuchik takidlaganidek: “Musiqasiz, qo‘shiqsiz hayot bo‘lishi mumkin emas”.

O‘zbekistonda musiqa san’atining barcha vokal (qo‘shiq), cholg‘u (yakka ijro, ansambl, orkestr, xor) turlari hukumatimiz tomonidan alohida e`tiborga olinib, maxsus qarorlar chiqarilib, turli tanlovlar o‘tkazilib, rivojlanib bormoqda.

Mana shu san’at turlaridan biri xor san’atidir. Ko‘p ovozlikning o‘zbek musiqasiqa kirib kelishi 1930 yillardan boshlanganiga qaramasdan juda tez sur`atda rivojlanib ommalashib ketdi. O‘zbekistonda ko‘p ovozli xor san’atining rivojlanishida Mutal Burhonovning xizmatlari beqiyosdir. U birinchilardan bo‘lib xalq qo‘shiqlarini qayta ishlab xor jamoalari uchun moslashtirgan kompozitorlardan biridir. Shunga asoslanib Mutal Burhonovni o‘zbek xor musiqasi asoschisi deya olamiz. Bundan tashqari 1952- yilda tashkil etilgan O‘zbekiston davlat akademik xor kapellasi (rahbari S.Valenkov), 1960 yilda O‘zbekiston radio va televideniyasi qoshida milliy xor jamoasi (rahbari B.Umidjonov), 1964 -yilda O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqiy teatr xor jamoasi (rahbari R.Xublarov), 1970- yilda O‘zbekiston teleradiokampaniyasi qoshidagi “Bulbulcha” bolalar xori (rahbari Sh.Yormatov) bundan tashqari respublikamizning barcha musiqa, maxsus maktab internatlari hatto ko‘plab oliygohlarda xor jamoalarining faoliyat yuritayotganligi fikrimiz isbotidir.

Ushbu “Xor va xorshunoslik. Dirijyorlik asoslari” darsligi 2 bob, xor asarlari tahlili, test savollari, glossariy va adabiyotlar ro‘yxatidan iboratdir.

1-bobda fanga oid quyidagi mavzular o‘rin olgan: Xor san’atining rivojlanishi, O‘zbekistonda xor san’atining shakllanishi, uning ahamiyati, xor janrlari, turlari, xor jamoalari, xorning ko‘rinishi, xor partiyalari, ularni tashkil qiluvchi ovozlar, dirijyor holati, dirijyor harakatlari kabi ma`ruza mavzulari o‘rin olgan.

2-bob (Amaliy mashg‘ulotlar)da xor asarlari tahlili o‘rin olgan bo‘lib bunda ba`zi namunadagi xor asarlari tahlil qilinib yoritilgan.

Ushbu darslik oliygohlarning musiqa ta`limi yo‘nalishi talabalariga mo‘ljallangan bo‘lib, talabalarning kasbiy tayyorgarligini yanada oshirish, bilim, malaka va ko‘nikmalarini boyitishda xizmat qiladi.



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 36236

## Xor va xorshunoslik fanining maqsad va vazifalari.

### Fanning maqsadi:

Fanning o'qitishdan maqsad - dastlabki bilim, malakalarni mustahkamlash, ijodiy faoliyatga tayyorlash, jamoaviy ijro tarixi, ansambl bo'lib ijro etish, ko'p ovozli musiqa mohiyati va uni ijro qilishga o'rgatish, o'zbek xalq cholg'ulari orkestri repertuari, turli ijro uslublari, dirijyorlik tajribasi va boshqa ijrochilik san'ati qoidalarini muvaffaqiyatli o'zlashtirish uchun zarur bo'ladigan tayanch bilimlarni berishdir. Talabalarda jamoaviy, dirijyor bilan ishlash, nota matnllarini o'qish, asarlarni ifodaviy ijro etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Xor va xorshunoslikning nazariy va amaliy jihatlari, xordagi ovoz turlari, ularning o'ziga xos ovoz imkoniyatlari, bolalar ovozlarining turlari, ularning ijro diapazonlari haqidagi ma`lumotlarni berish, talabalarning shu kasbga xos o'quv malakalarini shakllantirish, jamoa bo'lib kuylay olish va uni boshqara olish texnologiyasi bo'yicha mukammal bilim berish va jamoaga rahbarlik qilish xususiyatlarini singdirishdan iborat.

### Fanning vazifasi:

Xor jamoalariga rahbarlik qilish, xor asarlarini tahlil qilish malakalarini egallash, xorda kuylash jarayonida ijro jarangiga, ansambl, soz va nafas olish hamohangligiga erishish, badiiy ifoda vositalaridan o'z o'rnida foydalanish, xor qo'shiqchiligiga xos uslublarda kuylash imkoniyatiga ega bo'lishi, xor asarlari repertuarlari bilan bevosita tanishish, ularni tanlash bo'yicha yuksak badiiy didga ega bo'lishi, jamoali qo'shiqchilik xonandasi va rahbariga qo'yiladigan talablarni bilish hamda ko'nikmalarini kasbiy faoliyatida qo'llay olishga erishishdan iborat. Shuningdek, talabalarni bo'lajak dirijyor, xor rahbari va musiqa o'qituvchisi sifatida shakllantirish, turli o'lchov, metr va uslublarda yaratilgan asarlarni tahlil qilish, bolalarni xorga o'rgatish nazariyasi va amaliyotini o'rgatish, amaliy egallash uchun repertuarlar tanlay olishga o'rgatishdan iborat.



# I BOB

## Ma`ruza mashg'ulotlari

## 1-mavzu: XOR SAN'ATINING RIVOJLANISHI. O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA UNING AHAMIYATI.

### Reja:

1. Xor san'atining rivojlanish tarixi.
2. O'zbekistonda xor san'atining rivojlanish tarixi va ahamiyati.

Ma'lumki uzoq tarixga ega xor san'ati orqali o'tmishda xalqlar orzu-armonlarini, his-tuyg'ularini qo'shiq aytish vositalari bilan ifodalab kelganlar. Jamoa bo'lib qo'shiq kuylash barcha xalqlarning mehnat faoliyati, an'anaviy marosimlari hamda turmush hayoti bilan chambarchas holda bog'lanib kelgan. Mana shunday mehnat jarayonlarida, an'anaviy o'tkazilgan marosimlarda xalq qo'shiqlari yaratilib jamoa bo'lib ijro etilgan. Ya'ni xalq tomonidan yaratilgan turli mavzudagi xalq qo'shiqlari xor bo'lib ijro etilgan hamda ko'p ovozli kuylashning ilk bosqichlari shakllana boshlagan.

Xor san'ati – musiqa san'atining janrlari orasida o'zining ommaviyligi va demokratik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kunda u keng tarqalgan asl xalq san'ati turiga aylangan. Bu san'at turi insonlarni musiqiy tarbiyalashda, estetik qarashlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Odamlarning bir-biriga chambarchas bog'liq bo'lgan ma'naviy ongi, didiga, bir yagona g'oya, yagona ijroni maqsad qilib, so'z va musiqadagi tuyg'uni jamoa bo'lib ijro etish, ularni yanada jipslashtiradi. Bu san'at doimo xalq qo'shiqchilik ijodiyoti bilan bog'liq bo'lib, turli millatlar musiqa madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida katta ahamiyatga egadir. Xor san'ati o'zining qadimiy musiqa madaniyatini ifodalashda uzoq tarixga yondashadi. Asrlar davomida cherkov kuylari professional xor san'atida asosiy ijrochilik hisoblangan. Qadimiy cherkov kuylari, xuddi qadimiy grek kuylariga o'xshab paydo bo'lishiga qadar ovozlarning pastki va yuqori ovozlari (organum, diskant) rivojlana bordi. Uyg'onish davrida xor san'atida katta o'zgarish – ko'p ovozli xor ijrochiligi paydo bo'ldi. Xor san'atining yanada chuqurroq ravnaq topishiga akapella ijrosida kuylashning paydo bo'lishi asos bo'ldi. XV–XVI asrlarda yashab o'z ijodida ko'p ovozli asarlar yaratib kelgan – Djovanni Palestrina, Orlando Lasso, Kleman Janeken kabi polifonist-

kompozitorlar o'z hissalarini qo'shdilar. Davr taqozosi bilan madaniyatlar yaqinlashuvi asrlardan-asrlarga o'tib, bir-biriga ta'sir ko'rsata boshlagan.

Vaqt o'tishi bilan xor san'ati cherkovlardan ajralib chiqdi. I.S.Bax, G.F.Gendel, L.Betxoven, K.V.Glyuk, F.I.Gaydn, V.Motsart, D.Verdi, J.Bize romantik kompozitorlardan: F.Shubert, R.Shuman, F.Mendelson, F.Bortoldi, rus kompozitorlaridan M.Glinka, N.A.Rimskiy-Korsakov, M.P.Kyui, S.I.Taneyev, M.A.Ballakirev va boshqalar o'z boy ijodlari bilan xor san'atini rivojlantirdilar.

Rus xor madaniyati boy tarixga ega. Xor san'ati janri bir necha yo'nalishda rivojlandi. Masalan: Krestyan, ma'rifatli qo'shiq sevuvchilar xorlari, maktab xorlari, professional cherkov xorlari va opera xorlaridan iborat bo'lgan. XVII-XVIII asrlarga kelib ko'pchilik knyazliklar, dvoryan va pomeshchiklar o'z qaramog'ida xor va orkestrlar tashkil qildilar. Bunday xorlarni "Metsenatlar" xor san'atini sevuvchilar deb atalgan. XIX asr boshlarida graf Sheremetev xor kapellasi (150 yil faoliyat ko'rsatgan), Peterburgda Dubenskiy xori, knyaz Golisin xor kapellasi (50-60 yillar xizmat ko'rsatgan), Moskvada Gubanin, Vasilev va Perlov xorlari. Peterburgda pochtamt xori, Nijniy Novgoroddagi Rukavishnikov, Penzadagi Kostarskiy xorlari faoliyat ko'rsatganlar. XIX asr oxirlarida A.Arxangelskiyning xori (1880 - yilda tuzilgan) nafaqat Rossiyada chet ellarda ham tanilgan. Ular xamisha xor asarlarini yoddan ijro etganlar. U birinchi bo'lib xorga bolalar ovozi o'rniga ayollar ovozini kiritdi. XX asrlarga kelib rus xor san'ati yana ham rivojlandi. Yangi-yangi kapellalar tuzildi. Xor dirijorlari V.Bulichev, I.Yuxov, P.Yarkovlar faoliyati diqqatga sazovordir. M.Pyatniskiy (1864-1927 yilda) Varonej, Ryazan, Smolensk krestyanlardan iborat o'zining mashxur rus xalq xorini tuzdi va yuksak ijro mahoratiga erishdi.

1920-1930 yillarda ommaviy xor qo'shig'i janri keng rivojlandi. Kompozitorlar D.Vasiliy-Buglay, K.Lebedev, M.Krasev, A.Turenkov, K.Korchmaryev, A.Kastalskiy, Vik.Kalinnikov, G.Lobachev, M.Krassov, A.Pashchenkolar yaratgan ko'p ovozli xor asarlar professional xor san'atini yanada boyitdi.

Ulug' Vatan urushi davrida bir necha professional xor kollektivlari tuzildi. Rus xor kapellasi (1942- yilda keyinchalik 1975-yilda A.Yurlov nomi berilgan),Voronej rus xalq xori (1942-yil), Estoniya erkaklar xori (1944-yil), Ryazan rus xalq xori (1946 -yil), Litva erkaklar xori (1969- yil), Tallin kamer xori (1971-yil), Rigadagi „Avesol" kamer xori (1974 -yil), Moskva konservatotiyasi kamer xori



(1975- yil), Novosibirsk xor jamiyati kamer xori (1978-yil) shular jumlasidandir.

XIX asrning 30-40 yillarida A.Lyadov, A.Arenskiy, E.Napravnix, M.Ippolit-Ivanov, S.Taneyev, A.Grechaninov, A.Kastalskiy va boshqalar tomonidan xalq qo'shiqlari jo'rsiz xorlar uchun qayta ishlandi. Rus polifoniyasini o'lmas kantatalari S.Taneyev tomonidan yozilib, xorlarda ijro etildi. Rus xor san'ati madaniyati oddiy bir ovozdan ko'p ovozli turli xildagi rus xor janrlari nodir adabiyoti dunyo musiqa madaniyatining oltin fondiga kirdi. Rus xor jamoalari mashhur kompozitor va dirijyorlar mislsiz ijodiy yutuqqa erishdilar. Bunday yuksak ijodiy yo'nalishning ilg'or an'analari keyinchalik XX asr musiqa madaniyatini qurish uchun poydevor bo'lib xizmat qildi. Xorshunoslik fani metodologiyasini yaratishda xor san'ati namoyondalari va xor dirijyorlarining o'rni diqqatga sazovordir. N.Rimskiy-Korsakov, G.Lomakin, S.Smolenskiy, D.Rezumovskiy, D.Kastalskiy, V.Bulichev, A.Preobrojenskiylarning xor bilan ishlash tarzi, xor san'atida erishilgan muayyan yutuqlari ommalashtirildi va yuksak madaniyatga ega bo'ldi. XX asrga kelib A.V.Nikolskiy, P.G.Chesnokov, A.A.Yegorov o'zlarining ko'p yillik ish tajribalarini va ilg'or an'analarini xor dirijyorlari ocherk va o'quv-metodik qo'llanmalari bilan xorshunoslik fanining shakllanishiga o'z xissalarini qo'shdilar.

## O'ZBEKISTONDA XOR SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA UNING AHAMIYATI

O'rta Osiyo xalqlari, jumladan o'zbek xalq musiqa merosiga nazar tashlar ekanmiz o'zbek musiqasi asrlar davomida bir ovozlik, ya'ni monodik tarzda rivojlanib kelgan. Tarixiy manbalarga e'tibor qaratsak o'zbek xalqi ham, boshqa xalqlar kabi o'zining mehnat faoliyati, turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan musiqiy durdonalarini yaratgan hamda bu ijod mahsuli avloddan-avlodga an'anaviy tarzda o'tib kelgan.

Xalq qo'shiqchiligi ijrochiligida ma'lumki erkaklar, ayollar va bolalar tomonidan qo'shiq kuylash an'analari bo'lgan. Shu an'analar davom ettirilib marosimlar, mavsumiy sayillar va to'y tantanalarida qo'shiqlar kuylashib raqsga tushishgan. Hattoki yoshi kattalarning motam marosimlarida zikr tushishi, marsiya aytimlarini aytishlari ham jamoa ijrochiligining bir turidir. An'anaviy Navro'z sayillarida yigit va qizlarning qo'shiq kuylashlari yoki qadimdan to'ylarda aytiladigan yor-yor, kelin salom, yalla va laparlarning bandlari yakkaxon tomonidan

naqorat esa jamoa tomonidan aytilgan. Yor-yor, o'lan, lapar, katta ashula va ayrim maqomlardagi (tarona, ufor, naqsh) ayrim qismlarini jamoa bo'lib aytish kabi ijrochilik shakllari ham kelgusida o'zbek xalqi orasida xor havaskorligi o'zbek xor san'atining rivojlanishiga zamin bo'ldi.

1919-yil Toshkentda B.Sakovich tomonidan „Zebuniso" maktabida tashkil etilgan qizlar xori yaxshi natijalarga erishib 1924- yilda bu xor jamoa "San'atchi qizlar" nomi bilan yuritildi.

Shu yillarda Sh.Shoumarov "Namunali" nomli o'zbek maktabida, 1922-yilda Saodatxonim Yenikiyeva Toshkent inprosida o'zbek qizlaridan shunday xor jamoalarini tuzadilar.

1920-yillar - etnografik davr, ya'ni kompozitorlarning xalq an'analarini buzmaslikka harakat qilinib, o'ta ehtiyotkorlik bilan o'zbek musiqa folklori namunalarini ko'p ovozli qilib qayta ishlab, xorga moslashtirish davri bo'ldi desak mubolag'a bo'lmasa kerak.

Ko'p ovozlikning o'zbek musiqa san'atiga kirib kelishi, uni yangi an'analar bilan boyitishda, undagi fikrni yanada kengroq va mazmunliroq qilib ochib berishga imkon berdi.

Xor asarlarida ko'p ovozlik dastlab kuyning imitatsion variantlarida, erkak va ayollarning navbat bilan birin-ketin kuylashlarida nihoyat oktava unisoni tarzida paydo bo'lgan.

1930-1940 yillar o'zbek kompozitorlari T.Sodiqov, M.Burhonov, M.Ashrafiy, S.Boboyev, S.Yudakov, T.Jalilov, M.Leviyevlar ijodida musiqali drama, opera, simfoniya, oratoriya kabi janrlarning paydo bo'lishi o'zbek musiqasida ko'p ovozlikning paydo bo'lishiga asos bo'ldi.

Xususan, G'.Zafariyning "Halima" va To'xtasin Jalilovning "Tohir va Zuhra", T.Sodiqov, T.Jalilov va R.Gliyerlarning "Gulsara", Sh.Shoumarov, V.Uspenskiy va G.Mushellar tomonidan yaratilgan "Farxod va Shirin" musiqali drammalari shular jumlasidandir.

1936- yilda yangi tuzilgan O'zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida xor kapellasi tashkil qilinib, unga M.Lepyoxin rahbarlik qilgan.

1939-yilda M.Ashrafiy va S.Vasilenkolar tomonidan birinchi o'zbek operasi "Bo'ron", R.Gliyer va T.Sodiqovlarning "Layli va Majnun" operalarining yaratilishi ko'p ovozli xorlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi.

Kompozitor Mutal Burhonov Orta Osiyo xalqlarining kuylari asosida yaratgan oltita asari o'zbek musiqasida birinchi akapella asarlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Bu asarlar o'zbek xalq qo'shiqlari "Yorlarim", "Go'zal qizga", "Endi sendek"; qoraqalpoqcha



"Ayriliq", "Bibigul"; uyg'urcha "Sayra"; tojikcha "Sari kuhi baland", "Zarragul"; qozoq xalq qo'shig'i "Dudaray"; afg'oncha "Chashmi siyoh"; Eron xalq qo'shig'i "Guli gandum", "Dam ko'l, dam ko'l" bo'lib u xor asarlarida ko'p ovozlik elementlarini muvaffaqiyatli qo'llash mumkinligini ko'rsatib berdi (1950-yillarda).

1952-yilda O'zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi tashkil qilindi. Kapellaga iste'dodli xormeyster S.Valenkov badiiy rahbar va A.Sultonov xormeyster qilib tayinlandi.

O'zbekistonda xor san'atining o'sishida 1960-yilda tashkil etilgan O'zbekiston radio va televideniyesi Davlat komiteti milliy xor kollektiviga Botir Umidjonov rahbarlik qildi. Bu jamoa dastlab 40 nafar kishidan iborat bo'lib o'zbek kompozitorlari yaratgan xor asarlarini elga tanitishda o'ziga xos laboratoriya vazifasini o'tadi. Unda M.Ashrafiy, M.Burhonov, S.Yudakov, X.Izamov, S.Boboyev, M.Bafoyev, B.Lutfullayev, F.Alimov, R.Tursunov, Q.Mamirovlar tomonidan xor uchun yozilgan asarlar magnit lentasiga yozib olindi. Bu xorga "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan xor jamoa" unvoni berildi. B.Umidjonov "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'ldi. Keyinchalik bu xor jamoaga B.Lutfullayev, J.Shukurov, S.Rajabova, Q.Mamirov va boshqalar rahbarlik qildi. Shu yillarda B.Umidjonov tomonidan o'zbek, tojik, qirg'iz, va boshqa xalq qo'shiqlari "Diliman", "Gar namedoni bidon", "Yapuray", "Qora soch", "Ililla yor", "Og'a doram"; "Gal bari", "Xurshidi jahon galdi", "Qomuzchu", "Chamanda gul" xor uchun qayta ishlangan va original "Dilbarume" xor syuitasi yozilgan.

1978-yilda Ozbekiston Filarmoniyasi qoshidagi xor jamoasiga xormeyster Axad Xamidov bosh dirijyor etib tayinlandi. Bu jamoa 33 tildagi xor asarlarini ijro etishga muvaffaq bo'ldi. 50 dan ortiq shaharlada gastrol safarlarida bo'ldi. Axad Xamidov "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist" unvoniga sazovor bo'lgan.

Iste'dodli xormeyster Sulaymon Shodmonov A.Navoiy nomidagi Katta Akademik opera va balet teatrida 1960-66- yillar xormeyster, 1966-80 yillarda bosh xormeyster vazifasida ishladi. 2000 - yilda u "O'zbekiston xalq artisti" unvoniga sazovor bo'ldi.

O'zbekistonda bolalar xorining rivojida O'zbekiston xalq artisti Shermat Yormatovning xizmatlari benihoya kattadir. Sh.Yormatov boshchiligidagi xor jamoasi "Kamerton" nomli bolalar va o'smirlar jamoalari xormeysterlari klubida 1981-yilda yuksak professional jamoa sifatida "Bulbulcha" nomini olishga muyassar bo'ldi.

O‘zbek xor madaniyatining rivojiga katta hissa qo‘shgan kompozitorlar qatorida T.Sodiqov, M.Ashrafiy, M.Burhonov, M.Leviyev, S.Boboyev, S,Yudakov, I.Akbarov, A.Muhammedov, G‘.Qodirov, X.Izomov, M.Nasimov, D.Zokirov, Sh.Ramazonov, I.Hamroyev, F.Nazarov, A.Berlin, Ye.Shvars, S.Abramova, B.Umidjonov, M.Bafoyev, F.Alimov, N.Norxo‘jayev, B.Lutfullayev, R.Abdullayev, H.Raximov, R.Tursunov, Q.Mamirov, Sh.Yormatov, R.Qodirov, X.Xasanova va boshqa kompozitorlar nomini eslatib o‘tish o‘rinlidir.

O‘zbekistonda xor san’ati rivojlanishining ahamiyatli jihatlari quyidagilardir:

1. Ko‘plab badiiy havaskorlik va professional xor jamoalari vujudga keldi.
2. Respublikada akapella janri vujudga keldi.
3. Kompozitorlar tomonidan ko‘plab kontata, syuita, oda, ballada, jo‘rsiz xor asarlari va ajoyib original ommaviy xor qo‘shiqlari yaratildi.
4. Professional xor san’ati rivojlanib o‘zbek musiqa san’ati janrlari yanada boyidi.
5. Respublikada xor ijrochiligi ma’lum yutuqlarga erishdi, tajribalar orttirildi.
6. Xor san’ati (xususan, professional) sohasida qo‘lga kiritilgan yutuqlar, kelgusida bu ajoyib san’atni yuqori bosqichlarga ko‘tarish imkonini beradi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1.O‘zbekiston Davlat filarmoniyasi qoshida birinchi professional xor kapellasi qachon tashkil etilgan va rahbari kim bo‘lgan?
2. “Bulbulcha” bolalar xor jamoasi qachon va kim tomonidan tshkil etilgan?
3. Chet el kompozitorlaridan kimlar xor san’atini rivojlantirishga o‘z hissalarini qo‘shgan?
4. XVII-XVIII asrlarda chet ellarda xor jamoalari qayerlarda tashkil etildi?
5. Graf Sheremetov xor kapellasi necha yil faoliyat ko‘rsatgan?



### Topshiriqlar:

1. O‘zbek ko‘p ovozli xor musiqasi asoschisini aniqlang!
2. O‘zbekiston radio va televideniyesi Davlat komiteti milliy xor jamoasi qachon tashkil etilgan, xor jamoasining rahbarini aniqlang!
3. O‘zbekistonda xor madaniyatining rivojida katta hissa qo‘shgan kompozitorlarni ta’riflang!

### Tayanch iboralar:

Diksiya, ko‘p ovozlilik, xalq qo‘shiqchilik ijodiyoti, cherkov kuylari, janr, xor kapellasi, musiqa merosi, marosimlar, akapella, imitatsiya, xormeyster.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.Ro‘ziyev.Xorshunoslik. Toshkent. G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti,1987.
2. S.Kadirova.Xorshunoslik.Toshkent, Musiqa nashriyoti, 2019.
3. G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti.Toshkent, Yangi asr nashriyoti, 2008.
4. Q.Mamirov. Jamoa qo‘shiqchiligi va amaliyoti. Toshkent, Ilm ziyo nashriyoti, 2019.

## 2-mavzu. XOR JANRLARI VA XOR JAMOALARI

**Reja:**

1. Xor janrlari.
2. O‘zbekistonda tashkil etilgan xor jamoalari.

Professional va havaskorlik xorlari o‘zining badiiy-ijrochilik yo‘nalishlariga qarab, xalq xorlari va akademik xorlarga bo‘linadi.

### XALQ XORLARI

Xalq xorlari xalq musiqa ijodiyotining keng tarqalgan formasi hisoblanadi. Ma’lumki, xalq xori mahalliy ijro uslubi va an’analariga, o‘ziga xos repertuarga ega bo‘lgan ijodiy kollektivdir. Bu jamoa xalq va turli mavzudagi qo‘shiqlarni xalq qo‘shiqchiligi xususiyatlarini saqlagan holda, mahalliy an’analariga tayangan holda ijro qiladi.

Xalq xorlari an’anaviy xususiyatlarini saqlagan holda akademik xorlardan farq qiladi. Bular quyidagilar: tabiiy ovozda kuylashi, xalq polifoniyasida (ko‘p ovozligida) kuylash, improvizatsiya qilish, repertuarlarning o‘ziga xosligi, jumla oxirida unison yoki oktava unisoniga birlashish kabilardir. Xalq xorlari tarkibi struktura jihatdan har xil bo‘ladi, ya’ni xonandalar soni, yuqori va past ovozlar nisbati (ayollar va erkaklar ovozi) ma’lum bir qoidaga ega bo‘lmaydi. Bularning hammasi mahalliy qo‘shiqchilik xarakteriga ham bog‘liq. Shunig uchun bir joyda ayollar ovozi ustunlik qilsa, ikkinchi joyda erkaklar ovoziga e’tibor beriladi.

### AKADEMIK XORLAR

Akademik xorlar janr xususiyatlariga ko‘ra, xalq xorlaridan farq qiladi. Akademik xorlar xalq xorlaridan quyidagi jihatlari bilan farq qiladi:

-“niqobdor” (yarim yopiq) tovushda, ya’ni akademik uslubda qo‘shiq kuylashi;

-vokal strukturasi (qat’iy partiyalarga bo‘linishi);

-asar partiturasining (aniq, o‘zgartirmasdan, improvizatsiyasiz) o‘rgatilishi va ijro qilinishi;

-keng irochilik imkoniyatlariga ega bo‘lishi, repertuarning xalq qo‘shiqlaridan tashqari, rus, g‘arb klassik asarlari va zamonaviy kompozitorlar asarlaridan (turli murakkablikdagi asarlardan) tashkil topishi;

-dirijyorning konsertlarda xorni boshqarishi shartligi.



Akademik xorlar, shuningdek, musiqiy ta’lim va ijrochilik mahoratini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Akademik xorlar odatda turli ovoz guruhlaridan (soprano, al`t, tenor, bas) iborat bo‘lib, ular birgalikda uyg‘unlashgan holda kuylaydilar.

Akademik xorlarda jo‘rsiz xor musiqasi bilan bir qatorda cholg‘u ijrochiligidagi (simfonik orkestr, royal, duxovoy orkestr) asarlar ham ijro etiladi.

### XOR JAMOALARI

O‘zbekiston xor san’atining rivojlanishiga O‘zbekiston radio va televivdeniyasi qoshidagi milliy xorining katta hissasi bor. Bu milliy xor jamoasi 1960-yilda tashkil etilib unga istedodli xormeyster Botir Umidjonov tayinlandi. Dastlab jamoa 40 nafar kishidan iborat bo‘lib keyinchalik jamoa safi yanada kengaydi. Bu jamoa o‘zining sehrli san’atini nafaqat o‘zbek muxlislariga, balki qardosh respublikalar va chet el san’at shinavandalariga ham ko‘rsatib, ular qalbidan joy olishga ulgurdi. Jamoa (Olma-ota 1973, Samarqand 1978, 1983 yillar) uch xalqaro simpozium qatnashchisi, bir necha xalqaro xor festivali, anjuman va tanlovlar g‘olibi bo‘lgan.

1982 - yilda jamoaga xor san’atini rivojlantirishdagi yutuqlari uchun “Respublikada xizmat ko‘rsatgan jamoa” unvoni, rahbari Botir Umidjonovga esa “O‘zbekiston xalq artisti” unvoni berildi.

Jamoa repertuari mavzu jihatdan rang-barang bo‘lib, ko‘plab janrlarni qamrab olgan: qayta ishlangan xor qo‘shiqlaridan tortib kantata-oratoriya janridagi asarlar, hamda xor turkumlarigacha. Bular M.Burhonovning eroncha “Gule gandum”, “Zarra gul”, “Go‘zal qizga”, B.Umidjonovning “Ey sanam”, “Go‘zal”, “Ruboyi”, “Qora soch”, “Lapar”, original “Dilbarume” syuitasi, M.Bafoyevning “Freskalar” nomli xor turkumi, “Toshkent haqida qo‘shiq” oratoriyasi, “Alloma” singari poema-kontatasi va bulardan tashqari R.Abdullayev, A.Mansurov, F.Alimov, D.Amanullayeva kabi kompozitorlari asarlarining birinchi ijrochisidir.

Botir Umidjonovdan keyin xor jamoasiga J.Shukurov, keyinchalik D.Malikova, Sh.Babaxanova, B.Lutfullayev, D.Shamsutdinova, S.Rajabova, Q.Mamirov, N.Mirzayeva, A.Oxunovlar kabi yetuk xormeysterlar rahbarlik qilishgan.

# O'ZBEKISTON DAVLAT AKADEMIK XOR KAPELLASI

Kapella lotincha ("cappella") so'z bo'lib, xor jamoasini bildiradi. Akapella esa (italyancha "a capell")-cholg'u jo'rligisiz xor jamoasi tomonidan ijro etiladigan musiqiy asardir.

Professional xor san'atining ilk rivojlanish bosqichida tashkil etilayotgan xor jamoalar o'zbek musiqa san'atida ulkan yangilik bo'ldi. Chunki professional xor jamoalarini tuzishga davlatimiz tomonidan alohida e'tibor qaratila boshlandi. O'zbekistonda xor san'atining rivojiga katta hissa qo'shgan xor jamoalardan biri O'zbekiston davlat akademik xor kapellasi 1952-yilda M.Qori-Yoqubov nomidagi O'zbekiston davlat filarmoniyasi qoshida tashkil etilgan. Jamoaga badiiy rahbar S.Valenkov, xormeyster sifatida A.Sultonov tayinlangan.

Jamoa ilk ijodiy konsert dasturini 1952-yil 15-sentabrda Toshkent davlat konservatoriyasining Katta zalida tinglovchilar hukmiga havola etdi. Konsert dasturi yuqori darajada namoyish etilib musiqa ixlosmandlari tomonidan yaxshi qabul qilindi. Jamoaga asosan maxsus musiqiy bilimga ega bo'lgan mutaxassislar jalb qilindi. Jamoa o'z repertuarini muntazam ravishda jahon klassikasining turli janrlari bilan bir qatorda, o'zbek kompozitorlari asarlari bilan ham muntazam boyitib bordi.

Xor kapellasi bilan ishlaganlar orasida R.Xublarov, B.Umidjonov, X.Voxidov, B.Kaltman, J.Shukurov, Q.Mirzayev kabi taniqli xormeysterlarning mehnatini ham alohida ta'kidlab o'tish lozim.

Jamoaga O'zabekiston xalq artisti Axad Xamidov rahbarlik qilgan davrlar (1978-2001 yillar) juda katta muvaffaqiyatlarga erishildi. Konsert dasturlari rang-barang bo'lib, M.Burhonov, B.Umidjonov, S.Boboyevning jo'rsiz xorlari, S.Taneyevning "Ioann Damaskin" P.Chesnokov, A.Arxangelskiy, D.Bortnyanskiylarning xor konsertlari, V.A.Motsart, G.Fore, A.Dvorjaklarning "Rekviyem"lari, I.S.Baxning messa va kantatalari, G.Sviridovning "Pushkin gulchambari" va kantatalari, Yu.Falik, A.Machavariani, V.Gavrilin, A.Shnitke xor asarlari, M.Burhonovning "Abadiy xotira" rekviyemi, M.Bafoyevning "Freskalar" poemasi va "Alloma" poema-kantata kabi asarlar bilan boyitildi.

Mutal Burhonov bu jamoa bilan yaqin aloqada ijodiy hamkorlik qildi. Uning "Yorlarim", "Go'zal qizga", "Zarragul", "Bibigul", "Sari kuhi baland" kabi akapella asarlari endilikda bu janrning mumtoz namunalariga aylandi.



Axad Xamidovdan keyin xor kapellasi jamoasiga Q.Mirzayev, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan artist D.Jdanov, A.Turkina kabi iste'dod sohiblari rahbarlik qilishdi. Jamoada xormeyster sifatida G.Ergasheva, S.Rasuliy, Ye.Boronin, B.Musabayeva, M.Shoilyosov, A.Kotruxov, D.Musabayeva, L.Petlina, Sh.Jumayevlar faoliyat yuritishgan.

# O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI QOSHIDAGI MUSIQIY TEATR STUDIYASI XORI

O'zbek xor musiqasi rivojiga hissa qo'shib kelayotgan jamoalardan yana biri O'zbekiston davlat konservatoriyasi qoshidagi opera studiyasi xoridir. Bu jamoa 1964-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy tashabbuskorlaridan biri O'zbekiston xalq artisti, ko'plab davlat va Xalqaro mukofotlari sovrindori, professor Muxtor Ashrafiy edi. Jamoaga ilk rahbarlik qilgan xor san'atining fidoyi jonkuyari, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi R.Xublarov edi. Undan keyin jamoaga D.Qurbonova, N.Lienko, S.Shodmonov, L.Nisenbaum, V.Babayans, N.Qoziyev, M.Polonskiy, I.Chernikova, B.Bo'riyev, A.Hamidov, D.Jdanov, L.Petninalar xormeyster sifatida faoliyat olib borishgan.

Opera studiyasining xori simfonik dirijyorlar, xormeysterlar, akademik xonandalar va kompozitorlarning bitiruv Davlat attestatsiyalariga tayorlanishlarida hamda turli bayram, tanlovlar va festivallarda ishtirok etadi.

Xor o'zining faoliyati davomida ko'plab opera spektakllarida qatnashdi: bular P.I.Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin", "Iolanta", N.Rimskiy-Korsakovning "Podshohning kelini", R.Leonkovalloning "Masxarabozlar", D.Verdining "Traviata", S.Yudakovning "Maysaraning ishi' va boshqalardir.

Opera studiyasining xor jamoasi O'zbekiston kompozitorlari yaratgan asarlarning birinchi ijrochisi bo'lgan: M.Burhonovning "Alisher Navoiyga qasida", S.Yudakovning "Muborakbod", "O'zbekiston", "Mening Vatanim", M.Ashrafiyning "Rustam haqida doston", F.Yanov-Yanovskiyning "Muqaddas Markdan", K.Azimovning "Sen olam bezagisan, qadim Buxoro!" kabi asarlaridir.

Bu jamoa ko'plab loyihalar ishtirokchisi sifatida hamda buyuk kompozitorlarning yubileylariga bag'ishlangan konsert dasturlarida faol ishtirok etib kelmoqda.

Opera studiya xorini 2001 - yildan buyon Yulduz Xusnitdinova boshqarib kelmoqda, 2003 - yildan xormeyster sifatida Sevara Kadirovalar faoliyat ko'rsatib kelishmoqda.

## ALISHER NAVOIY NOMIDAGI OPERA VA BALET DAVLAT AKADEMIK KATTA TEATRI XOR JAMOASI

M.Ashrafiy va S.Vasilenkolar hamkorlikda yaratgan birinchi "Bo'ron" operasining 1939 - yil 11- iyundagi taqdimoti milliy musiqiy teatr tarixida olamshumul yangilik bo'ldi. Albatta, bu opera o'zbek musiqasining turli janrlari rivojlanishiga keng yo'l ochib berdi. Bu borada teatrning atoqli dirijyorlari O'zbekiston xalq artisti, Davlat va xalqaro mukofotlar sohibi, professor Muxtor Ashrafiy, O'zbekiston xalq artisti Fazliddin Shamsuddinov, O'zbekiston xalq artisti, professor Abdug'ani Abdurayimov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arboblari Naum Goldman va Baxrom Inoyatov, O'zbekiston xalq artisti, Davlat mukofoti sovrindori, professor Dilbar Abduraxmonova, O'zbekiston xalq artisti, bosh xormeyster Sulaymon Shodmonov, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, professor G'ani To'laganov, O'zbekiston xalq artisti Hamidullo Shamsiddinov, Qoraqalpog'iston xalq artisti Aida Abdullayeva va O'zbekiston san'at arbobi Fazliddin Yakubjonovlarni alohida ta'kidlab o'tish lozim. Bu atoqli san'at namoyandalari o'zbek xor san'ati rivojiga salmoqli hissalarini qo'shishdi.

Xor jamoasining teatrdagi faoliyati xormeysterlarning mashaqqatli kasbiy mehnatini talab etadi. Sahnada qo'yiladigan spektakllar o'zbek, rus, fransuz, italyan kabi asl tillarda ijro etilib, bularning barchasi so'z ustida ishlashni talab etadi.

Teatrda ishlagan xormeysterlardan N.Priselkov, M.Shamshin, V.Papov, F.Fayziy, M.Gorbenko, L.Nosovich, V.Xlebnikov, D.Qurbanova, L.Shilkrutlarni aytish mumkin.

1991- yildan xor rahbari sifatida O'zbekiston xalq artisti Sulaymon Shodmonov, xormeysterlari Maya Yandrinskaya va Nataliya Kuriyanovalardir.

Bugungi kunda teatr repertuari nihoyatda rang-barang bo'lib, bunda D.Verdining "Aida", J.Bizening "Karmen", "Marvarid qidiruvchilar", P.I.Chaykovskiyning "Yevgeniy Onegin", M.Ashrafiyning "Dilorom", S.Yudakovning "Maysaraning ishi", N.Rimskiy-Korsakovning "Podshohning kelini", J.Puchinining



"Bogema", I.Akbarovning "So'g'd qoploni", M.Bafoyevning "Sevgi samosi" kabi operalar sahnalashtirilib namoyish etilmoqda.

## O'ZBEKISTON TELERADIOKOMPANIYASI QOSHIDAGI "BULBULCHA" BOLALAR XORI

O'zbekistonda bolalar xor san'atining rivojlanishida O'zbekiston xalq artisti (1997-yil), Sog'lom avlod ordeni (1994) sohibi, "Bulbulcha" bolalar xor jamoasining rahbari, iste'dodli xormeyster Shermat Yormatovning xizmatlari beqiyosdir.

1970 - yilda tashkil etilgan bu bolalar xor jamoasi, juda tez sur'atda rivojlanib xor uslubida kuylash san'atining faol targ'ibotchisiga aylandi. Jamoa kichkintoylar (7 yoshgacha), o'rta (8-15yosh), o'smirlar (16-19 yoshgacha) guruhlaridan iborat bo'lib, rejali ravishda ijodiy ishlar olib borgan.

Jamoa repertuariga nazar tashlasak chet el kompozitorlari I.S.Bax, V.A.Motsart, F.Shubert asarlari, rus kompozitorlari D.Kabalevskiy, T.Struve, A.Sakolov, o'zbek kompozitorlari M.Ashrafiy, M.Leviyev, D.Zokirov, S.Yudakov, K.Abdullayev, A.Muhammedov, G'.Qodirov, M.Burhonov, R.Vildanov, F.Alimov, N.Norxo'jayev, A.Mansurov, D.Omonullayeva, M.Otajonovlarning asarlari bolalar xori tomonidan yuqori darajada ijro etilganligi diqqatga sazovordir.

1982-yilda bu bolalar jamoasiga "Bulbulcha" nomi berildi.

"Bubulcha" bolalar xori respublika va xalqaro (Rossiya, Finlyandiya, Estoniya, Turkiya) xor festivallarining qatnashchisi va sovrindoridir. Xususan, Yugoslaviyaning Skople shahridagi "Oltin bulbulcha" Xalqaro bolalar festivali (1981, 1983, 1985- yillar), Minsk shahridagi bolalar xori festivali (1989yil) va boshqa tanlovlar, festivallarda ishtirok etib o'z mahoratlarini yuqori darajada ko'rsata olgan.

Jamoa ijro etgan xor asarlari gramplastinkalarda yozib chiqarilgan, hozirda O'zbekiston radiosi va televideniyasi fondlarida saqlanmoqda.

Shuningdek, bolalar xorining rahbari Shermat Yormatov bu jamoa uchun ko'plab xor asarlari yaratdi. Bular: "Maysa", "Yalpiz", "Dorboz", "Keldi Navro'z", "Qari chumchuq chaqimchi", "Oy Vatanim", "Zamonim o zamonim", "Ayomlaring muborak", "Sog'lom avlod", "Yurtim bahori", "Olam gulga to'laversin" va boshqalar.

"Bulbulcha" jamoasi O'zbekiston teleradiokompaniyasining "Qo'shig'im- jon qo'shig'im", "Birgalikda kuylaylik", "Do, re, mi, fa, sol," "San'at g'unchalari" kabi musiqiy ko'rsatuv va ko'plab



DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI ARM
№ 36236

eshittirishlarida o‘z dasturlari bilan ishtirok etgan. Hattoki, bu bolalar jamoasi haqida ko‘plab filmlar tayyorlangan.

"Bulbulcha" xorida faol ishtirok etib hozirda san'at yo‘lida o‘zlarining jamoalari bilan tanilib kelayotgan quyidagi xonandalarni misol keltirishimiz mumkin: "Sevinch" S.Rustamova, "Tantana" F.Ziyomuhammedova va Z.Ziyomuhammedova, "Sarbon" F.Saidov, "Bunyod" V.Yo‘ldoshev, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan artist Ilhom Farmonov, O‘zbekiston xalq artisti Sevara Nazarxon va boshqalar.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xalq xorlari akademik xorlardan qaysi jihatlari bilan farq qiladi?
2. O‘zbekiston radio va televideniyesi qoshida tashkil etilgan milliy xor jamoasining birinchi rahbari kim bo‘lgan?
3. Botir Umidjonovga qachon "O‘zbekiston xalq artisti" unvoni berilgan?
4. "Bulbulcha" bolalar xori qachon va kim tomonidan tashkil etilgan?

**Topshiriqlar:**

1. Kapella bilan akapellaning farqli jihatlarini aytib bering!
2. O‘zbekiston Davlat akademik xor kapellasi tashkil etilgan sana va ilk rahbarini aniqlang!
3. Kapella so‘zining asl ma'nosini aniqlang!
4. O‘zbekiston Davlat konservatoriyasi qoshidagi musiqiy teatr studiyasi qachon tashkil etilganligini aniqlang!

**Tayanch iboralar:**

Kapella, xalq xorlari, uslub, unison, akademik xor, struktura, janr xususiyati, improvizatsiya, simpozium, xalq polifoniyasi, milliy xor.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. S.Kadirova. Xorshunoslik. Toshkent, Musiqa nashriyoti, 2019.
2. G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent, Yangi asr nashriyoti, 2008.
3. Sh.Ro‘ziuyev.Xorshunoslik. Toshkent, G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot vas an`at nashriyoti, 1987.
4. Z.Sultanova. Xor va xorshunoslik. Namangan, 2021.



## 3-mavzu. XORNING TURLARI VA KO‘RINISHI.

## XOR PARTIYALARI VA ULARNI TASHKIL QILUVCHI OVOZLAR.

**Reja:**

1. Xor turlari.
2. Xor partiyalari.

Xor grekcha "xoros"-"yig‘ilish" ma'nosini bildiradi. Xor ijodiy uyushgan jamoa bo‘lib, u ma'lum ovozga ega bo‘lgan ijrochi xonandalardan tashkil topadi. Uning xarakterli belgilaridan biri-bu xorda individual (yakka) tembrlarning qo‘shilishidan hosil bo‘ladigan o‘ziga xos (spetsifik) tembrdir.

Demak, xor deb maxsus tashkil qilingan, vokal-xor texnikasiga, badiiy-ifoda vositalariga ega bo‘lgan va shu vositalar orqali ijro qilinadigan asarning mazmunini eshituvchilarga yetkazib bera oladigan kollektivni atash mumkin.

Xor turi xorning tuzilish sifatiga qarab aniqlanadi. Xorlar asosan ikki asosiy turlarga bo‘linadi. Bir jinsli va aralash xorlar ko‘rinish jihatdan bir, ikki, uch, to‘rt va undan ko‘p ovozli bo‘lishi mumkin. Turiga ko‘ra xor bir xil yoki aralash tuzilishida bo‘lishi mumkin. Bir xil tuzilishdagi xorlarga alohida erkaklar xori, bolalar xori, ayollar xori kiradi. Aralash xorga bolalar bilan ayollar xori, ayollar va erkaklardan iborat xorlar kiradi. Muxtasar qilib aytganda xorlar bolalar xori, ayollar xori, erkaklar xori va aralash xolarga bo‘linadi.

### BOLALAR XORI

Bolalar xori asosan ikki ovoz partiyasidan tashkil topadi. Birinchidan diskant-yuqori ovoz bo‘lib do birinchi oktavadan - fa, sol ikkinchi oktavagacha, ikkinchisi al`t-pastki ovoz hisoblanadi ovoz diapazoni sol-lya kichik oktavadan-re, mi ikkinchi oktavagacha. Ular yoshlariga ko‘ra uch guruhga bo‘linadi:

1) Maktab yoshidagi kichik guruh (kichik xor 7-10 yosh)
2) Maktab yoshidagi o‘rta guruh (o‘rta xor 11-13 yosh)
3) Maktab yoshidagi katta guruh (katta va o‘smirlar xori 13-17 yosh).

## AYOLLAR XORI

Ayollar xori ikki - ya'ni soprano va al`t partiyalaridan iborat. Ayollar xori ko'rinish jihatdan bir ovozli ayollar xori, ikki ovozli ayollar xori, uch ovozli, to'rt ovozli ba'zan undan ham ko'p bo'lishi mumkin. Ovozlar diapazoni ikki oktavadan kengroq (fa, sol kichik oktavadan-lya ikkinchi oktava) bo'ladi.

## ERKAKLAR XORI

Erkaklar xori tarkiban quyidagi ovozlardan iborat bo'ladi: tenor, bariton, bas. Asosan erkaklar xorini tenor va bas ovoz partiyalari tashkil qiladi. Erkaklar xori ko'rinishi jihatdan: bir, ikki, uch, to'rt va undan ham ko'p ovozli bo'lishi mumkin.

Erkaklar xorining ovoz diapazoni (lya-katta oktava, lya birinchi oktava-do ikkinchi oktava).

## ARALASH XOR

To'liq aralash xor har xil jinsli (ayollar va erkaklar) ovozlarining qo'shilishidan iborat bo'ladi. Unda to'rtta asosiy ovoz partiyasi mavjud; soprano, al`t, tenor va bas. Diapazoni to'rt oktavadan baland ( lya-kontr oktavadan do-uchinchi oktavagacha). Aralash xorning ijrochilik imkoniyatlari keng bo'lib, dinamik tuslarning boyligi jihatdan ijro imkoniyati kengdir. Aralash xorning (ovoz soni jihatdan) rang-barang "ko'p qatlamli" sadolanishini simfonik orkestri sadolanishiga o'xshatish mumkin. Har bir partiyada ovoz o'z tembri va rang-barangligiga ega.

Xor jamoalari son jihatdan tarkibi bo'yicha xor kollektivlari kichik, o'rta va katta xorlar bo'lishi mumkin.

Kichik xor 12-30 kishigacha;
O'rta xor 30-60 kishigacha;
Katta xor odatda 80-120 kishigacha bo'lishi mumkin.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xorlar necha turga bo'linadi?
2. Erkaklar xori qaysi jihatlari bilan aralash xordan farq qiladi?
3. Aralash xor qanday ovozlarga bo'linadi?
4. Kichik xor jamoa necha kishidan iborat?



### Topshiriqlar:

1. Erkaklar xorining ovoz diapazonini aniqlang!
2. Ayollar xori qanday partiyalardan iborat bo'lishini aniqlang!
3. Bolalar xori bilan erkaklar xorining farqli jihatlarini aniqlang!

### Tayanch iboralar:

Tembr, spetsifik, diapazon, diskant, ovoz partiyalari, sadolanish, aralash xor, bir jinsli xor, dinamik tuslar, xor turi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. R.N.Muhitdinova. Xorshunoslik asoslari. Toshkent,2007
2. N.Sharafiyeva.Xorshunoslik.Toshkent.G'ofur G'ulom nashriyoti, 1987.
3.S.Kadirova.Xorshunoslik.Toshkent, Musiqa nashriyoti, 2019.
4.N.Sharafiyeva. Xorshunoslik.Toshkent, 2020.

## 4-mavzu. DIRIJYOR HOLATI. DIRIJYORLIKDA IFODA JIHATLARINI QO'LLASH ASOSLARI, OYOQLAR HOLATI, GAVDA HOLATI, BOSH HOLATI, NIGOH VA MIMIKA, QO'L QISMLARI.

**Reja:**

1. Dirijyor holati. Dirijyorlikda ifoda jihatlarini qo'llash asoslari.
2. Dirijyorlikda oyoqlar holati, gavda holati, bosh holati.
3. Dirijyorlikda nigoh va mimika.
4. Dirijyorlikda qo'l qismlari.

### Dirijyor holati. Dirijyorlikda ifoda jihatlarini qo'llash asoslari.

Dirijyorning turish holati erkin qo'llar, kaftlar yig'ishtirilgan holatda bo'lishi zarur. Dirijyor hech qachon siqiq holatda bo'lmasligi kerak, doim muskullar erkinligini his his qilish zarur.

Dirijyor ijrochilarni dirijyorlik apparati orqali boshqaradi. Dirijyorlik apparatiga qo'l, bosh (yuz, ko'zi), gavda (ko'krak qafasi va tana) va oyoq qismlari kiradi. Dirijyorlik apparatini o'rnatish va uni shakllantirishdan boshlanadi.

"Dirijyor" fransuzcha – "Diriger" va lotincha "Durigo" so'zlaridan olingan bo'lib- "boshqaruvchi, yo'lga soluvchi", musiqiy asar ijrosida kuylovchilarning barchasiga, ya'ni yakkaxon, xor, jo'r bo'luvchilar va boshqalarga rahbarlik qiluvchi san'atkordir. "Dirijyor" so'zi turli tillarda talaffuz qilinadi: nemislar "Dirident", italyanlar " Diridente", fransuzlar " Shef orkestre", inglizlar "Konduktor" deydilar.

Dirijyorlik paytida tana normal, oddiy refleks tariqasida qo'l harakatlari ta'sirida chayqalishi mumkin. Yelkalar ortiqcha zo'riqishdan holi bo'lib, qo'l va tirsak erkin holatda bo'lishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Tana bo'ylab erkin osilib turgan qo'l hech qanday kuchanishsiz, ko'krak qafas o'rtasigacha ko'tariladi. Bilak va tirsak oralig'i uchburchak hosil qiladi va qo'llar ko'krakka nisbatan yuqoriroq pozitsiyani egallaydi. Dirijyorning yelka qismi ham uning faoliyati uchun juda ahamiyatlidir. Yelka qismlarini to'laligicha erkin va egiluvchan tuta olishlik mushaklarning erkin harakatlanishlarini ta'minlaydi.

### Dirijyorlikda oyoqlar holati, gavda holati, bosh holati.

***Oyoqlar holati***

Dirijyorning oyoq holatiga e'tibor qaratsak doim bir oyoqni sal oldinga chiqarib, goh unisiga, goh bunisiga ham tayanib turish mumkin.



Oyoqlarni juda kerib yuborish yoki bir-biriga juda yaqin qo'yish ham noto'g'ri. Dirijyorning oyoqlari oralig'i 15-20 sm. masofada bo'lib, chap oyog'i o'ng oyog'idan nisbatan oldinroqda joylashgan bo'lishi kerak, chunki dirijyor asar davomida goho chapga, goho esa o'ng tomonlarga burilishi, asar bilan bog'liq bo'lgan zarurat tufayli sal oldinroqqa intilishi, yoki bir oz orqaroqqa tisarilish holatlari paydo bo'lishi mumkin. Muvozanatni ushlab tura olish uchun dirijyorning butun tanasi ikkala oyoqda ham barobar mustahkam o'rnashib olishi shart. Aks holda uning oyoqlari noturg'unlikka duchor bo'ladi va muvozanatni saqlay olmaydi.

***Gavda holati***

Gavda holatiga nazar tashlasak, dirijyorlik qilish paytida tana tik, xotirjam va shu bilan birga harakatga tayyor holatda ko'krak qafasi sal ko'tarilgan, yelka esa tik to'g'ri bo'lishi lozim. Yelkani juda ko'tarib yuborish mumkin emas - bu bel mushaklari harakatsiz bo'lishiga, tirsaklar ikki tomonga "tarvaqaylab" ketishiga va umuman butun tananing noqulay vaziyatga kelishiga sabab bo'ladi. Haddan tashqari egilish va bukilish ham noto'g'ri. Bunday holatda harakatlar sust va ishonchsiz bo'ladi.

Umuman, dirijyorning butun gavda ya'ni tashqi ko'rinishi estetikaga asoslanishi kerak: tana tabiiy holatda, ko'krak qafasi kerilgan, yelkalar to'g'rilangan bo'lmog'i lozim.

***Bosh va yuz holatlari***

Dirijyorning bosh holati xor jamoasiga qaratilgan bo'lishi kerak. Xor va orkestr jamoasining a'zolariga aniq, ravshan qaratilgan holatda. Dirijyor boshini to'g'ri va erkin tutib, uni kerak paytda orkestr va xorning turli qismlari tomon burishga oson bo'ladigan holatda ushlashi lozim. Yuz ifodasining ifodaliligi katta ahamiyatga ega. Agar dirijyorning mimika va nigohlari ifodali dirijyorlik harakatlariga mos kelmasa, hech qaysi qo'l o'zining tezlik harakatini ko'rsata olmaydi. Bunda yuz ifodasida salbiy va yoqimsiz holatni ko'rsatadi. Dirijyor hech qachon sovuq yuz ifodasi bilan asar ijrosini maromiga yetkaza olmaydi. Dirijyorning toshdek qotib qolgan, ma'nosiz qiyofasi ijrochilar jamoasida zavq uyg'otmaydi albatta, lekin haddan ziyod ma'nodorlikka erk berish ham to'g'ri emas.

Dirijyorning yuzi dirijyorlik apparatining bir qismi hisoblanadi. Dirijyorning nigohi - ichki, psixologik kuch bilan musiqiy asar ijrosini talab qila oladi. Musiqiy asardagi har bir kirish qismi, har bir frazaning

boshlanishini va musiqiy yakunni dirijyor nigohi bilan kuzata olishi lozim.

*Nigoh va mimika*

Dirijyor nigohi bilan butun xor jamoasining har bir a'zosini kuzatib turishi va ijrochilarning har biri dirijyor ko'zini ko'rib turishi, dirijyor ham har bir ijrochini ko'zlari bilan kuzatib nazardan qochirmasligi zarurdir.

Mimika-(imo-ishoralar) dirijyorning aniq, ravshan va obrazli fikrlashining natijasidir. U ma'nodor, aniq ishora garovi bo'lib, nafaqat ijrochilarni ruhlantirib ijro etishga undaydi, balki ishorani aniq va konkretlashtiradi. Mimika imo-ishoraning zaruriy qo'shimchasidir.

Turli dirijyorlarda qo'l harakatlari va yuz ifodasi (mimika)ning nisbiyligi turlicha. Aytish mumkinki, mimika asosan, kerakli emotsional (hissiy) holatni, qo'l harakatlari esa ijroning texnik detallarini boshqaradi. Mimika-dirijyorning obrazli fikrlashi naqadar yorqin va aniqligini namoyon etuvchi omildir. U ma'nodor qo'l harakatining doimiy hamrohidir. Zero, qo'l harakatiga hamroh bo'lgan nigoh uni ruhlantiribgina qolmay, uning ta'sirini kuchaytirib, birinchi navbatda bu harakat mo'ljallanganini ham bildiradi. Agar yuz ifodasiz bo'lsa, hatto eng aniq va nozik qo'l harakati ham kerakli badiiy ta'sirga ega bo'la olmaydi. Hattoki, ba'zi hollarda mimika qo'l harakatini ortda qoldirib, asosiy ma'no kasb etadi.

### Dirijyorlikda qo'l qismlari.

Qo'llar yelka kengligida, bir-biriga parallel, kaftlar pastga qaratilgan, yig'ishtirilgan holatda bo'lishi lozim. Dirijyorlik qilishda qo'lning eng harakatchan va ifodali qismi bo'lgan kaft (kist) eng muhim rol o'ynaydi. Dirijyorlik qilishda kaftni pastga qarab tutish-uning eng qulay holatidir. Barmoqlarni tabiiy ravishda biroz dumaloqroq shaklda bo'lishi buning barobarida ularning erkin holati butun kaftning yetarli darajada erkinligidan dalolat beradi. Aynan kaft harakatlari dirijyor qo'l harakatlariga asosiy dinamik, emotsional ko'rinish beradi. Tabiiylik, qulaylik maqsadida qo'lning erkinligini ta'minlash va xorga ko'rinarli bo'lishi uchun qo'llarni ko'krakdan sal pastroq holatda tutgan ma'qul. Demak qo'llar buklangan, tirsaklar qoida bo'yicha tananing bel qismidan o'n santimetr oraliq masofada bo'lishi darkor. Qo'llar erkin, yelka kengligida, bir-biriga parallel, pastga parallel holatda bo'lishi shart. Dirijyor qo'llarini erkin va uncha baland ko'tarmagan holda tutib, tirsaklarini tanadan uncha uzoqlashtirmagan holda tutishi lozim.



### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Dirijyorning turish holati qanday bo'lishi lozim?
2. Dirijyor turli tillarda qanday nomlanadi?
3. Dirijyorning oyoq holati qanday turishi kerak?
4. Dirijyorning qo'li qanday qismlardan iborat bo'ladi?

### Topshiriqlar:

1.Dirijyorlik apparatiga kiradigan a'zolarni ko'rsating!
2.Dirijyorning bosh, yuz, nigoh va mimikasi qanday bo'lishini aytib bering!
3.Dirijyor so'zini ta'riflang!
4.Dirijyorlikda qo'l holatini ko'rsating!

### Tayanch iboralar:

Dirijyor, apparat, xor, refleks, kist, mimika, nigoh, emotsional, ishora, orkestr, muvozanat, kaft, imo-ishora.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Malikova S.S, Vasilenko O.A. Dirijyorlik.O'quv qo'llanma, Toshkent, 2018y.
2. Toshmatov E. Dirijyorlik.-T.; O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008.-252b.
3. Azimov.K. O'zbekiston dirijyorlari, Toshkent,2001y.
4. Akbarov.I.A.Musiqa lug'ati,-T.; G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti,1987 y.

## 5-mavzu. DIRIJYORLIK HARAKATLARI, JAMOADAGI ANSAMBL IJROSINI TA'MINLASH HARAKATLARI. AUFTAKT, INTILISH NUQTA, AKS (nuqtaning aksi) IJRODAGI BADIIY OBRAZLI IJROGA ERISHISH HARAKATLARI.

**Reja:**

1. Dirijyorlik harakatlari.
2. Jamoadagi ansambl ijrosini ta'minlash harakatlari.
3. Auftakt, intilish nuqta, aks (nuqtaning aksi).
4. Ijrodagi badiiy obrazli ijroga erishish harakatlari.

### Dirijyorlik harakatlari

Dirijyor harakatlari ko'p tarkibli bo'lib, har bir alohida harakat aniq vazifaga asoslanganini muvofiqlashtirish talab etiladi. Ifoda jarayonida esa qo'l, oyoq, tana, bosh va barmoqlar harakati nisbatan mustaqil bo'ladi. Har bir harakat o'z vazifasini bajaradi. Bundan xulosa qilish mumkinki, dirijyorning ijrochilik vositasining muhim elementi — uning tanasidir. Dirijyorlik harakatlarini erkin tutish asosida jismoniy va asabiy, ruhiy zo'riqish orasidagi muvozanatni saqlash yotadi. Bu jarayon yurak urishidagi o'zgaruvchanlik holatini eslatadi. Mushaklarni kuchlanishi va bo'shashi bir maromda qo'llash erkinlik hissini beribgina qolmay, balki harakatning samarali bo'lishini ta'minlaydi, chunki harakat mushakning bo'shashuvi chog'ida yuz beradi.

Dirijyorning roli musiqa san'atida beqiyosdir. U ansambl, xor yoki orkestrning ijrosini bir butun, uyg'un va ifodali holda amalga oshirish uchun boshqaruvchi, yo'naltiruvchi hamda birlashtiruvchi shaxs hisoblanadi.

Jamoadagi ansambl ijrosini ta'minlash harakati — bu dirijyor tomonidan bajariladigan boshqaruv, muvofiqlashtirish va ifoda harakatlari majmui bo'lib, ular musiqaning texnik va badiiy tomonlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi. Dirijyorning harakatlari nafaqat tashqi (qo'l, tana, mimika) ko'rinishda, balki ichki (tinglash, his qilish, fikrlash) shaklda ham namoyon bo'ladi.

*Dirijyorning tinglash va muvofiqlashtirish roli*

Dirijyor ansambl ijrosini faqat ko'rsatibgina qolmay, e'tibor bilan tinglaydi.

U:

- har bir guruh (torli, damli, urmali yoki vokal)ning uyg'unligini kuzatadi;



- balansni (tovush muvozanatini) saqlaydi;
- tempning o'zgarishini nazorat qiladi;
- kerak bo'lganda tezkor tuzatish kiritadi.

Bu ichki tinglash qobiliyati — dirijyorning eng muhim san'atidir.

**Ansambl ijrosi** — bu bir nechta ijrochining (xor, orkestr, kamer ansambl yoki xalq cholg'ulari jamoasi) yagona musiqiy asarni birgalikda ijro etishidir. Bunda har bir ijrochi o'z partiyasini aniq, lekin jamoaviy uyg'unlikni saqlagan holda bajarishi kerak. Shu uyg'unlikni ta'minlash va boshqarish esa dirijyor zimmasiga yuklatiladi.

Dirijyorning asosiy vazifasi — barcha ijrochilarni bir xil temp, ritm, dinamika, ifoda va intonatsiyada birlashtirish, asarning badiiy mazmunini to'laqonli yetkazishdir. Bu jarayon "ansambl uyg'unligi" deb ataladi.

**Ijro jarayonida boshqaruv**

Ijro vaqtida dirijyor:

- asarning tempini barqaror ushlab turadi,
- kirish va chiqish signalini aniq beradi,
- nuans va dinamika o'zgarishlarini boshqaradi,
- musiqaning badiiy rivojlanish chizig'ini ushlab turadi,
- ijrochilarga ruhiy kuch va ishonch beradi.

Buning natijasida ansambl ijrosi nafaqat texnik jihatdan, balki ruhiy jihatdan ham mukammal bo'ladi.

Dirijyorning jamoadagi ansambl ijrosini ta'minlash harakatlari — bu musiqiy ijrochilik san'atining markaziy jarayonidir. Bu jarayon orqali jamoa uyg'un, bir maqsad sari yo'naltirilgan va hissiy jihatdan birlashgan holda asarni ifoda etadi.

Dirijyorning har bir qo'l harakati, nigohi, tana ifodasi va ichki tinglash qobiliyati ansamblning bir butun organizm sifatida ishlashini ta'minlaydi. Shu bois, dirijyorlik san'ati nafaqat texnik boshqaruv, balki ruhiy, badiiy va ijodiy yetakchilik san'atidir.

Musiqaning go'zalligi, ifodasi va tinglovchiga yetib borishi — dirijyorning jamoa ustidan olib borayotgan nozik, ammo kuchli boshqaruv harakatlariga bevosita bog'liqdir.

Dirijyor qo'llarini diqqat nuqtasidan boshlab yuqori tomon ko'tarib boshlash harakatiga "Auftakt" deyiladi. Auftakt-bu nemischa so'z bo'lib, takt usti, dastlabki qo'l ko'tarish degan ma'noni anglatadi.

Auftakt-dirijyorning musiqani boshlash uchun tayyor bo'lish haqida qiladigan ishorasi.

"Auftakt"- uch mavriddan, ya'ni:

1. Qo'lning harakat va sur'atga xos, ijrochilarga nafas oldirish;
2. Ijrochilarga asar xarakterini aniq va ravshan his ettirish;
3. Ijrochilarni asar sur'at tezligiga binoan tayyorlab borishdan iboratdir.

Auftakt-iborasi dirijyorlikda musiqa ta'limidagidan boshqacharoq tushuniladi. Musiqa ijrochiligida bu ibora bir yoki bir nechta notadan oldin kuchsiz hissada keladigan (takt oldi) notasi tushunilsa, dirijyorlik sxemasida har qanday musiqiy tovush (nota)dan oldin yoki pauzadan keyin keladigan notani bajariladigan harakatni ifodalaydi. Musiqada auftakt musiqaning boshlanishini bildirsa, dirijyorlikda esa undan ham oldingi harakatni bildiradi.

Dirijyorning auftakti temp, tegishli vaqt, dinamika va xarakter (mayin, jo'shqin, stakkato yoki legato)ning qanday boshlanishini ifodalab beradi. Katta auftakt harakatlari kuchli ijroni, kichik auftaktlar esa kuchsiz reaksiyani hosil qiladi.

**Auftakt-ijrosini boshlash nuqtasi, ijroni tugatish(uzish).**

Dirijyor qo'llarining diqqat nuqtasidan yuqori tomon ko'tarishi, ya'ni auftakt ijrochilar uchun nafas olish jarayoni hisoblansa, qo'llarning quyiga tushib bir nuqtaga kelib qo'nishi ijroning boshlanishidan darak beradi va mana shu nuqta ijro nuqtasi deyiladi. Bu holda qo'lning tirsak va bilakni birlashtiruvchi bo'g'ini bel balandligida bo'lib, panja va bilak qismlari yerga qaratilgan bo'ladi va harakatning davomi aynan shu nuqtadan boshlanadi. Ijro nuqtasi hamisha aniq va ravshan bo'lishi kerak. Qo'llarning turli holatlari-harakatlari erkinlik, qulaylik, tabiiylik va muhimi ijroga to'g'ri kelish kabi talablarga javob bera olishi lozim.

Diqqat nuqtasi

Dirijyor qo'llarini diqqat nuqtasiga o'rnashtirar ekan, qo'lning tirsak va bilak qismi gavdaga nisbatan oldinroqda bo'lishi, panja qismi esa nisbatan yuqoriroqqa qaratilgan bo'lishiga e'tiborni qaratish lozim. Barmoqlar esa kattaroq koptok ustida qo'nganday, yoy shaklini egallab, uni hovuchlab turganday bo'lishi kerak. Ijrochilar uchun dirijyor qo'l harakatining diqqat nuqtasi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu omil ikki turdan iborat:



1. Ijrochilarni diqqat e'tiborini jalb etish.
2. Asar sur'at jarayoniga binoan ijrochilarni ruhan va ma'nan sozlash, tayyorlash.

Yelka va qo'llar holati

**Yelka va qo'llarning qo'yilishi:** Dirijyorlik apparatining yetakchi qismi-qo'llardir. Dirijyor ijrochilarga qo'l harakatlari orqali asarning tezlik sur'ati, xarakteri, shijoati, ovoz quvvati kabilarning me'yorini ko'rsatib boradi.

Qo'llar-ijrochi bilan dirijyorni o'zaro bog'lab turuvchi asosiy omillardan biridir.

Dirijyorning qo'li quyidagi qismlarga bo'linadi:

1.Panja va barmoqlar
2.Bilak (panjadan tirsakgacha bo'lgan oraliq)
3.Tirsak (tirsakdan yelkagacha, ya'ni yelka oldi qismi)
4.Yelka.

Dirijyor qo'llarini harakat paytida kuychan va egiluvchan bo'lishiga alohida e'tibor berishi muhimdir. Qo'llarning diqqat nuqtasiga binoan to'g'ri pozitsiyani egallashi katta ahamiyatga ega. To'g'ri pozitsiyani egallagan qo'llar tabiiy erkin dirijyorlik qilish uchun qulay va tashqi ko'rinishi jihatdan ham maqsadga muvofiqdir.

Dirijyorning boshlang'ich harakatlari quyidagilardan iborat:

1. Diqqat
2. Auftakt
3. Ijroni boshlash nuqtasi
4. Ijroni uzish nuqtasi

Chap qo'l vazifasi

Chap qo'l cholg'ular, ovozlar, orkestr guruhlariga, xor va yakkaxon partiyalarni ijroga yo'llovchidir. U ijroning dinamik qirralarini ifoda etadi. Chap qo'l musiqiy ijro detallarini ko'rsatadi, dirijyorning hissiy-badiiy jihatlarini ifoda etishga xizmat qiladi. Chap qo'l cholg'ular, ovozlar, orkestr guruhlariga, xor va yakkaxon partiyalarni ijroga yo'llovchidir. U ijroning dinamik qirralarini ifoda

etadi. Bundan tashqari, asosan chap qo'l yordamida musiqiy bayon ajratiladi, jumlalar ayiricha ko'rsatib o'tiladi, jarangdorlik, alohida pauzalar ifodalanadi, musiqiy shakl uyg'unlik, faktura o'zgarishi ko'rsatib boriladi.

O'ng va chap qo'l o'rtasidagi asosiy farq shundaki, taktni belgilashni o'ng qo'l bajaradi, qolgan vazifalarni esa o'ng va chap qo'l birga bajarmog'i kerak.

### O'ng qo'l vazifasi

Dirijyorlikda boshqaruv vazifasini bajaruvchi o'ng qo'l avvalo taktlash, ya'ni vazn qismlarini ko'rsatish, asarning vazn tuzilishini namoyon qilishga mo'ljallangan. O'ng qo'l -yetakchi, ishonchli, tashabbuskor, "qat'iyatli" qo'ldir. Va nihoyat, hammaning diqqat markazida bo'lgan, dirijyorning ritmik ko'rsatmalarini aks ettiruvchi tayoqcha ham aynan o'ng qo'lda bo'ladi.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, quyidagi elementlar dirijyorlik uchun g'oyatda muhim ekanligini belgilaymiz:

1. Oyoqlarni qoidaga binoan mustahkam o'rnatamiz;
2. Gavdani to'g'ri va tekis ushlab turish;
3. Dirijyorlik paytida tabiiy qulaylik va albatta jismoniy erkinlikni his etish;
4. Qo'lning barcha qismlarini, ayniqsa panjaning erkinligini ta'minlay olish;
5. Mushaklar taranglashuviga yo'l qo'ymaslik;
6. Zarbli ijro nuqtalarini aniq va ta'kidli etib ko'rsatish;
7. Qo'l harakatining aniqligi va ta'sirchanligiga e'tiborni qaratish;
8. Qo'l harakatining ixcham va tejamliligini ta'minlash;
9. Qo'l harakatining ma'nodor va maqsadga muvofiqligi, ya'ni dirijyorning har bir harakati aniq maqsadga ega bo'lib, o'zini oqlaydigan bo'lishlariga erishishlariga qat'iy rioya qilish lozim.

### Dirijyorlik sxemalari

Dirijyorlik sxemalari aniq va oddiy harakatlarga asoslanadi. Bu dirijyor uchun qulay bo'lib, ijrochilar jamoasiga uning istaklarini yaxshi tushunishga imkon yaratadi. Bu asos qanchalik oddiy, aniq, lo'nda va ma'nodor bo'lsa, qo'l harakati yordamida partituralarning turli talablarini yetkazish imkoniyati shunchalik ko'p bo'ladi, dirijyorning qo'l harakati esa shunchalik chuqur ma'noga ega bo'ladi. Yuqorida aytilganidek, har qanday o'lchamdagi taktni kuchli va kuchsiz hissalar



tashkil etadi. Birinchi kuchli hissa-taktning asosi hisoblanadi. Taktning kuchli hissasi yetarli darajada chuqur, aniq va eng asosiysi, u taktning boshqa hissalariga qo'shilib ketmaydigan bo'lishi lozim. Kuchsiz va nisbatan kuchli hissalarga kelsak, ular u yoki bu metrning sxemasiga qarab qo'lning chapga, o'nga yoki tepaga harakati bilan beriladi.

Musiqiy amaliyotda shakllangan o'lchamlarni qo'llash tizimiga muvofiq, dirijyorlik sxemalari oddiy, murakkab va aralash turlarga ajratiladi:

1. Oddiy metrlar bitta kuchli hissani o'z ichiga olgan metrlar: 2/1; 2/4; 2/8; 2/16; yoki 3/2; 3/4; 3/8; 3/16 va hokazolar.
2. Murakkab metrlar kuchli yoki nisbatan kuchli hisoblangan metrlar bo'lib bular quyidagilar: 4/4; 4/2; 4/8; 4/16; yoki 6/8; 6/4; 8/4; 9/4 va hokazolar.
3. Aralash metrlarga esa turli oddiy metrlarni o'zaro yoki bo'lmasa murakkab metrlar bilan uyg'unlashgan metrlar kiradi: 5/2; 5/4; 5/8; 5/12; 7/4; 7/8; 7/16; 10/4;10/8;10/16; va hokazolar.

## Oddiy o'lchovlar Простые размеры

Ikki hissali Двух дольные



Uch hissali Трех дольные



## Murakkab o'lchovlar Сложные размеры

To'rt hissali Четырех дольные



Olti hissali Шести дольные



To'qqiz hissali Девяти дольные



O'n ikki hissali Двенадцати дольные



## Aralash o'lchovlar Смешанные размеры

Besh hissali Пяти дольные



Yetti hissali Семи дольные





### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Auftakt-qanday ma'noni anglatadi?
2. Dirijyorning diqqat nuqtasi qanday ko'rsatiladi?
3. Dirijyorning boshlang'ich harakati nimalardan iborat?
4. Dirijyorning o'ng va chap qo'l hakatlarining farqli jihatlarini nimada namoyon bo'ladi?
5. Dirijyorlik sxemalari necha turga bo'linadi?

### Topshiriqlar:

1. Auftakt ishorasini ko'rsatib bering!
2. Dirijyor ijrosini boshlash, uzish holatlarini ko'rsatib bering!
3. 2/4; 3/4; 4/4; 5/4; sxemalarini dirijyorlik qilib ko'rsatib bering!
4. Dirijyorlik jarayonida imo-ishoralarning ahamiyatli jihatlarini aytib bering!
5. Oddiy va murakkab o'lchovlarning farqli jihatlarini aytib bering!

### Tayanch iboralar:

Auftakt, temp, takt oldi, legato, diqqat, kuchli hissa, kuchsiz hissa, ijroni uzish, sxema, o'lchov, ijroni boshlash, xor, orkestr.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. Mamirov Q. Jamoa qo'shiqchiligi va amaliyoti.Toshkent, Ilm ziyo nashriyoti, 2012, -143b.
2. Melikova S.S, Vasilenko O.A. Dirijyorlik,O'quv qo'llanma.Toshkent,2018y.
3. Azimov K. O'zbekiston dirijyorlari, Toshkent, 2001y.
4. Toshmatov E. Dirijyorlik.-T.; O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008, -252b.
5. Ro'ziyev Sh, Xorshunoslik.Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987y.
6. Akbarov I.A. Musiqa lug'ati. -T.; F'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987y.
7. Shukurov J. Dirijyorlik. Toshkent, Istiqlol nashriyoti 2006, - 151b.

## Amaliy mashg'ulotlar
### 1 – Amaliy mashg'ulot.
### TALABALAR OVOZ TURLARINI ANIQLASH, ULARNI PARTIYALARGA BO'LISH VA TASHKILIY ISHLAR

**Reja:**

*1.Xor jamoasini tashkil etishda ovozlarni aniqlash*
*2.Xordagi ovozlarni partiyalarga bo'lish*
*3.Xor jamoasini tashkil etish*

Xor jamoasini shakllantirish jarayonida har bir ishtirokchining ovozini birma-bir eshitib ko'rib, ularga tavsif berib, individual tushuntirish ishlarini olib borish lozim. Vaqt o'tishi bilan ishtirokchilar orasidan xor sardori, shuningdek, ovozlar bo'yicha yetakchi tayinlanadi.

Ma'lumki xorda ovozlar-bolalar, ayollar va erkaklar ovoziga bo'linadi.

1. Bolalar ovozi-soprano yoki diskant (o'g'il bolalardagi eng baland ovoz) va alt ovoziga bo'linadi. Diapazoni birinchi oktava "do" notasidan ikkinchi oktava "sol" notasigacha bo'ladi.

Alt ovozi bolalar ovozining pastki ovozi bo'lib, diapazoni-kichik oktava "sol" notasidan ikkinchi oktava "re " notasigacha bo'ladi.

2. Ayollar ovozi ham o'z navbatida ikki turga bo'linadi: soprano va alt ovozlarga. Soprano-ayollarning eng yuqori ovozi bo'lib, u italyancha "Sapro" -so'zidan olingan bo'lib, baland, yuqori degan ma'noni bildiradi. Ovoz diapazoni "do" birinchi oktavadan "do" uchinchi oktavagacha bo'ladi. Alt-ayollarning pastki ovozi bo'lib ovoz diapazoni "sol" kichik oktavadan "fa" ikkinchi oktavagacha.

3. Erkaklar ovozi ham ikki turga bo'linadi: tenor va bas ovozlarga. Tenor lotincha "teneo"-"ishlayman" degan ma'noni anglatadi. Erkaklarning yuqori ovozi bo'lib, umumiy diapazoni "do" kichik oktavadan "do" ikkinchi oktavagacha.

Bas (italyancha"basso"-past)-erkaklarning past ovozi. Diapazoni katta oktava "fa","sol" notasidan -birinchi oktava "fa","sol" notasigacha boradi.

Talabalar ovoz turlarini aniqlashda dastlab har bir talabaning ovoz imkoniyatlarini aniqlab olish lozim. Talabaga yakka tartibda biror o'zi yoqtirgan qo'shiqlardan birini kuylatib diqqat bilan xor rahbari tinglashi kerak. Shunda ovozi qaysi partiyaga mosligi yaqqol ko'rinadi. Shundan so'ng talabani o'g'il bola bo'lsa tenor yoki bas partiyaziga, qiz bola



bo'lsa soprano yoki alt partiyaga o'tkazish lozim. Talabalarni ovozlarga bo'lish jarayonida e'tibor qaratiladigan jihatlardan yana biri qulay registrda kuylatishdir. Bunda talaba ovoz imkoniyatini erkin ko'rsata olishga erishadi.

Dastlabki mashg'ulotlarda quyidagicha sinovlardan o'tkazish ham yaxshi natijalar beradi:

1. Talabaning ovozi qaysi partiyaga mansubligi;
2. Ovoz tembri;
3. Ovoz diapazoni;
4. Intonatsiyaning tozaligi;
5. Musiqiy xotirasi;
6. Ritmni sezish qobiliyati;
7. Musiqiyligi;

Notani o'qiy olish kabi muhim jihatlariga e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Shunday qilib, ovoz avvalo uning tembriga, keyin esa diapazoniga qarab aniqlanadi.

Xorni tashkil etish jarayoni asosan ikki davrga bo'linadi. Birinchi davrga xor jamoasini tashkil qilish uchun bajariladigan barcha tayyorgarlik ishlari kiradi. Ikkinchi davrga esa rahbarning jamoa bilan uchrashuvi, barcha vokal musiqiy qobilyatlarni tekshirib, ovozlarni aniqlash kiradi.

Xor jamoasini tashkil etish uchun xorning yetuk darajasiga yetkazish jarayonidan avval moddiy zamin tayyorlanadi. Malakali rahbar va jo'rnavoz, repetitsiyalar o'tkaziladigan xona (yorug', qishda issiq, yozda salqin, akustik jihatdan to'g'ri sharoitlar hisobga olingan) pianino yoki royal bilan ta'minlanishi darkor.

Birinchi davrdagi tashkil etish jarayoniga quyidagilar kiradi:

- Qatnashuvchilarni xorga jalb qilish;
- Keng targ'ibot ishlari;
- Konsert va uchrashuvlar uyushtirish.

Ikkinchi davr. Xor rahbari qo'yilgan maqsad va vazifalar haqida, qo'shiq va xor san'ati haqida qisqa gapirib beradi. Yangi qo'shiqlar bilan tanishtirib, ko'pchilik biladigan qo'shiqlarni birlashib aytishga taklif qiladi. Birinchi marta xor bo'lib qo'shiq kuylagan talabalarning kuylash ishtiyoqi yanada oshib, keyingi mashg'ulotlarga katta xoxish bilan keladi. Shuning uchun xor rahbari jamoa bilan bo'ladigan ilk

uchrashuvga puxta tayyorgarlik ko'rishi va o'zining butun pedagogik mahoratini ishga solishi zarur. Shundagina xor rahbarining obro'si jamoa oldida baland bo'lib boshlagan ijodiy ishi samarali bo'ladi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xorda ovozlar necha turga bo'linadi?
2. Ayollar ovozi turlari nechta?
3. Erkaklar ovozi necha turga bo'linadi?
4. Xorni tashkil etish necha davrga bo'linadi?

### Topshiriqlar:

1. Soprano ovoz diapazonini aniqlang!
2. Alt ovoz diapazonini aniqlang!
3. Talabalar ovozini aniqlashda qanday jihatlarga e'tibor berish kerakligini izohlang!
4. Qulay registrda kuylash talabalar ovoz turlarini aniqlashda muhim jihatlarini aytib bering!

### Tayanch iboralar:

Soprano, alt, tenor ,bas, diapazon, registr, oktava, ovoz partiyalari, tembr, intonatsiya, ritm, musiqiy xotira, qobiliyat, xor.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. J.Shukurov.Dirijyorlik.Toshkent,"Istiqlol" nashriyoti, 2006 yil.
2. N.Muhitdinova.Xorshunoslik asoslari, O'quv qo'llanma, Toshkent, 2007yil
3. G.Mansurova.Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent, "Yangi nashr", 2008 yil.




## 2 – Amaliy mashg'ulot.
## VOKAL KUYLASH ELEMENTLARI. NAFAS OLISH, UNI SARFLASH.TOVUSHNI YO'LLASH, YARIM NIQOBDOR KUYLASH.

### Reja:

1. *Xorda vokal-xor ijrochiligi*
2. *Xorda nafas olish va uni sarflash*
3. *Xor ijrochiligida tovushni yo'llash*
4. *Xor ijrochiligida niqobdor kuylash*

Xor jamoasining asosini undagi vokal-xor ishlari tashkil qiladi.Vokal xor kompleks ishlari xorning muvaffaqiyatili faoliyati uchun zamin yaratadi. Xorda vokal ishlarining sifat darajasi xor dirijyorining malakasiga, vokal qobiliyati va pedagogik mahoratiga bog'liq. Xorda olib boriladigan vokal ishlarning maqsadi xonandalarda to'g'ri kuylash malakalarini o'stirishdir.

Xor jamoasi bilan ishlash jarayonida vokal-xor ishi muhim rol o'ynaydi. Xor mashg'ulotlariga ajratiladigan vaqtning yetarli bo'lishi, xor ishtirokchilarini yaxshi tanlab olish vokal-xor va musiqa ijrochilik malakalarini egallashda katta natijalarga erishish imkoniyatini beradi.

**Vokal ishlariga:**

-xorning muhim elementlari ustida ishlash (hamohanglikka, yaxshi sozga, so'z talaffuziga, badiiy ifoda vositalariga erishish);
-to'g'ri nafas olish, vokal tovush barpo qilish va uni shakllantirish;
-xor jamoasi a'zolarini bir xil vokal malakalariga ega qilish kabilar kiradi.

Vokal xor texnikasiga asosan, nafas, tovush hosil qilish, uni cho'zish, dinamika, intonatsiya va diksiya malakalari kiradi.

Xor jamoasi yaxshi vokal texnikaga ega bo'lmasa, u xorning ijrosida na uyg'unlik (ansambl), na tiniq soz, na aniq talaffuz va na badiiy ifoda bo'ladi. Shuning uchun xorda doim vokal-xor texnikasini rivojlantirish va ularni takomillashtirib borish zarur. Chunki xorda yaxshi ansamblga, sozga, dinamik mustahkamlikka, diksiyaga va tembr bo'yoqlariga erishishda vokal "fundament" ya'ni asos mustahkam bo'lishi kerak.

Xor bilan ishlash jaryonida har bir mashg'ulotda maxsus ovoz mashqlaridan foydalanish tartibini rejalashtirilishi lozim. Chunki, har bir mashq ma'lum maqsadlarga qaratilgan bo'lishi lozim. Har qanday

mashq ovoz apparatini yuqori pozitsiyaga tomon sozlash uchun foydalaniladi.

Xorda vokal kuylash elementlari shunchalik muhim ahamiyatga ega ekan, xor rahbari vokal pedagogikasini yaxshi bilishi va o'zi yaxshi ijro eta olishi talab qilinadi. Xonandalar esa ovoz gigiyenasini bilishi va ovozlarni ehtiyot qilib yurishlari kerak. Tovushni shamollatish, ovoz pardalarini toliqtirish, qattiq qichqirish kabi jihatlarga ehtiyotkorona yondashish talab etiladi.

Ma'lumki, inson nafas olish organlari orqali nafas olib tovush hosil qiladi. Kuylaganda nafas olish oddiy nafas olishdan farq qiladi va nafas tez olinib, sekin chiqariladi. Nafas olish bir necha turga bo'linadi:
-pastki qovurg'alar kengayishi orqali nafas olish;
-yelka kengayishi orqali nafas olish;
-qorin bilan nafas olish;
-ko'krak bilan nafas olish;
-zanjir uslubida nafas olish.

Tovush nafas va ovoz apparatining harakati natijasida hosil bo'ladi. Hosil bo'lgan tovushni rezonatorlar kuchlantirib turli tembr beradi. Rezonatorlar: bosh rezonator-yuqoriga; ko'krak rezonatori-pastga bo'lib, o'zining hajmini artikulyatsiya orqali o'zgartitib turadi.

Ovoz qo'yish (postanovka golosa)ning o'ziga xos murakkab tomonlari mavjud. Bular to'g'ri tovush hosil qilish va uni shakllantirish. Professional akademik xorda "ochiq"(oq tovush) bo'lishiga xormeysterlar asosan yo'l qo'yishmaydi. Xor ijrochiligida legato, ya'ni ohangning bir tekis bog'lanishi, nonlegato-alohida bog'lanmasdan ijro etish (tovushlar orasida nafasni ushlash orqali hosil qilish); stakkato-tovushni uzib, qisqa ijro etish (tovushlar orasida nafas olmasdan) kabi ijro uslublari uchraydi.

Legato-musiqa san'atida, shuningdek, vokal-xor ijrochiligida keng qo'llaniladigan asosiy shtrixlardan biridir. Markato-legatoga nisbatan kam ishlatiladigan shtrixdir.

Nafas olganda gavda erkin holatda bo'lishi kerak. Nafas olish qo'shiq kuylashga tayyorgarlik rolini o'taydi.

Shunday qilib, tovush hosil qilish va uni shakllantirishda nafas olish va chiqarishni, artikulyatsiya apparatining to'g'ri ishlatilishini xonandalar tomonidan yakdillik bilan bir xil bajarilishiga erishish lozim.

Xor ijrochiligida tovushni yo'llash (vokal texnikasi) bu-jamoaning yagona, uyg'un, boy va toza (sof) ovoz hosil qilishga qaratilgan mahorat bo'lib, bunda to'g'ri nafas olish (qorin nafas),



yagona ovoz berish usuli, to'g'ri talaffuz (intonatsiya), ovozni kengaytirish va har bir ijrochining ovozini ansamblga moslash asosiy vazifalar hisoblanadi.

**Asosiy jihatlar:**

**1.** Nafas olish: Xor ijrosida eng qulay va samarali nafas turi-bu qorin nafas (diafragma) bo'lib, u ovozga kuch va davomiylik beradi.

**2.** Ovoz hosil qilish: Har bir xonanda bir xil usulda ovoz chiqarishga harakat qiladi, bu esa ovozlarning bir-biriga "quyilib" ketishini ta'minlaydi.

**3.** Ovoz uyg'unligi: Turli xonandalarning ovozlari bir xil rang (tembr)da bo'lishi va bir-biriga balandligi bilan mos kelishi mumkin.

**4.** Intonatsiya (to'g'ri ijro): Tovushlarni to'g'ri (sof) intonatsiyada, ya'ni sozga moslab ijro etishga qaratilgan aniqlik.

**5.** Ovozni kengaytirish: Ovozni faqat baland ko'tarish emas, balki uni keng, to'la va har bir eshituvchiga yetib boradigan qilib chiqarish mahorati.

Xor ijrochiligida tovushni yo'llashga oid uslublar va texnikalar, shuningdek, xor dirijiyorining ushbu jarayondagi roli juda muhim.

Xor ijrochiligida niqobdor kuylash (yoki "og'izni yumib kuylash") degani xorning tovushini bir xil, silliq, ravon va bir butun qilish uchun niqob (maska) hosil bo'lib, tovushni burun bo'shlig'i (rezonator) orqali baland ko'tarib ijro etish usuli bo'lib, bu usul xorga boy, kuchli va yorqin tembr beradi. Bu usul ovozlarni umumiy bir "maska" (niqob) ostida birlashtirib, xorning umumiy rangini (tembr) bir xil qiladi va dirijyorning vazifasi shu bir xillikni ta'minlashdir.

**Asosiy xususiyatlari:**

-Bir xillik: Xorning barcha a'zolari ovozini yagona bir tembrga keltirish.
-Rezonans: Tovushni burun va tanglay bo'shlig'ida rezonansga kiritish, bu esa ovozga kuch va yorqinlik beradi.
-Dirijyor boshqaruvi: Dirijyor xorning har bir a'zosida shu niqobni hosil qilishga yordam beradi.
-"Og'izni yumib" kuylash: Bu jarayon tovushning yuz va burun bo'shlig'ida shakllanishini bildiradi.
Bu usul xor ijrosining sifatini oshirish, uni professional darajada ko'tarish va dirijyor boshqaruvidagi ovozlar uyg'unligini ta'minlash uchun juda muhimdir.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xorda vokal-xor ijrochiligining o'rni va ahamiyat nimalarda namoyon bo'ladi?
2. Xor ijrochiligida ansambl, diksiya, tembr asos bo'la oladimi?
3. Tovush qanday hosil bo'ladi?
4. Xorda nafas olish necha turga bo'linadi?
5. Xorda ochiq ovoz bilan yopiq ovozning farqli jihatlari nimada?
6. Niqobdor kuylashda asosiy xususiyatlar qaysilar?

### Topshiriqlar:

1. Xor ijrochiligida ovoz mashqlarining foydali jihatlarini aytib bering!
2. Nafas olish turlarini izohlab bering!
3. Xor ijrochiligida qaysi jihatlar asos bo'lishi mumkin!
4. Yopiq ovozda kuylash qanday bo'lishini ko'rsatib bering!
5. Kuylash jarayonida nafas olish va chiqarishni ko'rsatib bering!
6. Tovush yo'llashda asosiy jihatlarni ta'riflang!

### Tayanch iboralar:

Diapazon, registr, rezonans, tembr, nafas, ovoz, intonatsiya, uslub, diafragma, ansambl, soz, kuylash, ijro, diksiya, uyg'unlik.

### Foydalanilgan adabiyotlar:


1. G.Mansurova.Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti.Toshkent,"Yangi nashr", 2008 y.
2. Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik.Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot vas an`at nashriyoti, 1987y.
3. J.Shukurov.Dirijyorlik.Toshkent,"Istiqlol" nashriyoti,2006y.
4. Al Overview.




## 3 – Amaliy mashg'ulot.
## GAMMALAR KUYLASH. SOZLASH. ANSAMBLLIK. ASARNING BADIIY IJROSI USTIDA ISHLASH.

### Reja:

*1. Xor jamoasida ovoz sozlash mashqlarida gammalar ustida ishlash*
*2. Xor irochiligida sozning o'rni*
*3. Xorda ansambl uyg'unligiga erishish yo'llari*
*4. Xor ijrochiligida badiiy ijro ustida ishlash*

Xor jamoasi bilan ishlash jarayonining tarkibiy qismlariga gammalar kuylash, ovozni sozlash, ansamblik va asarni badiiy ijrosi ustida ishlash ham kiradi.

Xor jamoasini mashg'ulotlardan oldin ijrochilar ovozini qo'shiq aytishga tayyorlash -ovoz qo'yish jarayoni ya'ni (raspevka)dan boshlanadi. Ovoz apparatini qizdirish, har bir ijrochining eshitish qobiliyatini sozlash 10-20 daqiqa davom etishi mumkin. Bu ovoz mashqlari davomida xorning tekis hamohangligi (ansambli)ga jarangdorligiga erishiladi. Mashqlar xor jamoasining o'zining ma'lum bir o'rta registrida, qulay tessiturada, sodda, oddiy mashqlar bilan avval bir ovozda, asta sekin mashqlar ikki-uch ovozli bo'lib va polifonik (ko'p ovozli) tuzilishidagi mashqlar bilan yakunlanishi mumkin. Bu bajarilayotgan mashqlarning mukamalligiga:
-artikulyatsiya apparatining aktivlashtirilishi;
-ovozni tayyorlab qizdirilishi;
-ovoz diapazonini kengayib borishi;
-diksiya, so'z talaffuzining yanada aniqligiga olib keladi.

Xor rabari xor jamoasining sozini va ansamblini o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda sozlash mashqlarini o'zi ham tuzishi mumkin. Mashqlar fortepiano va jo'rsiz ijro etilishi mumkin.

### Mavzuga nota misollari:









Xor ijrochiligining malakasini yetuk darajadagi ko'rinishi uning soz va hamohangligidadir. Xorning yaxshi sozlanganligi xonandalarning musiqaviy malakasi, musiqiy o'quvi va xonandalik malakasini qanday darajada o'zlashtirganligi, emotsional holati, hamda asarning murakkabligiga bog'liqdir.

**Xor sozi asosan ikki turga bo'linadi bular:**

-melodik-gorizontal soz;

-garmonik-vertikal umumiy xorning sozi kiradi.

Xor sozining sof, toza bo'lishi xor ijrochilarining joylashuvi, xona yoki sahnaning akustik holatiga ham bog'liqdir.

Umuman to'g'ri intonatsiya qilish va ijro texnikasiga ega bo'lish- xor sozida soxtalik kabi kamchiliklarni oldini oladi va aniq sozga zamin yaratadi. Intonatsiya (lotincha "intona"-qattiq talaffuz qilaman) -tovush balandligini ovozda aniq talaffuz qilish.



Xorda toza sozni barpo qilish uchun ovoz partiyalarining sof intonatsiya birligiga erishish zarur. Ovoz partiyalarining birortasida soz noaniq bo'lsa, umumiy xorda hech vaqt toza soz bo'lmaydi.

Xor sozining muhim omillaridan biri, xonandalarni vokal tarbiyalashdir. Qo'shiq aytish, solfedjio kabi mashg'ulotlar orqali xor a'zolarining vokal va garmonik qobiliyati rivojlantiriladi. Ko'p ovozli xor asarlarini (ko'pincha akapella) kuylash (og'izni yumib yoki ochib), xonandalarning garmonik eshitish qobilyatini o'stiradi. Umuman, xorni sozlash (xor intonatsiyasini to'g'irlash) – bu xonandalarning birgalikda bir ovozdan, to'g'ri balandlikda va bir maromda kuylashini ta'minlashga qaratilgan mashg'ulot bo'lib, u xonandalarning vokal tayyorgarligi, nafas olishi, ovozni to'g'ri yo'naltirish va xor balandligini nazorat qilishni o'z ichiga oladi, bu esa xorning yagona, to'lqinli va garmonik ijrosini yaratishda muhimdir.

Xorni sozlash-bu doimiy jarayon bo'lib, u xor ijrosining sifatini oshiradi va tinglovchilarga zavq bag'ishlaydi.

"Ansambl" so'zi fransuzcha "ensemble" tushunchasidan olingan bo'lib, ma'nosi-birgalikda, ya'ni hamohang bo'lishni anglatadi. Xor san'atida ansambl eng qiyin kuylash turlariga kirib, aniq temp, ritm, ovozlar tembrining hamohangligi, yakkaxon, xor va fortepiano (orkestr) ishtirokchilarining (turli ovoz partiyalarining) uyg'unlashuviga olib keladi.

Xor ansambli asosan ikki turda - xususiy va umumiy ansambl ko'rinishida bo'ladi. Xususiy deb-alohida har bir kuylash partiyasi (ovozlar) tovushlari uyg'unligiga erishish, umumiy deb-xordagi barcha kuylovchi partiyalar (ovozlar) tovushlarning uyg'unligiga aytiladi.

Professor G.A.Dmitriyevskiy o'zining "Xor ansambli" uslubiy qo'llanmasida xor ansamblining quyidagi turlarga bo'linishi haqida izoh bergan, bularga;

-intonatsion ansambl;

-soz ansambli;

-tembr ansambli;

-dinamik ansambli;

-diksiya ansambli;

-tessitura ansambli;

-garmonik ansambllar kiradi.

Xor ansamblida o'z vaqtida tessitura masalasi ham katta ahamiyatga ega. O'z sharoitidan kelib chiqqan holda ansambl tabiiy yoki sun'iyligini ajratish mumkin. Barcha xor qatnashchilari ovoziga zo'r bermasdan normal holatda birday, past yoki yuqori kuylanib, o'rta

registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl hosil bo'ladi. Sun'iy ansambl esa ovozlar turli tessitura sharoitida bo'lganida qo'llaniladi. Bu vaqtda sadolanishni me'yoriga yetkazish uchun ovoz kuchli sun'iy bo'rttirilgan yoki aksincha susaytirilgan bo'ladi.

Xor ansambliga bo'lgan talab ijro etilayotgan asarning barcha tomonlariga tegishli, ayniqsa , uning tuzilish fakturalariga ham bog'liqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega bo'lib, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Amaliy mashg'ulotda xor ansambli unsurlariga *(fakturali, metro-ritmik, templi, dinamik, tembrli)* ohang, *uyg'unlik, polifoniya, ritm, temp, dinamika, tembr* kabi xor sadolanishi sifatlarining bir-biriga to'liq mosligi, uyg'unligi bilan erishiladi.

Xor asarlarining badiiy ijrosi ustida ishlash jarayonida badiiy ifodaga ham e'tibor qaratish lozim. Ifodali ijro asarning to'liq asosiy mohiyatini ochib beribgina qolmasdan, asarning badiiy g'oyasini tinglovchiga yetib borishida muhimdir. Bunday ijro tinglovchilar qalbini hayajonga soladi, quvonchga to'ldiradi.

Xorning ijrosidagi badiiylikka erishishda dinamik tuslarning ahamiyati cheksiz. Demak, har qanday dinamik tuslardan to'g'ri foydalanish malakalarini o'stirish ifodali ijroga zamin yaratadi.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xor jamoasida ovoz sozlash mashqlari necha daqiqagacha davom etishi mumkin?
2. Xor ijrochiligida sozning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Ovoz sozlash mashqlari qanday ijro etiladi?
4. Xor sozi necha turga bo'linadi?
5. Xor sozining xor ijrosiga ta'siri bormi?
6. Ansambl so'zi qanday ma'noni anglatadi?
7. Xor sozi necha turga bo'linadi?
8. Xor asarining badiiy ijrosi ustida ishlash jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozim?

**Topshiriqlar:**

1. Ovoz sozlash jarayonida qanday mashqlardan foydalanishni aytib bering!
2. Xususiy va umumiy ansambllarning farqli jihatlarini aytib bering!
3. Tessitura so'zining ma'nosini izohlab bering!



4. Xor sozining turlarini aytib bering!
5. Ovoz partiyalarining birida soz noaniq bo'lsa, umumiy xor soziga ta'sirini izohlab bering!
6. Intonatsiya so'ziga ta'rif bering!

**Tayanch iboralar:**

*Ansambl, soz, tessitura, intonatsiya, registr, ovoz partiyasi, dinamik tus, tembr, faktura, metro-ritm, temp, ijro, diksiya.*

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent," Yangi nashr" nashriyoti, 2008 yil.
2. I.B.Matyakubov. Xor va xorshunoslik. Toshkent, "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2019 yil.
3. N.D.Raxmatova. Xor va xorshunoslik. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2022 y.
4. Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik. Toshkent, G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 yil.
5. J.Shukurov. Dirijyorlik.Toshkent, "Istiqlol" nashriyoti, 2006 y.
6. Al Overview.

## 4- Amaliy mashg'ulot.
## DIRIJYORLIK HOLATI. DIRIJYORLIK HARAKATLARI VA ULARNING VAZIFALARI

**Reja:**

1. **Dirijyorlik holatlari**
2. **Dirijyorlik harakatlari**
3. **Dirijyorllikning maqsad vazifalari**

Dirijyorlik holati ijodiy jarayon bo'lib, unda dirijyor (boshqaruvchi) qo'llari, yuz ifodasi va tana harakatlari orqali ijrochilar (orkestr, xor) bilan musiqani birgalikda yaratadi, bu esa ijro qatnashchilari o'rtasida chinakam hamnafas va ijodiy aloqani o'rnatadi.

Dirijyor ijrochilarni dirijyorlik apparati orqali boshqaradi. Dirijyorlik apparatiga: qo'l, bosh (yuzi, ko'zi), gavda (ko'krak qafasi va tana) va oyoq kiradi.

Dirijyor eng avvalo yaxshi ovoz sohibi, a`lo eshitish, musiqiy xotira, iqtidorli kuylay olish, musiqiy usullarni yaxshi his qilish qobiliyatlariga, ovoz san'atiga xos bilimga, qolaversa, yaxshi ko'rinish, tetik qaddi qomatga, ega bo'lib, ijrochi va tinglovchi-tomoshabinlarga o'zining chiroyli qo'l harakatlari bilan estetik zavq ham baxshida eta olish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Dirijyor o'z gavdasini erkin tutib, yengil va tabiiyharakat qilishi, buning uchun esa ko'krak qafasini keng, yelkalarni tekis va tabiiy holda, mushaklarni esa erkin tuta bilishi shart. Shundagina dirijyor ishonch bilan dadil ishlay olish sharafiga muyassar bo'lishi mumkin.

Dirijyor avvalo qo'lning yelka oldi, ya'ni tirsakdan yuqori qismini (bundan keyin tirsak deb ataladi) erkin tuta olishi lozim. Shundagina bilak ham o'z navbatida yengil, yumshoq va egiluvchan bo'ladi. Aks holda yelka mushaklari taranglashib dirijyorning qo'l harakatini og'irlashtiradi.

Dirijyorning oyoqlari egiluvchanlikka xos, mustahkam o'rnashib olishi, ya'ni bir oyoqni bo'shashtirib, boshqa bir oyoqqa tayangan holda turishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dirijyorning oyoqlari oralig'i 15-20 sm. Masofada bo'lib, chap yohud o'ng oyog'i nisbatan oldinroqda joylashgan bo'lishi kerak, chunki dirijyor asar ijrosi davomida goho chapga, goho esa o'ng tomonlarga burilishi mumkin.

Dirijyorlik paytida bosh tanaga xos to'g'ri, ochiq va erkin turgani afzal. U ish jarayonida barcha ijrochilarni eshitib borishdan tashqari, ularni ko'rib turishi hamda ularni nazorat qila olishi, o'z navbatida esa



ijrochilar ham dirijorning yuz ko'zini aniq va ravshan ko'rib-turib ijro eta olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari shart.

Dirijyorning yuz tuzilishi asar xarakterini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun dirijyorning yuzi, ko'zi asar xarakteriga xos ma'nodor va mimikasi aniq bo'lishi lozim. Bu esa asarni badiiy ifodalab, obrazli yoritib berishga katta yordam beradi.
Yuz ifodasi, tana holati orqali asarning emotsional mazmuni va uslubi yetkaziladi, bu ijrochilarning hissiyotlarini ifoda etishga yordam beradi.

Mimika-ham dirijyorni aniq, ravshan va obrazli fikrlashining natijasidir. U ma'nodor, aniq ishora bo'lib, nafaqat ijrochilarni ruhlantirib ijro etishga undaydi, balki ishorani aniq va konkretlashtiradi.

Dirijyor apparatining yetakchi qismi- qo'llardir. Dirijyor ijrochilarga aynan qo'l harakati orqali asarning tezlik sur'ati, xarakteri, shijoati, ovoz quvvati kabilarning me'yorini ko'rsatib boradi. Aynan qo'llar dirijyor bilan ijrochilarni bog'lab turuvchi omillardan biridir.

**Dirijyorning qo'llari quyidagi qismlarga bo'linadi:**

***1. Panja va barmoqlar***
***2. Bilak***
***3. Yelka***
***4. Tirsak.***

Qo'lning barcha qismlari shu jarayonida faol ishtirok etishi bilan, har bir qismining o'ziga xos alohida faolligi ham mavjud.

Qo'llarning muloyim va nafis harakati, egiluvchanligiyu ravonligi shubhasizki mushaklarning ichki holatiga ham bog'liqdir. Qo'lning barcha harakatlari, uning rivojlanishi shubhasizki, yetakchi qismi bo'lgan panjaning ifodaligiga qaratiladi, chunki panja o'zining tabiiy egiluvchanligi bilan katta texnik imkoniyatga ega.

Dirijyorlik harakatlari asosan musiqaning tempini, dinamikasini (baland-past), frazalarni, artikulyatsiyani (ijro uslubi), asrning umumiy emotsional ruhini va tuzilishini ko'rsatadi, bu esa ijrochilarning birgalikdagi harakatlariga yo'nalish beradi.

Dirijyor qo'llari bilan musiqaning ya'ni asar tezligini belgilaydi, tez yoki sekin harakatlar bilan ijro ritmini boshqaradi. Qo'l harakatlarining kattaligi (katta zarblar baland ovoz, kichiklari past ijro uchun) orkestr yoki xorning baland-past ijrosini ko'rsatadi. Qo'l harakatlari bilan musiqa jumlalari (frazalar) shakllaantiriladi, ularning boshlanishi, avj va tugashini ko'rsatadi.

***Dirijyorlikning boshlang'ich harakatlari quyidagilardan iborat:***

1. Diqqat nuqtasi
2. Auftakt

registrlarda bo'lsa, tabiiy ansambl hosil bo'ladi. Sun'iy ansambl esa ovozlar turli tessitura sharoitida bo'lganida qo'llaniladi. Bu vaqtda sadolanishni me'yoriga yetkazish uchun ovoz kuchli sun'iy bo'rttirilgan yoki aksincha susaytirilgan bo'ladi.

Xor ansambliga bo'lgan talab ijro etilayotgan asarning barcha tomonlariga tegishli, ayniqsa , uning tuzilish fakturalariga ham bog'liqdir. Har bir xor ijrochisi yaxshi rivojlangan ansambl hissiga ega bo'lib, yuksak natijalarga erishish mumkin.

Amaliy mashg'ulotda xor ansambli unsurlariga (fakturali, metro-ritmik, templi, dinamik, tembrli) ohang, uyg'unlik, polifoniya, ritm, temp, dinamika, tembr kabi xor sadolanishi sifatlarining bir-biriga to'liq mosligi, uyg'unligi bilan erishiladi.

Xor asarlarining badiiy ijrosi ustida ishlash jarayonida badiiy ifodaga ham e'tibor qaratish lozim. Ifodali ijro asarning to'liq asosiy mohiyatini ochib beribgina qolmasdan, asarning badiiy g'oyasini tinglovchiga yetib borishida muhimdir. Bunday ijro tinglovchilar qalbini hayajonga soladi, quvonchga to'ldiradi.

Xorning ijrosidagi badiiylikka erishishda dinamik tuslarning ahamiyati cheksiz. Demak, har qanday dinamik tuslardan to'g'ri foydalanish malakalarini o'stirish ifodali ijroga zamin yaratadi.

### Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Xor jamoasida ovoz sozlash mashqlari necha daqiqagacha davom etishi mumkin?
2. Xor ijrochiligida sozning o'rni nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Ovoz sozlash mashqlari qanday ijro etiladi?
4. Xor sozi necha turga bo'linadi?
5. Xor sozining xor ijrosiga ta'siri bormi?
6. Ansambl so'zi qanday ma'noni anglatadi?
7. Xor sozi necha turga bo'linadi?
8. Xor asarining badiiy ijrosi ustida ishlash jarayonida nimalarga e'tibor qaratish lozim?

### Topshiriqlar:

1. Ovoz sozlash jarayonida qanday mashqlardan foydalanishni aytib bering!
2. Xususiy va umumiy ansambllarning farqli jihatlarini aytib bering!
3. Tessitura so'zining ma'nosini izohlab bering!



4. Xor sozining turlarini aytib bering!
5. Ovoz partiyalarining birida soz noaniq bo'lsa, umumiy xor soziga ta'sirini izohlab bering!
6. Intonatsiya so'ziga ta'rif bering!

### Tayanch iboralar:

Ansambl, soz, tessitura, intonatsiya, registr, ovoz partiyasi, dinamik tus, tembr, faktura, metro-ritm, temp, ijro, diksiya.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent," Yangi nashr" nashriyoti, 2008 yil.
2. I.B.Matyakubov. Xor va xorshunoslik. Toshkent, "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2019 yil.
3. N.D.Raxmatova. Xor va xorshunoslik. O'quv qo'llanma, Toshkent, 2022 y.
4. Sh.Ro'ziyev. Xorshunoslik. Toshkent, G'afur Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1987 yil.
5. J.Shukurov. Dirijyorlik.Toshkent, "Istiqlol" nashriyoti, 2006 y.
6. AI Overview.

## 4- Amaliy mashg'ulot.
## DIRIJYORLIK HOLATI. DIRIJYORLIK HARAKATLARI VA ULARNING VAZIFALARI

**Reja:**

1. **Dirijyorlik holatlari**
2. **Dirijyorlik harakatlari**
3. **Dirijyorllikning maqsad vazifalari**

Dirijyorlik holati ijodiy jarayon bo'lib, unda dirijyor (boshqaruvchi) qo'llari, yuz ifodasi va tana harakatlari orqali ijrochilar (orkestr, xor) bilan musiqani birgalikda yaratadi, bu esa ijro qatnashchilari o'rtasida chinakam hamnafas va ijodiy aloqani o'rnatadi.

Dirijyor ijrochilarni dirijyorlik apparati orqali boshqaradi. Dirijyorlik apparatiga: qo'l, bosh (yuzi, ko'zi), gavda (ko'krak qafasi va tana) va oyoq kiradi.

Dirijyor eng avvalo yaxshi ovoz sohibi, a`lo eshitish, musiqiy xotira, iqtidorli kuylay olish, musiqiy usullarni yaxshi his qilish qobiliyatlariga, ovoz san'atiga xos bilimga, qolaversa, yaxshi ko'rinish, tetik qaddi qomatga, ega bo'lib, ijrochi va tinglovchi-tomoshabinlarga o'zining chiroyli qo'l harakatlari bilan estetik zavq ham baxshida eta olish imkoniyatlariga ega bo'lishi lozim. Dirijyor o'z gavdasini erkin tutib, yengil va tabiiyharakat qilishi, buning uchun esa ko'krak qafasini keng, yelkalarni tekis va tabiiy holda, mushaklarni esa erkin tuta bilishi shart. Shundagina dirijyor ishonch bilan dadil ishlay olish sharafiga muyassar bo'lishi mumkin.

Dirijyor avvalo qo'lning yelka oldi, ya'ni tirsakdan yuqori qismini (bundan keyin tirsak deb ataladi) erkin tuta olishi lozim. Shundagina bilak ham o'z navbatida yengil, yumshoq va egiluvchan bo'ladi. Aks holda yelka mushaklari taranglashib dirijyorning qo'l harakatini og'irlashtiradi.

Dirijyorning oyoqlari egiluvchanlikka xos, mustahkam o'rnashib olishi, ya'ni bir oyoqni bo'shashtirib, boshqa bir oyoqqa tayangan holda turishi maqsadga muvofiqdir. Buning uchun dirijyorning oyoqlari oralig'i 15-20 sm. Masofada bo'lib, chap yohud o'ng oyog'i nisbatan oldinroqda joylashgan bo'lishi kerak, chunki dirijyor asar ijrosi davomida goho chapga, goho esa o'ng tomonlarga burilishi mumkin.

Dirijyorlik paytida bosh tanaga xos to'g'ri, ochiq va erkin turgani afzal. U ish jarayonida barcha ijrochilarni eshitib borishdan tashqari, ularni ko'rib turishi hamda ularni nazorat qila olishi, o'z navbatida esa



ijrochilar ham dirijorning yuz ko'zini aniq va ravshan ko'rib-turib ijro eta olish imkoniyatlariga ega bo'lishlari shart.

Dirijyorning yuz *tuzilishi asar xarakterini yoritishda muhim* ahamiyat kasb etadi. *Shuning uchun dirijyorning* yuzi, ko'zi asar xarakteriga xos ma'nodor va mimikasi aniq bo'lishi lozim. Bu esa asarni badiiy ifodalab, obrazli yoritib berishga katta yordam beradi.

Yuz ifodasi, tana holati orqali asarning emotsional mazmuni va uslubi yetkaziladi, bu ijrochilarning hissiyotlarini ifoda etishga yordam beradi.

Mimika-ham dirijyorni aniq, ravshan va obrazli fikrlashining natijasidir. U ma'nodor, aniq ishora bo'lib, nafaqat ijrochilarni ruhlantirib ijro etishga undaydi, balki ishorani aniq va konkretlashtiradi.

Dirijyor apparatining yetakchi qismi- qo'llardir. Dirijyor ijrochilarga aynan qo'l harakati orqali asarning tezlik sur'ati, xarakteri, shijoati, ovoz quvvati kabilarning me'yorini ko'rsatib boradi. Aynan qo'llar dirijyor bilan ijrochilarni bog'lab turuvchi omillardan biridir.

**Dirijyorning qo'llari quyidagi qismlarga bo'linadi:**

***1. Panja va barmoqlar***
***2. Bilak***
***3. Yelka***
***4. Tirsak.***

Qo'lning barcha qismlari shu jarayonida faol ishtirok etishi bilan, har bir qismining o'ziga xos alohida faolligi ham mavjud.

Qo'llarning muloyim va nafis harakati, egiluvchanligiyu ravonligi shubhasizki mushaklarning ichki holatiga ham bog'liqdir. Qo'lning barcha harakatlari, uning rivojlanishi shubhasizki, yetakchi qismi bo'lgan panjaning ifodaligiga qaratiladi, chunki panja o'zining tabiiy egiluvchanligi bilan katta texnik imkoniyatga ega.

Dirijyorlik harakatlari asosan musiqaning tempini, dinamikasini (baland-past), frazalarni, artikulyatsiyani (ijro uslubi), asrning umumiy emotsional ruhini va tuzilishini ko'rsatadi, bu esa ijrochilarning birgalikdagi harakatlariga yo'nalish beradi.

Dirijyor qo'llari bilan musiqaning ya'ni asar tezligini belgilaydi, tez yoki sekin harakatlar bilan ijro ritmini boshqaradi. Qo'l harakatlarining kattaligi (katta zarblar baland ovoz, kichiklari past ijro uchun) orkestr yoki xorning baland-past ijrosini ko'rsatadi. Qo'l harakatlari bilan musiqa jumlalari (frazalar) shakllaantiriladi, ularning boshlanishi, avj va tugashini ko'rsatadi.

***Dirijyorlikning boshlang'ich harakatlari quyidagilardan iborat:***

1. Diqqat nuqtasi
2. Auftakt

3. Ijroni boshlash nuqtasi
4. Ijroni uzish nuqtasi

Quvvat jihatdan qo'l harakatlari amplitudasi (ishora hududi)ning uch mavridi mavjud:

1. *f*-(forte) va undanda kattaroq ovoz jarangiga xos bo'lgan katta quvvatga mos qo'l harakati;
2. □p va m*f* ovoz jarangiga xos bo'lgan mu`tadil, ya'ni o'rta quvvatdagi qo'l harakati;
3. p, pp undanda yumshoq, hamda nozik ovoz jarangiga xos bo'lgan-kichik quvvatdagi qo'l harakatlari

Ijrochilar uchun dirijyor qo'l harakatining diqqat nuqtasi katta ahamiyatga ega bo'lib, bu okil ikki mavridan iborat:

1. Ijrochilarni diqqat-e'tiborini jalb etish;
2. Asarning sur'at jarayoniga binoan ijrochilarni ruhan va ma'nan sozlab, tayyorlash.

Dirijyor qo'llarini diqqat nuqtasiga o'rnashtirar ekan, qo'lning tirsak va bilak qismi gavdaga nisbatan oldinroqda bo'lishi, panja qismi esa nisbatan yuqoriroqqa qaratilgan bo'lishiga e'tiborni qaratish lozim.

Dirijyorning yelka qismi ham uning faoliyati uchun ahamiyatlidir. Yelka qismlari to'laligicha erkin va egiluvchan tuta olishlik, mushaklarning erkin harakatlanishini ta'minlaydi.

Dirijyor qo'llarini Diqqat nuqtasidan boshlab yuqori tomon ko'tara boshlash harakatiga "Auftakt" deyiladi. Auftakt-uch mavriddan iborat:

1. Qo'lning harakat va sur'atiga xos, ijrochilarga nafas oldirish;
2. Ijrochilarga asar xarakterini aniq va ravshan his ettirish;
3. Ijrochilarni asar sur'at tezligiga binoan tayyorlab borishlardan iboratdir. Bu mavridlarning barchasi esa bir-biriga bog'liqdir.

Dirijyorlikning asosiy holatlari, hamda dirijyorlik apparatining barcha komponentlari haqida aniq ma'lumotga ega bo'lgandan keyin, takt bo'ylab dirijyorlik harakatlarini boshlash maqsadga muvofiqdir. Auftakt, zarbli nuqta, zarbsiz nuqta, bular barchasi dirijyorlikka xos bo'lgan asosiy elementlar hisoblanadi.

1. Auftakt-diqqat nuqtasidan keying takt oldi harakatidir.
2. Zarbli nuqta-birinchi hissadagi ijro nuqtasi.
3. Zarbsiz nuqta-zarbli nuqtadan keyingi ijro nuqtasi.

Dirijyorning birinchi hissadagi qo'l harakati-usul (ritm) boshlanishining tashkilotchisidir. Sur'atni bir xil tezlik (temp)da olib borish mahorati dirijyorlikning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.



**Dirijyorlikning vazifalari**

Dirijyor avvalo oddiy qoidalarga rioya qilishi kerak. Asarni puxta va chuqur xorga rejasi bo'yicha o'rgatishi darkor. Dirijyor o'zi yaxshi kuylab ko'rsata olishi, oldiga qo'yilgan maqsadi sari pog'nama-pog'ona sermashaqqat mehnatga sabr toqatli bo'lishi lozim. Xor rahbari ya'ni dirijyor har xil metod va usullardan foydalangan holda jamoani ruhini ko'tarishi, toliqtirmaslik o'z vaqtida hazil qila bilish va maqsadiga erishish uchun doimiy izlanishda bo'lishi lozim.

Dirijyor- bu boshqaruvchi, musiqiy asar ijrosida qatnashuvchilarning barchasiga, ya'ni yakkaxon, xor va boshqalarga rahbardir. Dirijyor yaxshi ovozga, musiqiy xotiraga, yaxshi eshitish qobiliyatiga, musiqa usullarini yaxshi his etish, ovoz san'atiga xos bilimga, san'atkorlik va dirijyorlik qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

Dirijyor-bu xor jamoasining yaxshi pedagog, psixologi. Ya'ni u har bir xor a'zosining psixologik jihatini ham yaxshi bilishi kerak. Bundan tashqari u har qanday sharoitda vaziyatdan chiqib keta oladigan, muammolar yechimini yengillik bilan hal qila olishga qodir bo'lishi lozim.

**Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:**

1. Dirijyorning qo'llari asar ijrosi davomida qanday holatda bo'lishi lozim?
2. Dirijyor qanday bilim va tafakkurga ega bo'lishi kerak?
3. Dirijyorning qo'llari necha qismdan iborat?
4. Dirijyorning qo'l harakatlari musiqaning qaysi jihatlarini ochib beradi?
5. Dirijyorlikning boshlang'ich harakatlari nimalardan iborat?
6. Dirijyorning birinchi hissadagi qo'l harakati nimani anglatadi?

**Topshiriqlar:**

1. Dirijyorlik apparatiga taalluqli a'zolarni aytib bering!
2. Dirijyorning turish holatini ko'rsating!
3. Dirijyor apparatining yetakchi a'zolarini aytib bering!
4. Dirijyor qo'llarining diqqat nuqtasi qanday bo'lishini ko'rsating!
5. Auftakt so'zining ma'nosini aytib bering!
6. Dirijyorlikning vazifalarini izohlang!

**Tayanch iboralar:**

Dirijyor, ijrochi, badiiy ifoda, obraz, mimika, shijoat, faollik, nafas, emotsional, fraza, auftakt, dinamika, zarbli nuqta, temp, metod, qobiliyat, dirijyor apparati.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. J.Shukurov. Dirijyorlik. Toshkent, "Istiqlol" nashriyoti, 2006 y.
2. G.Mansurova. Xorshunoslik va xor jamoalari bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent, "Yangi nashr", 2008 y.
3. R.N.Muhitdinova. Xorshunoslik asoslari, Toshkent, 2007 y.
4. AL Overview.
5. I.Qudratov, E. Abdukarimova. Xor va xorshunoslik. Samarqand davlat chet tillar instituti nashriyoti, 2022 y.
6. E.Toshmatov. Dirijyorlik.Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008 y.



**5-Amaliy mashg'ulot**

## DIRIJYORLIKDA ODDIY CHIZMALAR(SXEMALAR)

**Reja:**

1. **Dirijyorlikda metr hissalarning ahamiyati.**
2. **Dirijyorlikning oddiy chizmalarida qo'l harakatlari.**
3. **Oddiy o'lchovlarda kuchli va kuchsiz hissalar.**

Dirijyorlik sxemalarini bajarishda qo'l harakatlarining kuchli va kuchsiz hissalarga ajratilishi takt belgilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Bu dirijyor uchun qulay bo'lib, ijrochilar jamoasiga uning istaklarini yaxshi tushunishga imkon yaratadi.

Qo'lning tepadan pastga harakati eng oddiy va kuchlisidir. Bunday harakatda birinchi hissaning boshqalaridan ajralib turuvchi kuchi va faol xarakteri alohida ko'rsatib o'tiladi. Bu kuchli hissa yetarli darajada chuqur, aniq va eng asosiysi, u taktning boshqa hissalariga qo'shilib ketmaydigan bo'lishi lozim. Kuchsiz va nisbatan kuchli hissalarga kelsak, ular u yoki bu metrning sxemasiga qarab qo'lning chapga, o'nga yoki tepaga harakati bilan beriladi.

Xor asarlarini dirijyorlik qilishda o'lchovlar katta ahamiyatga ega. Dirijyorlik chizmalari (sxemalari) aniq va oddiy harakatga asoslanadi. Har qanday o'lchamdagi taktni kuchli va kuchsiz hissalar tashkil etadi.

Ma'lumki musiqa amaliyotida shakllangan o'lchamlarni qo'llash tizimiga muvofiq, dirijyorlik oddiy, murakkab va aralash turlariga ajratiladi.

Oddiy metrlar deb, bitta kuchli hissani o'z ichiga olgan metrlar qabul qilingan:

2/2; 2/4; 2/8; yoki 3/2; ¾; 3/8 va hokazo.

Birinchi kuchli hissa taktning asosi bo'ladi. Masalan 2/4 o'lchovida birinchi hissa kuchli, ikkinchi hissa kuchsiz hissadir. Bu o'lchamda har bir qo'l harakatiga choraktalik nota to'g'ri keladi. Aniqroq qilib aytganda, qo'l harakatlari-birinchisi kuchli, ikkinchisi kuchsiz harakat bilan belgilanadi. Ikki hissali o'lchamlarda dirijyorlik qilish jarayonida taktning kuchli hissasiga kuchsiz hissaga nisbatan ko'proq urg'u berilishiga alohida e'tibor qaratilishi lozim.




3\4 o‘l`chovida birinchi hissa kuchli (zarbli), ikkinchi va uchinchi hissalar kuchsiz (zarbsiz)dir. Uch hissali o‘lcham uch hisobli ritmik davomiylikka, uch chorakka ega. Eng kuchlisi-birinchi hissa, nisbatan kuchsiz ikkinchi hissa va eng kuchsizi uchinchi hissadir.

Dirijyorlik qilish sxemasi quyidagicha: birinchi hissa-pastga, ikkinchi kuchsiz hissa o‘nga va uchinchi kuchsiz hissa yuqoriga. Aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, uch hissali o‘lchamda birinchi hissa aniq ifoda etilgan va vertikal tarzda pastga yo‘naltirilgan bo‘ladi. Ikkinchi hissa yumshoq qo‘l bilan gorizontal harakatda dirijyordan o‘ngga yo‘naltiriladi. Uchinchi hissada esa qo‘l harakati yuqori tomon yo‘naltiriladi.

Dirijyorlik chizmasi bo‘ylab o‘ng qo‘lning harakati to‘rt asosiy yo‘nalishni: pastga, chapga (tanaga), o‘ngga (tanadan), yuqoriga o‘z ichiga oladi. Bu harakatlar musiqaning muhim belgisini aks ettirib, kuchli va kuchsiz hissalarning ketma-ketligini ko‘rsatadi. Birinchi taktning eng kuchli hissasi qo‘lning pastga qarab harakatlanishi bilan ifodalansa, so‘ggi-eng kuchsiz hissasi qo‘lning yuqoriga harakatlanishida ko‘rinadi. Oraliq hissalar esa o‘zining o‘lchoviga qarab takt uzunligi bo‘ylab taqsimlanadi.




a)

4\4 hissali o‘lcham to‘rt hisobli ritmik davomiylikka, to‘rt chorakka ega.

4\4 hissali o‘lchov to‘rt harakatdan iborat bo‘lib, birinchi kuchli hissa-pastga, ikkinchi kuchsiz hissa-chapga, uchinchi nisbatan kuchli hissa-



o‘nga, to‘rtinchi kuchsiz hissa-tepaga ya’ni yuqoriga (boshlang‘ich nuqtasiga qaratiladi).

Birinchi kuchli hissa qo‘lning chaqqon harakati bilan tepadan pastga “Birga” ko‘rsatiladi, so‘ng qo‘l aks ettirish inersiyasi ta’sirida pastdan tepaga harakatlanganida birinchi harakatning yarmigacha yetkaziladi, so‘ng esa chapga harakat bilan ikkinchi hissaga ko‘tariladi. Uchinchi hissa chapdan o‘ngga bajarilgan harakat bilan ko‘rsatiladi. Bu harakat taktning nisbatan kuchli hissasini ifoda etadi. Va nihoyat, to‘rtinchi hissa esa tepaga kamonsimon egri chiziq yasab ko‘tariladi.

To‘rt hissali chizma quyidagi takt berishda qo‘llaniladi: 4\2; 4\4; 4\4; 4\8.

TO‘RT CHORAK O‘LCHOVI




### Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savollar:

1. Oddiy o‘lchovlarda qaysi hissalar kuchi hisoblanadi?
2. Kuchli hissa bilan kuchsiz hissalar dirijyorlikda qanday ko‘rsatiladi?
3. 2\4 olchovida qaysi hissa kuchi hisoblanadi?
4. 3\4 o‘lchovida kuchli hissalar nechta?
5. Dirijyorlik sxemasini bajarishda kuchli hissa qanday ko‘rsatiladi?

### Topshiriqlar:

1. Oddiy o‘lchovlarni aytib bering!
2. Kuchili hissa bilan kuchsiz hissalarning farqli jihatlarini aytib bering!
3. 3\4 olchovida kuchli hissani kursatib bering!
4. 2\4 va 3\4 o‘lchovlarida kuchli hissalrning farqli jihatlarini aytib bering!
5. 3\4 o‘lchovida birinchi hissa qo‘l harakati qaysi tomonga yo‘naltirilishini ko‘rsating!

**Tayanch iboralar:**

Dirijyor, o'lchov, kuchli hissa, qo'l harakati, chizma, metr, takt, kuchsiz hissa, ritmik, ifoda, gorizontal, inersiya, gorizontal, vertikal.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. E.Toshmatov. Dirijyorlik. Toshkent, O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008 y.
2. D. Raimova. Dirijyorlik. O'qu qo'llanma. Andijon, 2020 y.
3. J.Shukurov.Dirijyorlik.Toshkent,"Istiqlol"nashriyoti, 2006 y.
4. B.Azimov. Diriyorlik amaliyoti.Toshkent, 2010 y.
5. AL Overview.




**6-Amaliy mashg'ulot**

## DIRIJYORLIKDA MURAKKAB CHIZMALAR (SXEMALAR)

**REJA:**

1. ***Murakkab o'lchovlar***
2. ***Murakkab o'lchovlarining sxemalari (chizmalari)***
3. ***Murakkab o'lchovlarda kuchli va kuchsiz hissalar***

Murakkab o'lchovlar ikki (va undan ortiq)oddiy o'lchovdan iborat bo'ladi. Ikki (yoki ortiq) kuchli hissa, ya'ni bitta kuchli hissa va bir (yoki undan ortiq) nisbatan kuchli hissadan tashkil topadi.

Murakkab chizma (sxema)lardagi metrlarga kuchli yoki nisbatan kuchli, hisoblangan metrlar kiradi: 4\4; 4\2; 4\8; yoki 6\8; 6\4; 8\4; 9\4;9\16.
5\4; 5\8; 7\4, 7\8.

4\4 hissali o'lcham to'rt hisobli ritmik davomiylikka, to'rt chorakka ega. 4\4 hissali o'lchov to'rt harakatdan iborat bo'lib, birinchi kuchli hissa-pastga, ikkinchi kuchsiz hissa-chapga, uchinchi nisbatan kuchli hissa-o'nga, to'rtinchi kuchsiz hissa-tepaga ya'ni yuqoriga (boshlang'ich nuqtasiga qaratiladi).

Birinchi kuchli hissa qo'lning chaqqon harakati bilan tepadan pastga "Birga" ko'rsatiladi, so'ng qo'l aks ettirish inersiyasi ta'sirida pastdan tepaga harakatlanganida birinchi harakatning yarmigacha yetkaziladi, so'ng esa chapga harakat bilan ikkinchi hissaga ko'tariladi. Uchinchi hissa chapdan o'ngga bajarilgan harakat bilan ko'rsatiladi. Bu harakat taktning nisbatan kuchli hissasini ifoda etadi. Va nihoyat, to'rtinchi hissa esa tepaga kamonsimon egri chiziq yasab ko'tariladi.

To'rt hissali chizma quyidagi takt berishda qo'llaniladi: 4\2; 4\4; 4\4; 4\8.

### TO'RT CHORAK O'LCHOVI




5\4 hisali o'lchov murakkab o'lchovlardan biri bo'lib, ikki xil dirijyorlik qilish usullari borligi tushuntiriladi. Agarda 3\2 yoki 2\3 o'lchovda dirijyorlik qilish mumkin. 3\2da birinchi o'lchov ikki marta dirijyorlik qilinadi. 2\3da uchinchi hissaga ikki marta dirijyorlik qilinadi.

5\4 (besh chorak) dirijyorlik saxemasi murakkab o'lchov bo'lib, odatda 5ta zarbdan ikki xil usulda ijro etiladi: 3+2 (birinchi zarbda kuchli, so'ngra 2ta kichik zarba, keyin yana 2ta kichik zarba) va 2+3 (birinchi zarba kuchli, keyin 2ta kichik zarba, so'ngra 3ta kichik zarba), bular vazmin sur'atda "besh" va tez sur'atda "ikki" (yoki teskarisi) shaklida bo'lishi mumkin. Bu sxemalar orkestr yoki xorga musiqaning ritmik tuzilmasini aniq yetkazishga yordam beradi.

3+2 sxemasi: odatda 1-zarba (kuchli)+2-zarba (yengil)+3-zarba (yengil), keyin 4-zarba (yengil)+5-zarba (yengil). Bu 3ta zarba (3 va) 2ta zarba (2) guruhlariga bo'linadi.

2+3 sxemasi: odatda 1-zarba (kuchli) +2-zarba (yengil). Keyin 3-zarba (yengil) +4-zarba (yengil)+5-zarba (yengil). Bu 2ta zarba (2) va 3ta zarba (3) guruhlariga bo'linadi.

5\4 o'lchovining dirijyorlikda asosiy tamoyillari:

1. Asosiy zarba ya'ni kuchli hissa (birinchi)har doim aniq va kuchli bo'ladi.
2. Qolgan zarbalar esa (2,3,4,5) yengilroq, ammo vazifasiga ko'ra, sur'atga qarab farqlanadi.
3. Vazmin sur'atda "besh"ga, tez sur'atda esa "ikki"(2+3)shaklida bajarilishi mumkin.
4. Dirijyorlikda dirijyor ijrochilarga nafaqat buyruq berishi, balki musiqani tushuntirishi va ularni ilhomlashtirishi muhimdir.



## 5\4 O'LCHOVI



6\8 o'lchoviga dirijyorlik qilish ikki xil usulda amalga oshiriladi. Bu asarning sur'ati (temp)qanchalik tez yoki sekinligiga bog'liq. Agar musiqa sekin bo'lsa, har bir takt ichidagi barcha oltita hissa qo'l harakati bilan ko'rsatiladi. Harakatlar sxemasi quyidagicha: birinchi hissa qo'l pastga tushadi (kuchli hissa), ikkinchi hissa chapga kichik harakat, uchinchi hissa yana chapga (biroz kengroq) harakat, to'rtinchi hissa o'ng tomon o'tish (nisbiy kuchli hissa), beshinchi hissa o'ngga (yuqoriroqqa), oltinchi hissa yuqoriga nuqtaga qaytish.

Agar musiqa asarining tempi tez bo'lsa, 6\8 o'lchovi "ikki hissa" qilib boshqariladi (chunki 6ni 2ga bo'lganda 3+3 guruh hosil bo'ladi). Bu eng ko'p qollaniladigan usuldir. 1,2,3-hissalarda qo'l bitta umumiy harakat bilan pastga tushadi. 4,5,6-hissalarda qo'l bitta umumiy harakat bilan yuqoriga ko'tariladi. 6\8 o'lchoviga dirijyorlik qilishda har doim birinchi usul (1)pastga, oxirgi (6) esa yuqoriga qarab harakatlanadi.

6\8 o'lchovining o'ziga xosligi uning "uchlik" (triol) xarakterida ekanligidadir, ya'ni har bir asosiy zarb ichida uchta kichik bo'linma sezilib turishi kerak.





7\4 o‘lchami odatda 3\4 va 4\3 yoki 4\3 va 3\4 iborat kombinatsiyani tashkil etadi. Yetti hissali sxema(chizma)lar taktdagi metrik guruhlanishning turli variantlariga ega bo‘lishi mumkin: 2+2+2+1; 2+1+2+2; 1+2+2+2; 2+2+1+2; ularning almashinish tarkibi musiqiy jumla tuzilishiga qarab belgilanadi. Taktning nisbatan kuchli hissalari sustroq harakat bilan ko‘rsatiladi. Masalan 7\4 shakli:




Yetti hissali o‘lchovning turlari 7\4 va 7\8 bo‘lib, bular ikkita o‘lchov uch va to‘rt hissali (3+4 yoki 4+3)larning qo‘shilishidan iborat. Bunday o‘lchovga dirijyorlik qilinganda 3+4 guruhlanishida birinchi va to‘rtinchi hissalar, 4+3 guruhlanishida esa birinchi va beshinchi hissalar ajratib turiladi.

Yetti hissali o‘lchovning dirijyorlik sxemasi to‘rt hissali sxema bo‘yicha, birinchi-nisbatan kuchli hissa va takt oldi hissasini ikkiga ko‘paytirish bilan taktlanadi. 3+4 guruhlanishida birinchi va ikkinchi hissalar pastga qilib ko‘rsatiladi, uchinchi hissa-ichkariga, to‘rtinchi va beshinchi hissalar o‘zidan nariga ya’ni o‘ngga qilib ko‘rsatiladi, oltinchi va yettinchi hissalar pastdan tepaga yo‘naltirilgan harakat bilan ko‘rsatiladi. 4+3 guruhlanishida birinchi va ikkinchi hissalar bir yo‘nalishda pastga ko‘rsatiladi, uchinchi va to‘rtinchi hissalar ichkariga ya’ni o‘zi tomonga, beshinchi va oltinchi hissalar esa o‘zidan chetga va nihoyat yettinchi hissa tepaga ko‘rsatiladi.

**Mavzuni mustahkamlash bo‘yicha savollar:**

1. Qanday o‘lchovlarga murakkab o‘lchovlar deyiladi?
2. 5\4 o‘lchovida qaysi hissalar kuchli hisoblanadi?
3. Murakkab o‘lchovlarda kuchli va kuchsiz hissalarning farqi nimada?



4. 6\8 o‘lchovi necha usulda dirijyorlik qilinadi?
5. 6\8 o‘lchovida kuchli hissalarga qaysilar kiradi?
6. Yetti hissali o‘lchovda kuchli hissalarga qaysi hissalar kiradi?
7. 5\4 o‘lchoviga qanday dirijyorlik qilanadi?

**Topshiriqlar:**

1. Murakkab o‘lchovlar haqida ma’lumot bering!
2. 5\4 o‘lchovini dirijyorlik qilib ko‘rsating!
3. 6\8 o‘lchovida kuchli hissalarni ko‘rsatib bering!
4. Yetti hissali o‘lchovning guruhlanishini aytib bering!
5. Oddiy va murakkab o‘lchovlarning farqli jihatlarini ayting!
6. 7\8 yoki 7\4 o‘lchoviga dirijyorlik qilib ko‘rsating!
7. 4\4 va 5\4 o‘lchovlarining farqli jihatlarini aytib bering!

**Tayanch iboralar:**

Metr, kuchli hissa, temp, zarb, kuchsiz hissa, o‘lchov, sxema, ritm, sur’at, takt, triol, kombinatsiya, dirijyor, tamoyil, metr.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**


1. J.Shukurov.Dirijyorlik.Toshkent,“Istiqlol” nashriyoti, 2006 yil.
2. M.Ilhomova, L.Rasulova. Dirijyorlik. Toshkent, “Sharq” nashriyot matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2012 y.
3. S.S.Malikova,O.L.Vasilenko. Dirijyorlik,Toshkent, 2018 y.
4. B.V.Shomahmudova. Xor fanlarini o‘qitish uslubiyoti Toshkent, “Musiqa nashriyoti”, 2016 y.
5. D.F.Matsinova.Xor dirijyorligining pedagogik asoslari.Toshkent, “Fan ziyosi”, 2021 y.
6. E.Toshmatov.Dirijyorlik.Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2008 y.
7. D.Raimova. Dirijyorlik, O‘quv qo‘llanma, Andijon, 2020 y.

## 7-Amaliy mashg‘ulot: “O‘zbekiston Respublikasi Davlat Madhiyasi” Abdulla Oripov she`ri, Mutal Burhonov musiqasi. Asar tarixi, taxlili, partiyalarga ajratgan holda ishlash.

**Abdulla Oripov** 1941-yilning 21-martida, ya’ni Yilboshi bayrami kuni Qashqadaryo viloyati Koson tumanidagi Neko‘z qishlog‘ida tug‘ildi.

1958-yilda qo‘shni Tayzan ovulidagi o‘rta maktabni oltin medal bilan bitirgan yigit Toshkent Davlat Universiteti (hozirgi O‘zMU) “O‘zbek filologiyasi” fakulteti jurnalistika bo‘limiga o‘qishga kirib, uni 1963-yilda imtiyozli diplom bilan bitirdi. 1967-1974 yillarda G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyotda muharrir, katta muharrir bo‘lib xizmat qiladi. 1974-1976 yillarda “Sharq yulduzi” jurnalida bo‘lim boshlig‘i bo‘ladi. 1982-1983 yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining Toshkent viloyat bo‘limida mas’ul kotib bo‘lib faoliyat ko‘rsatdi.

1983-yilda shoir o‘quvchilarning jurnali “Gulxan”ning bosh muharriri bo‘ldi va u yerda 1985-yilgacha, ya’ni O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining kotibi lavozimiga o‘tguncha ishladi. Uyushmaning kotibi sifatida uch yil ishlagan Abdulla Oripov 1988-yilda O‘zbekiston Respublikasi mualliflik huquqini himoya qilish qo‘mitasi raisi vazifasiga o‘tkazildi. 1996-yilning mart oyidan 2009 yilga qadar shoir O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasining raisi vazifasida mehnat qildi.

Abdulla Oripov 1983- yilda Hamza nomidagi davlat mukofotiga sazovor bo‘ldi. Shu yili unga “O‘zbekiston xalq shoiri” unvoni berildi. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi respublika davlat mukofotiga loyiq ko‘rildi, 1998-yilda esa shoir “O‘zbekiston Qahramoni” unvoni bilan taqdirlandi. Abdulla Oripov O‘zbekiston Respublikasi davlat madhiyasining muallifidir.

Shoirning birinchi she’rlar to‘plami “Mitti yulduz” 1965-yilda chop etilgan. Undan keyin “Ko‘zlarim yo‘lingda” (1967), “Onajon” (1969), “Ruhim” (1971), “O‘zbekiston”, “Qasida” (1972), “Xotirot” (1974), “Yurtim shamoli” (1974), “Jannatga yo‘l” (1978), “Hayrat” (1979), “Hakim va ajal” (1980), “Najot qal’asi” (1981), “Yillar armoni” (1983), “Haj daftari” (1992), “Saylanma” (1996), “Sohibqiron” (1996), to‘rt tomlik “Tanlangan asarlar” (2000-2001) singari qator kitoblari bosilib chiqdi.



O‘zbekiston Xalq shoiri, O‘zbekiston qahramoni Abdulla Oripov 2016-yil 5-noyabr kuni ertalab AQShning Xyuston shahrida 75 yoshida vafot etdi.

**Mutal Burhonov** 1916-yil 5-mayda Buxoro shahrida tug‘ildi. Bolaligidan musiqaga qiziqdi va mehr qo‘ydi. Bolalik davrida oldin eski diniy maktabda, so‘ngra yangi maktablarda o‘qidi. Tanbur chalishni avval amakisidan, so‘ngra Ota G‘iyos Abdug‘anidan o‘rgandi.

1928—1932 yillarda Samarqandda O‘zbekiston musiqa va xoreografiya institutida ta’lim oldi. O‘qishni bitirgach, 1932—1935-yillarda Toshkentda Hamza va Dushanbeda A. Lohutiy nomidagi drama teatrlarida sozanda va musiqa rahbari lavozimlarida ishladi, musiqa bastalashga intildi.

1935-yilda Moskva konservatoriyasi qoshida ochilgan “O‘zbek opera studiyasi” da tahsil oldi. 1938-yilda Moskva konservatoriyasida professor S. N. Vasilenko sinfida o‘qishni davom ettirdi. Ikkinchi jahon urushi boshlanishi bilan ko‘ngillilar armiyasi safida Moskva shahri himoyasiga otlandi. 1942-yili qattiq betob bo‘lib, Toshkentga qaytib davolandi, ijod bilan shug‘ullandi. 1946-yildan o‘qishini davom ettirib, 1949-yili Moskva konservatoriyasi kompozitorlik fakultetini muvaffaqiyatli tugalladi.

U talabalik davridayoq ilk ijodini atoqli shoir A. Loxutiy she’rlariga bastalagan “Ey bulbul” romansi va “Buti nozaninam” (Mening go‘zalim) qo‘shig‘idan boshladi.

Mutal Burhonov “Maftuningman”, “Samolyotlar qo‘nolmaydi”, “Surayyo”, “Boy ila xizmatchi”, “Abu Ali ibn Sino” kinofilmlariga qo‘shiqlar yozdi. U birincliilardan bo‘lib romans janrini respubhkamiz musiqiy hayotiga joriy etdi. Ulug‘ shoir Alisher Navoiy g‘azallariga bastalagan “Tabassum qilmading” va Hofiz g‘azaliga yakkaxon va simfonik orkestr uchun “Namedonam chi nom dorad” (Ismingni bilmayman) romans-poemasi alohida o‘rin tutadi. Yakkaxon, xor va simfonik orkestr uchun “Gullagay O‘zbekiston kantatasi”, “Bahor qo‘shiqlari” vokal-simfonik poemasi. “Oq oltin” vals-qo‘shiq poemasini yaratdi.

Alisher Navoiyning 525 yillik yubileyiga bag‘ishlab Abdulla Oripov bilan hamkorlikda “Alisher Navoiyga qasida” vokal-simfonik poemasini yaratdi. M. Burhonov birinchilardan bo‘lib, o‘zbek, tojik, uyg‘ur, afg‘on va eron xalq qo‘shiqlarini: “Go‘zal qizga”, “Sari ko‘hi baland”, “Guli gandum”, “Bibigul” asarlarini xor uchun moslashtirdi. “Alisher Navoiy”, “Hikmat”, “Oygul va Baxtiyor” spektakllari uchun

musiqalar yaratdi. Bolalar xori uchun “Vatan bizga mehribon”, “Buxoroyi Sharif”, “Ochil paxtajon”, “Ey ulug‘ ustoz” kabi qo‘shiqlarga kuy bastaladi. Yakkaxon xor va simfonik orkestr uchun besh qismli “Abadiy xotira” nomli “Rekviyem” yaratgan. Bu asar qatag‘on yillarida qurbon bo‘lgan o‘zbek xalqining ulug‘ farzandlari xotirasiga bag‘ishlangan.

Kompozitor Mutal Burhonov O‘zbekiston musiqa madaniyati rivojlanishida buyuk xizmatlari uchun O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan san’at arbobi, O‘zbekiston xalq artisti faxriy unvonlariga sazavor bo‘ldi. “Mehnat shuhrati” medali, O‘zbekiston, Tojikiston va Belorus hukumatlari faxriy yorliqlari bilan mukofotlandi. 1999 yilda “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni, 2001-yilda “El-yurt hurmati” ordeni bilan taqdirlandi. Mutavakkil Burhonov Buxoro shahrida 2002-yilning 15-iyunida vafot etdi.

**Asar tahlili**

O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasining matni va musiqasi O‘zbekiston Respublikasining 1992 – yil 10-dekabrdagi 768- XII sonli “O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi to‘g‘risida”gi Qonun bilan tasdiqlangan. O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasi O‘zbekiston Respublikasi Davlat suverenitetining ramzidir.

O‘zbekiston Respublikasining Davlat madhiyasiga zo‘r ehtirom bilan qarash O‘zbekiston Republikasi har bir fuqarosining vatanparvarlik burchidir.

Madhiyada xalqimizning ezgu orzu-umidlari, kelajakka mustahkam ishonchi teran ifodalangan. Unda mardona va sharaflarga boy o‘tmishimiz, milliy an’ana va qadriyatlarimiz, tinchlik, osoyishtalik, millatlararo totuvlik va birodarlik kabi umuminsoniy tuyg‘ular tarannum etilgan.

Madhiya – qalbida o‘z vataniga muhabbat va sadoqat tuyg‘usi bor har qanday kishida milliy g‘urur, o‘ziga xos faxr, eng muhimi yurtga mehr uyg‘otadi. Bu milliy timsolda xalqning o‘tmishi, buguni va kelajagi, shuningdek, ziynati, orzu-o‘yi, maslak-maqsadi mujassam. O‘zbekiston Respublikasi madhiyasi yoshlarda vatanga muhabbat, boy tariximizga, milliy o‘zligimizga chuqur hurmatni shakllantirishda, farzandlarimizning har tomonlama yetuk insonlar bo‘lib voyaga yetishida muhim tarbiyaviy vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Madhiya – marsh-simfonik madhiyaviy janrda yozilgan bo‘lib, unda tantana, ulug‘vorlik, qat’iyat, g‘urur, matonat hamda jasurlik xarakterlari mujassamlashgan.



Mutal Burhonov musiqasi, Abdulla Oripov she’ri bilan yaratilgan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasi” asari Fa-major (F-dur) tonalligida, maestoso “tantanali” tempda, 4/4 o‘lchovida yozilgan bo‘lib unda vokal va cholg‘u (klavir) qismi mavjud. Ritmi aniq va barqaror bo‘lib jamoaviy ijroda qulaylik hosil etadi. Asar kupletlarini qaytarilishi bilan 53 taktdan iborat. Major ladiga asoslanib yozilgan bu asarda lad o‘z o‘rnida yorug‘lik, ishonch va g‘alaba kayfiyatini tarannum etadi. Madhiya aksariyat hollarda sol major, fa major tonalligida uchrasada, ba’zi hollarda mi major, re major tonalligidagi variantlarini ham uchratish mumkin.

Melodiyasi keng diapazonga ega bo‘lib, bir yarim oktavani qamrab olgan. Undagi melodiya rang-barang dinamikaga ega bo‘lib tinglovchida faxr va vatavparvarlik tuyg‘ularini uyg‘otadi.

Asar ikki qismli A+B shaklga ega bo‘lib, kirish qismi ya’ni boshlanishi fortepiano partiyasi Fa-major tonalligining D-dominanta akkordi ff-fortessimo bilan boshlanadi. Qo‘shiq esa takt oldi 4/4 o‘lchovining to‘rtinchi hissasidan kvarta intervalida triol bezaklari qo‘llanilgan holda “Serquyosh hur o‘lkam” so‘zlari bilan boshlanadi. Notalarning punktir o‘laroq yangrashi shahdamlik va jasurlikning yaqqol ifodasi bo‘lib xizmat qilgan.




Mutal Burhonov hayoti ijodiga bag‘ishlangan “Ohanglarda yashayman hamon” nomli hujjatli filmida O‘zbekiston Respublikasi Davlat madhiyasini yozish jarayonlarini eslab quyidagilarni ta’kidlab o‘tgan: “Milliy intonatsiyani ko‘rsatish uchun Shashmaqomning “Gardun” qismi ohangini madhiyamizning boshlanishida qo‘llaganman”.

Darhaqiqat Mutal Burhonovning bu asari o‘zbek milliy mumtoz asarlarining tantanavor marsh ohangi, mayinlik va lirizm uyg‘unlashgan yetuk ijodidir. Kompozitorning bergan intervyularidan ma’lum bo‘ladiki, o‘shal kezlarda ko‘plab boshqa yurt, millat vakillaridan bo‘lgan musiqashunoslar va kompozitorlar Burhonovning yozgan madhiyasini yuksak baholashgan va kompozitorning qilgan sodiqona mehnatiga tasannolar aytishgan, o‘z navbatida Mutal Burhonov ularga javoban o‘z minnatdorchiligini izhor etgan. Kompozitorning o‘z fikri bo‘yicha aytganda uning uchun madhiyada o‘zbekona intonatsiyaning asardan to‘laqonli taralib turishi eng muhim vazifalardan bo‘lgan. Buning uchun u Shashmaqomning “Gardun” qismidagi motivlardan foydalanishni eng afzal yechim sifatida ko‘rgan va uning bu qarashi o‘zini oqlagan. Darhaqiqat kompozitor o‘z asarida chin o‘zbekona intonatsiyani va mardonavorlikni mahorat ila jo etgan va bularning barini o‘zbek xalqi gimni o‘laroq muhrlanishiga sazovor bo‘lgan. Musiqadagi ko‘tarinkilik, milliy o‘zbekona intonatsiya va mardonavorlik madhiyaning har bir bandida hissiy jihatdan kuchayib boradi va yakunda vatanparvarlik tuyg‘usini mustahkamlaydi.

1-2 jumlalari 4+4 taktdan iborat bo‘lib, 3-4 jumlalari esa 3+3 taktdan iborat bo‘lib 1-qismini tashkil etadi. Birinchi qism 14 takdan iborat bo‘lib asar mavzusini ochib beradi. O‘z navbatida ushbu qism davriya, jumlalardan, jumlalar esa nisbatan kichikroq motivlardan tashkil topgan. Vokal qismida kvarta va kvinta sakrashlari, punktirlar ko‘proq qo‘llanilgan, dinamik jihatdan rang-barang ko‘rinishlar mavjud.

Asarning klavir qismi asosan vokal qismiga jo‘r bo‘lib yangraydi, garmonik jihatdan I, II, IV, V, VI, pog‘ona garmoniyalari foydalanilgan.

2-qismining 1-jumlasi Fa-majorning S(subdominanta) garmoniyasi bilan boshlanib 7 taktdan iborat, qo‘shiqning yuqori pardalariga to‘g‘ri keladi. “Oltin bu vodiylar jon O‘zbekiston” so‘zlari qo‘shiqning naqorati hisoblanib ikki ovozga bo‘linib ijro etiladi. 2-jumlasi 5 taktdan iborat. Ikkinchi qism 15 taktdan iborat bo‘lib u ham birinchi qism singari davriyalar, jumlalar va motivlardan iborat. Asar kulminatsiyasi aynan shu qismda ko‘rinadi. Asarda ikkita kulminatsiya bo‘lib ulardan biri ikkinchi qism boshida va tugallanishdagi so‘nggi taktda uchraydi.



2-qism boshi




2-qism oxiri (tugallanish)



Asarning klavir qismida vokal partiyasiga jo‘rlik saqlanib qoladi. Garmonik jihatdan asar subdominanta akkordi bilan boshlanib tonikada yakunlanadi, I, II, IV, V, VI, K64 bosqich akkordlari qo‘llanilgan. Madhiyaning tugallanishi Fa major (F-dur)ning to‘liq tonikasiga fff–fortesimoda tugaydi.

## 8-Amaliy mashg'ulot:
## "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MADHIYASI"
### To'liq ijro, dirijyorlik mahoratini shakllantirish

Abdulla Oripov she'ri

Mutal Burhonov musiqasi













Serquyosh, hur o‘lkam, elga baxt, najot,
Sen o‘zing do‘stlarga yo‘ldosh, mehribon!
Yashnagay to abad ilmu fan, ijod,
Shuhrating porlasin toki bor jahon!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

Bag‘ri keng o‘zbekning o‘chmas iymoni,
Erkin, yosh avlodlar senga zo‘r qanot!
Istiqlol mash’ali, tinchlik posboni,
Haqsevar, ona yurt, mangu bo‘l obod!

*Naqarot:*

Oltin bu vodiylar – jon O‘zbekiston,
Ajdodlar mardona ruhi senga yor!
Ulug‘ xalq qudrati jo‘sh urgan zamon,
Olamni mahliyo aylagan diyor!

**9-Amaliy mashg'ulot: "Yor – yor" o'zbek xalq qo'shig'i Muzaffar Naimov xor uchun qayta ishlab moslashtirgan. Asar tarixi, tahlili, partiyalarga ajratgan holda ishlash.**

**Muzaffar Urinovich Naimov** 1962 – yil 24 – fevralda Surxondaryo viloyati Denov tumanida, ishchilar oilasida tavallud topgan. 1977 – 1981 – yillarda Termiz Davlat musiqa bilim yurtini xor dirijyorligi mutaxassisligi bo'yicha tamomlagan.

1981 - yilda M. Ashrafiy nomidagi Toshkent Davlat Konservatoriyasi (hozirgi O'zbekiston Davlat Konservatoriyasi)ga Xor dirijyorligi mutaxassisligi bo'yicha o'qishga kirib, 1986 - yilda mazkur oliygohni muvafaqqiyatli tamomlagan.

1979-2007 yillarda turli umumta'lim maktablarida, Bolalar musiqa va san'at maktablarida, San'at va pedagogika kollejlarida o'qituvchi, direktor o'rinbosari va direktor vazifalarida ishlagan. 2007-yildan boshlab, Termiz davlat universitetining Musiqa ta'limi kafedrasida o'qituvchilik qilib boshlagach, 2009-yildan mazkur kafedrada mudir sifatida faoliyatini davom ettirgan.

M.Naimovga 2012-yilda Oliy attestatsiya komissiyasi qaroriga muvofiq dotsent ilmiy unvoni berilgan. 2013-yilda esa O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zoligiga qabul qilingan.

2018 – yildan Denov tumanida tashkil etilgan oliygoh Termiz Davlat Universiteti Denov filiali Pedagogika fakulteti dekani lavozimida ish faoliyatini davom ettirdi. 2020 – yil O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qaroriga muvofiq filial negizida yangidan tashkil etilgan Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida ham M.Naimov Pedagogika fakulteti dekani sifatida mehnat qildi.

2021 – yil aprel oyidan Pedagogika va aniq fanlar fakulteti "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi mudiri, 2021 – yil sentabrdan boshlab kafedra dotsenti lavozimlarida mehnat faoliyatini amalga oshirib keldi. 2022 – yil dekabrdan hozirgi kunga qadar "Maktabgacha ta'lim" kafedrasi professori vazifasini bajaruvchi sifatida ishlab kelmoqda.

Naimov Muzaffar O'rinovichning "Surxon qo'shiqlari" 1-2-3, "Qalb navolari", "Mehtar navolari", "Qadim Surxon navolari", "Surxondaryo ijodkorlari" 1-2, "Folklor qo'shiqlari jo'rsiz xor uchun" 1-qism, G.Saidmalikov bilan hamkorlikda "Ko'ngil bir navo istar", "Folklor qo'shiqlari bolalar xori uchun", "Folklor qo'shiqlari", "Surxondaryo etnografik xalq-havaskorlik ansambllari", "Dirijyorlik



asoslari", "Mavsumiy marosim qo'shiqlari" va hammualliflikdagi "Vokal ijrochiligi" kabi o'quv va uslubiy qo'llanmalari nashr etilgan.

N.U.Naimov 2023 - yil noyabrda 17.00.02-San'atshunoslik fanlari ixtisosligi bo'yicha "O'zbek marosim qo'shiqlari" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini (PhD) muvafaqqiyatli himoya qildi.

**Asar tahlili.**

O'zbek xalqining uzoq o'tmishidan hozirgi kunimizgacha saqlanib kelinayotgan ajoyib va xilma-xil urf-odatlar, rasm-rusumlar va udumlari mavjud. Ana shu urf-odatlarning ko'pchilik qismini to'y marosimlari tashkil etadi. Nikoh to'yining asosiy qo'shiqlaridan biri "Yor-yor" bo'lib, O'zbekistonimizning hamma hududlarida keng tarqalgan. Ularning har biri o'zining kuy tuzilish tartibi, ohang xarakteri va uning rivojlanishi, ritmi, ijro uslubi, so'z va musiqiy shevasi, ta'sirchanligi bilan farq qiladi.

Bu asar aralash xor uchun, o'rtacha tempda, 3\4 o'lchovida qayta ishlab xor uchun moslashtirilgan. Jami qaytarilishlar bilan 91 taktdan iborat. Asarning kirish qismi erkaklar xorining doira usullari ko'rinishidagi ohanglar bilan boshlanadi. Tenor va bass ovozlaridagi doira uslubi asar oxirigacha saqlanib qolib ba'zi hollarda, aniqrog'i jumlalarning tugallanishini o'z motivlari bilan to'ldiradi.

Kuydagi asosiy ohang ayollar ovozida ijro etiladi. Asarning rivojlov qismida diklomatsion uslubdan foydalanilgan bo'lib, bu asarda o'zbekona intonatsiyaning sezilib turishini ta'minlaydi. Dinamik tuslarga e'tibor qaratadigan bo'lsak muallif tomonidan rang-barang dinamikaning qo'llanilishi kuzatiladi, bunda ayollar ovozi nisbatan kuchliroq yangrashi kuyda balans saqlanishini ta'minlaydi. Koda qismi asarni yakunlovchi bo'lib xizmat qiladi, mazmun jihatdan kelin kuyovga baxt tilaklarini tarannum etuvchi so'zlar bilan yakunlanadi. Dirijyorlik qilish jarayonida 3/4 o'lchovining qo'l harakatlarida birinchi kuchli hissani aniq ko'rsatish talab etiladi.

**10-Amaliy mashg‘ulot: To‘liq ijro, dirijyorlik mahoratini shakillantirish.**

## YOR-YOR

O'zbek xalq qo'shig'i

M.Naimov xor uchun moslashtirgan

**O'rtacha**


















S.
A.
T.
B.
va - fo - li qi - zey yor, yor
ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum va - fo - li qi - zey
Tok - cha - - da - gi
Bo - ra - - yot - gan
yor, yor.
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum
qay - chi - ni
ke - lin - ni
Tok - cha - da - gi qay - chi - ni,
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum




S.
A.
T.
B.
zang bo - sib - di - yey, yor, yor.
g'am bo - sib - di - yey, yor, yor.
zang bo - sib - di - yey
g'am bo - sib - di - yey
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum
yor, yor.
Bak, ba - ka, bum zang bo - sib - di - yey yor, yor.
g'am bo - sib - di - yey yor, yor.
f
Yor, yor bi - lan kelin-chak bo - ra yo - tir yor, yor, du - o be - rib ota-jo-ni
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum


S.
A.
T.
B.
qo-la-yo-tir yor, yor Oq sut ber - gan o - na - jo - ni
Oq sut ber - gan
ba-ka, ba-ka, bum bak, ba-ka, bum ba-ka, ba-ka, bum bak, ba-ka, bum ba-ka, ba-ka, bum
Ro - zi bo'l - si - ney
o - na - jo - ni
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum
f
yor, yor.
Ro - zi bo'l - si - ney yor, yor.
p
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum yor, yor




mf
S.
A.
T.
B.
Ke - lin ku - yov ush - bu kun - dan - o
p
Bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum
1.
baxt - li bo'l - si - ney yor
Bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum
2.
p
bak, ba - ka, bum ba - ka, ba - ka, bum bak, ba - ka, bum bak.

## 11-Amaliy mashg'ulot: "Do'rsi- do'rsi" o'zbek xalq qo'shig'i Muzaffar Naimov xor uchun qayta ishlab moslashtirgan.

### Asar tahlili

Mazkur asar o'zbek mavsumiy marosim qo'shiqlaridan biri bo'lib, dalada hosil yig'ishtirilib olingandan keyin hosil bayramlari bo'lganidek, tog'larda uzum yig'ishtirib bo'lingandan keyin shinni bayrami ham o'tkazilgan. "Do'rsi-do'rsi" qo'shig'i shinni bayramining marosim qo'shiqlaridan biri sifatida ijro etilgan.

Qo'shiqning ohangi "Chamanda gul" ohangiga yaqinligi seziladi (bu qo'shiqning xarakteri, harakati, ohang tuzilishi va rivoji, talqin uslubida ko'rish mumkin).

Bu asar aralash xor uchun 6\8 o'lchovida, sho'x tempida bo'lib qo'l harakatlarining keskinligini kamaytirish maqsadida 2\4 o'lchovida dirijyorlik qilinadi. Tonalligi fa minor(f-moll)da yozilgan, qaytarilishlar bilan birgalikda 61 taktdan iborat. 5 taktli kirish qismi cho'zib ijro etiladi, unda ovozlar ketmaketligi tenor, soprano, alt va bas ko'rinishida "do'rsi" so'zi bilan, fa minorning to'liq uchtovushligini hosil qiladi. Dirijyorlikda chap qo'ldan o'ng qo'lga o'tilib, 5-taktda barcha ovozlar birgalikda fermatoni kuy xarakteriga muvofiq cho'zadi.

Qo'shiqning asosiy qismi sho'x tempda, naqoratdan boshlanadi. Ilk jumlada ovozlar unison yangraydi, dirijyor bunda o'z e'tiborini xorning birgalikda, aniq va tempning o'zgarishini to'g'ri aniqlagan holda sinkopali ritmik o'zgarishlarni aniq ko'sata bilishi lozim. Asarning keyingi qismida soprano, tenor ovozlarida unison bo'lib alt va bas tayanch tovushlarni kuylaydi. Qo'shiqning so'nggi takti barcha ovozlarda 2 oktava diopazonida asosiy tovushning unison yakunlanadi. Dirijyor yengil qo'l harakatlari bilan asarning sho'xshan xarakterini ko'rsatibgina qolmay, balki yuz ifodasida ham namoyon etishi lozim. Chunki yuz ifodasi dirijyorning ichki tuyg'usini ko'rsatishga yordam beradi. Ana shundagina asar ijrosi muallif yozganidek ijro etilishi mumkin.



# DO'RSI-DO'RSI

O'zbek xalq qo'shig'i

M.Naimov xor uchun qayta ishlagan




S.
A.
T.
B.
Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya ay - lan be - ling - ni ko'r - sin.
ff
Qo - ra u - zum qo - ra - si - day ko'z - la - ring - dan ay - la - nay.
O
ay - la - nay.
Qi - zil u - zum qi - zi - li - day lab - la - ring - dan o'r - gi - lay.
a
o'r - gi - lay.




S.
A.
T.
B.
Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya o'y - na bo' ying - ni ko'r - sin,
Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya ay - lan be - ling - ni ko'r - sin.
Ha do'r - si, do'r - si, do'r - si - ya ay - lan be - ling - ni ko'r - sin.

## 12-Amaliy mashg'ulot: "Deydiyo" o'zbek xalq qo'shig'i N. Sharafiyeva xor uchun qayta ishlab moslashtirgan.

Sharafiyeva Naira Sohibovna (1947.3.09, Toshkent) – xor dirijyori, professor, pedagog. 1965 yilda V.A.Uspenskiy nom. maxsus musiqa maktabini xor dirijyorligi bo'limi (Yu.I.Xurshudova sinfi)ni, 1970-y. Toshkent Davlat Konservatoriyasining xor dirijyorligi fakulteti va assistentura stajirovka (prof. V.I.Knyazyatov sinfi)ni imtiyozli tamomlagan.

Talabalik yillaridan u «Bulbulcha» xorida, 2-sonli San'at maktabi va umumta'lim maktablari xorlariga rahbarlik qilgan. Konservatoriya talabalari xori bilan G.F.Gendel, I.S.Bax, A.Vivaldi, V.Motsart, G.Sviridov, S.Slonimskiy, N.Sidelnikov, Yu.Falik, F.Yanov-Yanovskiy, P.Medyulyanova, R.Abdullayev va ko'plab boshqalarning asarlarini ijro etgan. Xor – Moskva, Samarqand, Buxoroda kontsertlar bergan. Shafiyeva va L.Jumaeva rahbarligida Germaniya, AQSh, Fransiya, Isroil elchixonalari ko'agida xalqaro musiqa loyihalarini o'tkazgan. Ular orasida: I.S. Baxning «Strasti po Ioannu», «Rojdestvenskaya oratoriya», G.F.Gendelning «Messiya», Y.Gaydnning «Sotvorenie mira» oratoriyalari, K.Orfning «Karmina Burana» kantatasi va boshqalar. N. Sharafiyeva xor san'atining yetakchi mutaxassisi, nozik didli musiqachi, akapella uchun Markaziy Osiyo xalqlari folklori namunalarini mohirona qayta ishlagan: «Sayribog'», «O'zbekiston taronalari», «Xorazm navolari», «Uyg'urcha raqs», «Mustahzod», «Yara yandim», «Deydiyo» va boshqalar, bolalar xori uchun ham bir qator jo'rsiz qayta ishlangan xalq qo'shiqlar muallifi. U o'quv metodik qo'llanmalar: «O'zbek xor adabiyotidan xrestomatiya» (hammuallif, 1982), «Xorshunoslik» (1987)darsligi, «O'zbekiston vokal xor ijrochiligi tarixi» kitobida maqola (1991), «Xor sinfi», ikkita nashr (2004, 2005) oq'uv qo'llanma, «Fauziya Fayziy» monografiyasi, xor aranjirovkasi, xor fanlarini o'qitish metodikasi, xor sinfi bo'yicha dasturlar, ma'ruzalar matnlari, «Teatr» jurnalida xor san'atiga oid maqolalar muallifi. N. Sharafiyeva faol jamoatchilik ishlarini olib boradi – konservatoriyada va undan tashqari Respublika viloyat va Toshkent musiqa o'quv yurtlarida Davlat imtihonlarini raisi, metodik birlashmalarning maslahatchisi, turli ko'rik-tanlovlar: «San'at bayrami», «Qo'shiq bayrami», Xalq ijodiyoti festivallar hay'atini boshqargan. «Oliy ta'lim a'lochisi» (1987) faxriy mukofoti, qator diplom, Faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan.



### Asar tahlili.

Naira Sharafiyeva aralash xor uchun moslashtirgan "Deydi-yo" asari o'zbek xalq qo'shiqlaridandir. Asar lya minor frigiy (ikkinchi pog'onasi yarim tonga tushurilgan) ladida, "Allegretto" (sho'x, hazil) tempida, 6/8 o'lchovida yozilgandir.

Asardagi avvalgi olti takt kirish qismi ko'rinishida bo'lib ovozlar bass, tenor alt va soprano ketma ketligida qo'shilishadi. Asosiy qismdan to'rt takt oldin tenor va bass ovozlari usul ko'rinishida ijroni boshlab berishadi. Xuddi shu ko'rinshda qizlar ovozi asosiy qo'shiqni ijro etishadi. Bu ko'rinishdagi ijro asar oxirigacha saqlanib qolmay ovozlar o'z vazifalarini almashtirishlari, ya'ni yigitlar ovozida asosiy qo'shiq va qizlarda yordamchi ovozlar ko'rinishida ham namoyon bo'ladi. Shunga qaramasdan qo'shiqning asosiy qismi qizlar ijrosida bo'ladi. Qizlar orasida yakkaxon ijrochi ham mavjud.

Qo'shiq davomida chertish va shunga o'xshash ifodaviy vositalar doimiy qo'llaniladi. Asosiy ohang frigiy ladida yozilganiga qaramasdan unda eoliy ladidagi ohanglar ham mavjudligi ko'zga tashlanadi.

Dirijyorlik 2/4 o'lchoviga qilinishi mumkin. Asardagi temp avvalgi olti taktda sekinroq, cho'zibroq dirijyorlik etilishi va yettinchi taktdan boshlabgina "allegretto" tempida davom ettirish ayni muddao. Asarni nozik va yengil harakatlardagi ko'rinishda dirijyorlik qilish maqsadga muvofiq. Unda asosiy qo'shiq va qo'shimcha usul ko'rinishidagi ijro mavjudligi dirijyordan qo'shiqni dinamik jihatdan aniqroq eshitilishini ta'minlashi talab etadi. Aytib o'tish joizki asardagi qo'shiqning bir maromda yangrashi dirijyorga qulaylik va erkin harakatlarni bajarishga imkon yaratadi.

## DEYDI-YO

O'zbek xalq qo'shig'i

**Sho'x, hazil** *N.Sharafiyeva* xor uchun qayta ishlagan









2.
Yakkaxon
dey- di. Shu yi- git- ga choy ber- ga- ni u- yo- la- man
dey- di.
5 mf
Dey- di- yo. dey- di- yo Ro'- mo- li bor
na- na- na
na- na- na
na- na- na na- na
dey- di- yo Ro'- mo- li- ni u- chi- da
na- na- na
na- na- na na- na
na- na- na na- na
tu- mo- ri bor dey- di- yo
na- na- na
na- na- na- na- na
6 f
na- na
f
Dar- yo- lar- ni




na- na- na na
ul yu- zi- da bir tup pa- lak dey- di.
na- na na
na- na
Bir tup pa- lak ta- gi- da qo'sh han- da- lak
na
7
ho
dey- di. qo'sh han- da- lak ya- rim xom
1.
2.
ya- ri- mi pish- gan dey- di(i) dey- di.
ho


f
dey- di. dey- di
suy- ga- nin- giz
Biz- lar- dan ham or- tiq- mi- kin
suy- ga- nin- giz
⑧ mf
dey- di.
Dey- di- yo. dey- di- yo
dey- di.
na- na- na
na- na- na na- na
Ro'- mo- li bor dey- di- yo Ro'- mo- li- ni
na- na- na
na- na- na
na- na- na na- na
o- ber- gan a- ka- si bor
dey- di- yo.
na- na- na
na- na- na na- na
na- na- na na- na




⑨
Ro'- mo- li ni o- ber- gan a- ka- si bor
na- na- na na- na
Dey- di- yo
mp
sekinlab
a- ka- si bor
a- ka- si bor

## 13-Amaliy mashg'ulot: "Qilpillama" o'zbek xalq qo'shig'i Botir Umidjonov xor uchun qayta ishlab moslashtirgan.

O'zbek professional musiqa san'atining yirik arboblaridan biri O'zbekiston xalq artisti, mohir xor dirijyori, atoqli bastakor **Botir Hoshimovich Umidjonov** professional xor san'atining ijrochilik rivojiga salmoqli hissa qo'shgan ijodkorlardan biridir. B.Umidjonov 1933-yilda Dushanbe shahrida tug'ildi. 1952-1955-yillarda Hamza Hakimzoda Niyoziy nomidagi Toshkent davlat musiqa bilim yurtining "Xor dirijyorligi" bo'limida, 1955-1960-yillarda Toshkent Davlat Konservatoriyasida "Xor dirijorligi" mutaxassisligi bo'yicha professor E.A.Gudkova sinfida tahsil oldi.

1960-yilda O'zbekiston teleradiokompaniyasi qoshida xor jamoasi tashkil etilib, unga 30 yildan ortiq rahbarlik qildi. Xor jamoasining ijrochilik mahoratini o'stirishda milliy an'anaviy ijrochilik uslubini qo'lladi, ulkan ijobiy yutuqlarni qo'lga kiritdi. B.Umidjonov mohir dirijyor, nozik didli musiqa sohibi, ta'sirchan xarakterga ega bo'lish bilan bir qatorda xalq ijrochilik uslublarini, xor ovozi va xor ijrochilik xususiyatlarini yuqori darajada bilishi uning qayta ishlagan va yaratgan asarlarida yaqqol ko'zga tashlanadi.

O'zbek va boshqa xalqlar an'anaviy qo'shiq, lapar, ashulalarini ko'p ovozli xor uchun o'zi hamda M.Burhonov va S.Boboyevlar bilan ijodiy hamkorlikda qayta ishladi va moslashtirdi. Shu bilan birga kompozitorlarning original xor asarlarini nafaqat respublikamizda, balki O'rta Osiyo va chet ellarda mohirona ijro etdi va el-yurt hurmatiga sazovor bo'ldi. Qolaversa, xor san'atini xalqlar orasida targ'ib qildi.

Yuqorida aytganimizdek Botir Umidjonov xor jamoasi rahbari bo'libgina qolmay, kompozitorlik faoliyatini ham olib bordi. U o'zbek va tojik xalqlari og'zaki ijodini chuqur o'rganib, o'z ijodida unumli foydalandi va musiqaning turli janr hamda uslublarida ijod qildi. Milliy ohanglar negizida musiqiy asarlar yaratdi.

Kompozitorning ijodiga mansub quyidagi original akapella xor asarlari vujudga keldi va xor jamoasi bilan mohirona ijro etildi. Jumladan, "Go'zal", "Oltin vodiy", "Ey sanam", "Ruboiy" akapellalari (A.Navoiy, X.Dehlaviy, Umar Xayyom so'zlariga), akapella xor syuitalari: tojik xalq qo'shiqlari asosida "Dilbarume" nomli syuitasi, tatar xalq qo'shiqlari asosida "Yashlar uyyuni" syuitasi, to'rt qismli



"Baxt nuri" syuitasi, D.Zokirov bilan ijodiy hamkorlikda "Asrim sadosi" kantatasi.

Kompozitor o'z ijodiy faoliyati davomida ko'p ovozli xor uchun ko'plab xalq qo'shiqlarini qayta ishlagan va moslashtirgan: o'zbek xalq qo'shiqlaridan "Yor nimalar devdim sizga", "Olmacha anoringga balli", "Qora soch", "Ililla yor", "Xurshidi jahon keldi", "Baxt yallasi", "Gal bari", "Zarafshonda to'y bugun", "Jon Andijon", "O'zgancha", o'zbek mumtoz musiqalaridan "Saraxbori navo", "Segoh", "Chorgoh", uyg'ur xalq qo'shig'i "O'ynamdu yaxshi", qozoq xalq qo'shig'i "Yapuray", tojik xalq qo'shiqlaridan "Gar namedoni bidon", "Diliman", ozarbayjon xalq qo'shig'i "Chal oyna", qirg'iz xalq qo'shiqlaridan "Qomuzchi", "Qizil gul", qoraqalpoq xalq qo'shiqlaridan "Chinbay", "Mungli qiz", "Dad alingnen".

Bulardan tashqari B.Umidjonov zamondosh va klassik shoirlarning she'rlariga ko'plab qo'shiq va romanslar yaratdi. Radio spektakllariga, musiqali dramalarga va o'zbek badiiy filmlariga musiqalar bastaladi.

B.Umidjonov rahbarligidagi xor jamoasining ijrochilik mahorati o'zbek xor san'atini Xalqaro festivallarda namoyish etish imkoniyatini yaratdi. O'rta Osiyo davlatlari va Ozarboyjonda Xalqaro festivalda, 1973-yil Olma-ota shahrida, 1978- va 1983-yillarda Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Xalqaro musiqashunoslar simpoziumlarida, 1983-yilda Tallin shahrida bo'lgan Xalqaro musiqa festivalida muvaffaqiyatli ishtirok etdi.

Xor san'atini yuqori cho'qqilarga ko'tarishdagi xizmatlari evaziga 1982-yilda "Respublikada xizmat ko'rsatgan ijrochi jamoa" unvoniga ega bo'ldi.

B.Umidjonov 1993-yilda pensiyaga chiqdi. Umrining oxirigacha Muqimiy nomidagi musiqali drama teatrida xor rahbari bo'lib ishladi. U yerda ham o'zining mohirona ish tajribasidan kelib chiqib, xor jamoasining ijrochilik mahoratini yuqori darajaga ko'tardi.

Botir Umidjonov 2004 – yil Toshkent shahrida vafot etgan.

### Asar tahlili

Ushbu qo'shiqni Botir Umidjonov aralash xor uchun qayta moslashtirgan. Lya minor (a-moll) tonalligida, hazilomuz-tez tempida yozilgan. O'lchovi o'zgaruvchan bo'lib 2/4, 3/4, 2/8 ko'rinishidagi o'lchovlar qo'llanilgan.

Qo‘shiq katta yoshli erkak va ayollarning hazilomuz, hajviy ko‘rinishdagi aytishuv qo‘shiqlaridan bo‘lganligi bilan bir qatorda, unda xalqimizning qadriyatlari, yoshlar tarbiyasiga doir masalalar, oilani e’zozlash kabi ezgu fikrlar joy olgan.

Asardagi kirish qismi ayollar (soprano va alt) ovozining usul ko‘rinishidagi ohangi bilan boshlanadi. Asar avvalida asosiy qo‘shiqni erkaklar ovozi ijro etsa, ayollar ovozida qo‘shiqqa ko‘makchi sifatidagi ohanglar ishlatilingan. Xuddi shu ko‘rinish asar davomida ham uchraydi, ammo bu safar aksincha ko‘rinishda ya’ni, ayollar ovozida asosiy qo‘shiq, erkaklar ovozida esa yordamchi ohanglar yangraydi. Asarning tugallanish qismida diklomatsion uslublar turli ovozlarda qo‘llanilganligi alohida ahamiyatga ega.

Dinamik tuslardan asar ijrosi davomida unumli foydalanilganligi ovoz ketma ketliklarida yaqqol seziladi. Asosiy qo‘shiqlar doimiy kuchli (f va ff) ijro etilib, yordamchi ko‘rinishidagi ovozlar nisbatan pastroq (p va pp) dinamikaga ega.

Dirijyorlikda asaosan kuyning ko‘p qismi 2/4 o‘lchovida dirijyorlik qilinishiga qaramay asar so‘ngida o‘zgaruvchan o‘lchovlar 3/4–2/4–2/8 ketma ketligi ko‘rinishida yakunlanishi kuzatiladiki, bular dirijyordan diqqat-e’tibor va o‘lchovlarning aniq ko‘rsatilishini talab etadi.



## QILPILLAMA

O'zbek xalq hazil qo'shig'i

B.Umidjonov qayta ishlagan




qil - pil - la - ma, yo - rey, qi - li - g'ing qiz - dak - ki - na,
o'ch-mas si - ra chi - ro - g'i,
Sho - li sol - dim ke - li - ga,
te - gir - mon ning do' - li - ga,
Ro' - mo - lim u - chi so - chiq,
kel - sam dar - vo - zang o chiq,
qil - pil - la - ma,
qil - pil - la - ma, qil - pil - la - ma,
qil - pil - la - ma,
qil - pil - la - ma, ey, yor.
Sho - yi qi - yiq ya - ra - shar,
Jon ta - sad - duq bo'-ying - ga,
qil - pil - la - ma, qil - pil - la - ma, o,
yor, yor, yor, yor,




qil - pil - la - ma yo - rey,
chol - gi - nam-ning be - li - ga,
bo'l - gan-man chin - dan o - chiq,
yor, yor, yor, yor,
qil-pil-la-ma, qil-pil-la-ma, jon-gi-nam.
Ey, yor! qil-pil-la-ma, jon-gi-nam.
qil-pil-la-ma,
qil-pil - la-ma,
chol-gi-nam-dan ay - la - nay,
qil-pil-la-ma,
Ha! Kam-pir! Qil-pil-la-ma.
qil-pil-la-ma,

### 14-Amaliy mashg'ulot: "Ililla yor"
### O'zbek xalq qo'shig'i B. Umidjonov xor uchun moslashtirgan
### Asar tahlili

Ushbu asar o'zbek xalq qo'shig'i bo'lib Botir Umidjonov aralash xor uchun qayta ishlab moslashtirgan. Qo'shiq sol major (G-dur) tonalligida, 2/4 o'lchovida, "Scherzando" (hazilomuz, o'ynoqi) tempida yozilgan.

Kompozitor ushbu asardagi ijodi bilan o'zbekona intonatsiyani saqlagan holda turli xil ijro usullar, kompozitsiyalar, garmoniyalashtirishlarni aniq ko'rsata olgan.

Asarning to'rt taktli kirish qismi avval ayollar ovozi (soprano va alt)da, so'ngra erkaklar ovozi (tenor va bass)da, yakunda barcha ovozlarning birgalikdagi ijrosida yangraydi. Ushbu qism og'irroq tempda ijro etiladi.

Qo'shiqning asosiy qismi ayollar va erkaklar o'rtasidagi aytishuv, savol-javoblar ko'rinishida bo'lib ovozlar ketma ketligi alohida ko'rinishdadir, ya'ni erkaklar qo'shiq payti ayollarda pauza va aksincha ayollar ijrosi payti erkaklar ovozida to'xtalishlar mavjud. Erkaklar bilan xotin-qizlar ovozlarining bir birining hazilomuz, yengil va quvnoq ko'rinishdagi ijrolari ko'rinadi. Qo'shiqdagi alohida qayd etiluvchi jihatlaridan biri uning so'zlar talaffuziga etibordir. Ijrochilar kuylash jarayonida tovushlarni yarim yopiq, akadem ijroda bo'lishiga, so'zlarning aniq va burro talaffuz etilishiga ahamiyat qaratmoqlari lozim.

Qo'shiq bandlarining qaytarilishi munosabati bilan, xilma-xil jarangdorlikka erishish uchun dinamik tuslardan unumli foydalanish ayni muddao. Asar ijrosidagi ushbu holat barchaga hissiy zavq ya'ni ko'tarinki kayfiyat baxsh etadi.

Asar dirijyor tomonidan 2/4 o'lchovida dirijyorlik etiladi. Qo'shiqdagi kuchli hissalar dirijyorning qo'l harakatlari bilan aniq ifodalanishi lozim jihatlardan bo'lib undagi intonatsion pauzalar, cho'ziluvchan tovushlar dirijyorning diqqat markazida bo'lmog'i darkor.



## ILILLA YOR

O'zbek xalq qo'shig'i

B.Umidjonov xor uchun qayta moslashtirgan




S. Solo
A. Solo
T. Solo
Soch-la-ri bel - ga cho'l-g'on-sin (o), i - lil - la yor, i - lil - la (ya).
B. Solo
S. Solo
1.Ho! Ro' mo-lim - ni o - lib - san,
2.Ho! Ro' mo-lim - ni ber baq - qa,
A. Solo
3.Voy! Sen-ga teg-may man o' - lay,
T. Solo
i - lil - la yor, i - lil - la (ya).
B. Solo
S. Solo
i - lil - la yor, i - lil - la (ya).
A. Solo
T. Solo
1.Ho! O-lib dor-ga o - sib - san,
2.Ho! Ha-zi-ling-ni qo'y aq - qa,
B. Solo
3.Ho! Se-ni ol-may man o' - lay!




S. Solo
Ho! To-za qol - dim cha-toq-qa (yo), i - lil - la yor, i - lil - la (ya).
A. Solo
T. Solo
B. Solo
S. Solo
i - lil - la (yo).
A. Solo
T. Solo
Ho! To-za qol-dim cha-toq-qa (yo), i - lil - la yor, i - lil - la (ya).
B. Solo

## 15-Amaliy mashg‘ulot: “Ufo‘ jaqala”
## O‘zbek xalq qo‘shig‘i M. Naimov xor uchun moslashtirgan
### Asar tahlili

Ushbu asar o‘zbek xalq qo‘shig‘i bo‘lib, Muzaffar Naimov xor uchun moslashtirgan. Asar aralash xor uchun lya major (A-dur) tonalligida, 6/8 o‘lchovida yozilgan. Tempi o‘zgaruvchan bo‘lib “sekin” tempidan “sho‘x” tempga o‘zgaradi.

Ushbu qo‘shiq aslida surxon folklor qo‘shiqlaridan bo‘lib, u odatda xalq orasida, folklor guruhlar tomonidan ijro etilganida unda raqs, o‘yin kulgu kabi holatlarni kuzatish mumkin. Xor jamoalari ijrosida ushbu holatlar inobatga olinib uni yengil sho‘x ijro etish maqsadga muvofiq. Asarning 6/8 o‘lchovida yozilganligi uni 2/4 o‘lchovida ham dirijiyorlik qilish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Avvalgi besh takt sekin tempda, soprano, alt, bass va tenor ovozlari ketma-ketligida ijro etiladi. Noturg‘un tovushlardan turg‘un tovushlarga o‘tilib yakunda garmonik jihatdan lya major tonikasining birinchi aylanmasi, tonika sekstakkordi (T6)da ovozlar jamlanishadi. Shundan keyin asarning asosiy qismiga o‘tiladi. Bu yerda asar tempi sekin tempdan sho‘x tempiga o‘zgarib qo‘shiqni aniq usul ko‘rinishida erkaklar ovozi boshlab beradi. Ko‘pgina o‘zbek xalq qo‘shiqlari singari ushbu asarda ham erkaklar ovozi va ayollar ovozi bir-biridan ajralib turadi.

Dirijyor qo‘shiqdagi ovozlar partiyalaridagi pauzalar, frazalarning yopilishi, dinamik belgilarning aniq ko‘rsatilayotganligiga e’tibor qaratishi lozim. Qo‘shiqda rang-baranglik, ijrodagi ta’sirchanlikni oshirish maqsadida qaytariluvchi jumlalarni turli xil dinamik ko‘rinishlarda (forte>piano yoki aksincha piano>forte) ijro etish ayni muddao. Partiyalararo savol javob ko‘rinishidagi aytishuvlar dirijyorda qo‘shimcha hushyorlik va chaqqonlikni talab etadi.

Tugallanish qismida asar boshidagi singari usul ko‘rinishida bo‘lib, barcha ovozlar birgalikda ijro etilishi bilan farqlanib turadi. Ayni shu qismda dirijyorning asar tempiga qo‘shimcha harakatchanlik (piu mosso) qo‘shishi, so‘nggi taktning ff (fortissimo)da tugatilishi ayni muddao va albatta fermatoni ham unutmaslik lozim.



## Ufo‘ jaqala

O‘zbek xalq qo‘shig‘i

Muzaffar Naimov




10
f
Suv ke-la-di mo'-ri-dan
yor, yor,_ yo-ro-ney yor, yor,_ yo-ro-ney
14
f
mo'-ri-dan ham na-ri-dan
yor, yor,_ yo-ro-ney yor, yor,_ yo-ro-ney.
18
yor, yor,_ yo-ro-ney
ff
A-ka-gi-nang ay-lan-sin,




22
Ko-ki-lim-ni
Ko-ki-ling-ni to-ri-dan,
25
yor, yor,_ yo-ro-ney
to-ri-dan,
yor, yor,_ yo-ro-ney
28
yor, yor,_ yo-ro-ney U-fo'
ja-qa-la
U-fo'
yor, yor,_ yo-ro-ney
ja-qa-la




Tom ustida beda bor, yor-yor, yoroney,
Maydasini elab ol, yor-yor, yoroney.
Shuncha barno ichidan yor-yor, yoroney,
Yaxshisini tanlab ol yor-yor, yoroney.

Surxon ko'rkidir Boysun yor-yor, yoroney,
Qizlar ro'molin yoysin yor-yor, yoroney.
Xalqimizning baxtiga yor-yor, yoroney,
Yurboshim omon bo'lsin yor-yor, yoroney.



## 1-Laboratoriya mashg'uloti: "Ax ti, step shirokaya" rus xalq qo'shig'i

### Asar tahlili.

"Ax ti, step shirokaya" rus xalq qo'shig'i bo'lib aralash xor uchun mostlashtirilgan, oddiy ikki qismli shaklda yozilgan, tonalligi mi minor (e-moll), shoshilmagan tarzda 3/4 o'lchovida ijro etiluvchi bu asar ko'pchilik uchun tanish asarlar turiga mansub.

Asarimizda har bir ovoz o'zining melodik yo'liga ega bo'lib o'z navbatida bu ijro paytida ovozlarga yaxshigina qiyinchilik tug'dirishi tabiiy hol. Qo'shiqdagi ovozlarning kuylash paytida oktavagacha bo'lgan oraliqdagi sakrashlari, triollar, qo'shiq davomida garmonik minorga o'tilishlar ijrochilardan yaxshigina ijrochilik mahorati, ko'nikma, bilim va yaxshigina mehnatni talab etadi.

Asardagi qo'shiq ikkinchi taktning ikkinchi hissasidan soprano va alt ovozlarida boshlanishi, to'rtinchi taktning uchinchi hissasidan tenor ovozining va oltinchi taktning ikkinchi hissasidan bass ovozining qo'shilishini ko'rish mumkin. Bunga qo'shimcha qilib ovozlardagi yarimtalik notalarning cho'zilib turishi, har bir frazadagi yopilishlarni aniq ko'rsata olish dirijyordan partiya bilan to'liq tanishib chiqishni o'z navbatida talab etadi. Qo'shiqdagi ikkinchi jumladan boshlab ovozlardagi ketma - ketlik o'zgaradi. Bu safar aksincha tenor va bass ovozlari jumlani boshlab berishadi, keyinchalik alt, so'ngra soprano ovozlari hamroh bo'lishadi.

Ikkinchi qismdagi ilk jumla barcha ovozlar bir vaqtda boshlanib bir vaqtda tugaydi. Ovozlardagi yarimtalik cho'zilib turuvchi notalarning joylashuvi dirijyorga qiyinchilik tug'dirishi tayin. So'nggi jumla birinchi qismdagi birinchi jumlaning takroriy ko'rinishi bo'lib, deyarli o'zgarishlar mavjud emas. Jumlaning oxirida soprano va alt ovozlari uch takt davomida ushlanib turiladi. Asar so'ngida qo'shimcha sifatida tenor va bass ovozlari asosiy mavzulardan birini yakunlovchi sifatida ijro etishadi. Yakundagi fermato asar xarakteriga mos ravishda cho'ziladi.

# Ах ты, степь широкая

Русская народная песня

Переложение для смеш. хора













### *2-Laboratoriya mashg‘uloti: “Olmacha anor”*

**O‘zbek xalq qo‘shig‘i Botir Umidjonov xor uchun qayta ishlab moslashtirgan.**

**Asar tahlili**

Asarda mehnat temasi kuylanadi, ya’ni cho‘li biyobonlarga suv keltirib, bog‘lar, paxtazorlar barpo qilgan va mo‘l hosil ko‘targan dehqonlarning mehnati sharaflanadi.

Botir Umidjonov qo‘shiqqa yangi, zamonaviy ohang kiritish bilan birga, uning an’anaviy ijrochilik shaklini ham saqlab qolgan holda yondoshgan. Qo‘shiq to‘rt taktlik muqaddima bilan boshlanadi. Bu yerda erkaklar xorning (tenor va bas) ikki ovozli imitatsion chaqiriq ohangi beriladi.

Asarning birinchi (A) qismi ham, o‘z navbatida, kichik (4 takt) muqaddima bilan boshlanadi. Birinchi, A qism 16 taktni tashkil qiladi. O‘z navbatida u kichik-kichik uch qism (ABA)ga bo‘linadi. Birinchi (A) qismining boshida erkaklar ovozi bilan to‘rt takt doira usuli beriladi va shu yo‘sinda umumiy xor naqorati ijro etiladi.

Asarning ikkinchi (B) qismi 21-taktdan boshlanadi. O‘rta qism aytarli katta bo‘lmasa-da (8 takt), u asarga bir butunlilik bag‘ishlaydi, uni to‘liq qiladi. Uning kulminatsion nuqtasi ham ana shu asosiy qismda joylashgandir. Shu qismiga avtor mohirona yondoshib yangi melodik material kiritadi. O‘rta qismida jarangdorlikka to‘liq erishish uchun umumiy xordan foydalanadi. Xorning har bir partiyasi mustaqil melodik yo‘nalishiga ega bo‘lishiga qaramay, ayrim joylarda tenor partiyasi soprano partiyasini, al`t partiyasi soprano partiyasini takrorlaydi. Shu qismning oxirida to‘rttala ovoz partiyasi ham bir monolit unisonga birlashadi va fermato yordamida tovushni cho‘zib turadi.

Asarning uchinchi qismida (29-takt) naqorat va asosiy kuy beriladi. U ikki musiqaviy, (8 taktli) jumladan iborat. Asasrning umumiy hajmi 37 taktni tashkil qiladi.

Asar o‘lchovi 2\4 bo‘lib, asarning oxirigacha o‘zgarmaydi. Aralash xor uchun qayta ishlangan bu asar jumlalari asosan nimchorak, nuqtali nimchorak va o‘n oltitalik notalardan iborat. Shakli oddiy, uch qismli. Tonligi mi-minor.

Ushbu xor qo‘shig‘ining asosiy tempi “Allegro-moderato” (o‘rtacha tezlikda). Shu ijro sur’ati ikkinchi (B) qismining oxirigacha

davom etadi. Ikkinchi qismining oxirida ijro sur'ati o'zgaradi, ya'ni "ritenuto" orqali ijro sekinlashadi. Uchinchi qismda yana birinchi tempga qaytadi.

Asar ijrosining yuqori saviyada bo'lishligi dirijyor uchun yetarli texnik tayyorgarlikka ega bo'lishligini talab etadi. Chunki asar tempining bir necha bor o'zgarishi hamda sinkopali ritmik usulini aniq ko'rsatilishi dirijyorning qo'l ishorasiga bog'liq bo'ladi. Ya'ni qo'llar birinchi hissada erkin tushib, bilaklar yuqoriga egilgan holda tez ko'tariladi. Asar, asosan, bir yo'sinda taktlarning birinchi hissasini bosib tekis dirijyorlik qilinadi.



## OLMACHA ANOR

O'zbek xalq qo'shig'i

B.Umidjonov qayta ishlagan




Ol - ma-cha a - no - ring-ga bal - li, to - za ray - ho - ning-ga bal - li,
bum, bum,
bum, bum,
Di bi, di - bi, bum, bum, bim.
Di bi, di bi, bum, bum, bim.
ol - ma - cha-yu ol - ma - cha, a - nor qur - bo - ning bo' - lay,
Ol - ma-cha a - no - ring - ga bal - li, to - za ray - ho -
bum, bum,
Di - bi, di - bi, bum, bum, bim.
Di - bi, di - bi, bum, bum,




ning - ga bal - li, 1.Dar - yo - lar - ni boy - la - ding,
2.Nur - li bo's - to - nim - ga kel,
bum, bum,
bim.
cho'l - ni bo's - ton ay - la - ding. Bog' - bo - nim, pax -
pax - ta may - do - nim - ga kel. Cho'l - lar cha - man
ta - ko - rim sen me - ning if - ti - xo - rim!
gul bo'l - sin, el xir - mo - ni mo'l bo'l - sin!






## 3-Laboratoriya mashg'uloti: "Yakkadur Toshkent"

### U.Qo'chqor she`ri, D.Omonullayeva musiqasi.

**Usmon Qo'chqor** 1953-yil 15-iyulda Buxoro viloyati Shofirkon tumanida mehnatkash oilasida tug'ilgan. Toshkent Davlat universitetining (hozirgi O'zMU) filologiya fakultetini tamomlagan.

1975–1977-yillarda G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida, 1977–1979-yillarda Shofirkonda ona tili va adabiyoti o'qituvchisi, 1979–1986-yillarda "O'zbekiston" nashriyotida muharrir, keyinchalik "Ma'naviyat" nashriyotida bosh muharrir bo'lib ishlagan.

Ijodiy faoliyati 1970-yillar oxiri va 1980-yillarda boshlangan. Birinchi she'riy to'plami – "Hayajonga ko'milgan dunyo" (1982), "Akssiz sadolar" (1986) to'plamlari nashr etilgan. Bolalar uchun "Chamangul" (1996) guldastasi uchun Respublika Davlat matbuot qo'mitasining mukofotiga sazovor bo'lgan. Qatag'on davri iztiroblari haqida "Quvg'in" dostonini yozgan.

"Shuhrat" medali va "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi" unvoni bilan taqdirlangan.

**Dilorom Omanullayevaning hayoti va ijodi.**

O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, kompozitor Dilorom Omanullayeva yurtimizning ko'zga ko'ringan ijodkorlaridan biridir. U 1959-yil 1-oktyabrda Toshkentda musiqachilar oilasida tavallud topgan. Uning bobosi musiqali drama teatri artistlaridan biri Muhammadjon Xolmuxamedov shu teatrning artisti San'atxon Xolmuxamedova (onasi) (Xalq orasida qizon, deb tanilgan sozanda va xonanda) va bolalarni estetik tarbiyalash bo'yicha ilmiy-uslubiyotning mutahasislaridan Darvin Omonullayevlarning farzandi.

Dastlab, Viktor Uspenskiy nomidagi maxsus musiqa maktabida fortepiano sinfi bo'yicha o'qiydi va professor Boris Zeydman sinfida kompozitsiyadan ham qo'shimcha saboq oladi. Dilorom Omonullayeva 1978-yil maktabni muvaffaqiyatli bitirib, O'zbekiston konservatoriyasining kompozitorlik fakultetida professor B. I. Zeydman sinfida tahsil oldi. B.I.Zeydman vafotidan so'ng O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi, kompozitor Rumil Vildanov sinfida o'qishni davom ettirdi.

Yosh mutaxassis talabalik davridayoq 1984-yilda Hamza xotirasiga bag'ishlangan "Sonata № 1", "Samarqand manzaralari", fortepiano uchun "Sonata № 2", bir necha romanslar va III qismli kvartet, fortepiano va fleyta uchun "Pomir eskizlari" polifonik pyesalarni taqdim etib, Toshkent davlat konservatoriyasini imtiyozli diplom bilan bitirdi. Yosh mutaxassis yo'llanma bilan Guliston san'at bilim yurtida 1984—1986 yillarda musiqa fanlaridan dars bera boshladi. 1986—1990-yillarda Omonullayeva konservatoriyada professor T.Qurbonov sinfida assistent – stajyor sifatida saboq oladi.

Dilorom 1990—1993-yillarni konservatoriyada „Bastakorlik va cholg'ulashtirish kafedrasi"da o'qituvchi bo'lib ishlay boshladi. Omonullayevaning ijodiy faoliyatida zamonaviy estrada qo'shiqchilik san'ati ustuvor turadi. U zamondosh shoirlardan U. Azimov, Z. Obidov, J. Jabborov, Y. Mirzo, P. Mo'min, U. O'tamov, M. Omon, B. Rajab, N. Narzullayev, Y. Suyunov, E. Madraximov, Z. Mo'minova va H. Xudoyberdiyeva va boshqalarning so'zlariga, turli mavzularda 100 dan ortiq qo'shiqlar yaratgan. Ular orasida "Men seni hech kimga bermayman", "Yomg'ir yog'di", "Saraton", "Siz yoqqansiz menga hamisha", "Ikki daraxt", "Sen qaydasan", "Azizim", "Baxtiyorim", "Yashnayver O'zbekiston", "Qora atlas","Armon bo'lmasin", "Ko'nglim qushi qo'lingda", "Yig'lama", "Yolg'on dunyo", "Otash zamon", "Bilsang edi", "Elegiya" va boshqa shu kabi bastalangan asarlari estrada xonandalari K.Razzoqova, K.Qayumov, M.Oynaqulova, A. Rahimova, R. Bo'ronova, aka-uka Saidoripovlar ijrolarida mashhur bo'ldi. Omonullayevaning bolalar uchun ham yaratgan qo'shiqlari bor. Jumladan 1985-yilda "Gul qo'shigi" multfilmi uchun musiqa bastalagan. D.Omonullayeva 1997-yilda "Sharq taronalari" xalqaro musiqa festivali madhiyasiga musiqa bastalagan.

2001-yilda O'zbek milliy teatri ochilishiga U. Azimov she'riga "Milliy teatr madhiyasi" ni yaratdi. 1998-yilda Prezident huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi madhiyasini N. Komilov she'ri bilan yaratdi. Vatanparvarlik mavzusida 30 ga yaqin qo'shiqlar jumladan, "Zarralari zar vatan", "Tug'ilgan kuning muborak bo'lsin", "Sen mening Vatanim", "To'ylaring muborak", "Aziz bo'ston-O'zbekiston", "Humo qushim", "O'zbekiston vatanim manim" kabi ko'plab qo'shiqlar yaratdi.

D.Omanullayevaning ijodiy bisotidagi 3 ta simfoniya, fortepiano va simfonik orkestr uchun konsert, yakkaxon, xor va orkestr uchun



"Baxtnomamiz taronasi" nomli oda, yakkaxon va orkestr uchun "Istiqlol madhiyasi" nomli oda, xor uchun "Hayyom ruboiylari" turkumi, kamer-cholg'u asarlar, romans va qo'shiqlar o'zbek kompozitorlik musiqasining durdonalaridan hisoblanadi. D.Omanullayeva o'z davrining so'z va musiqa sohasida ijod etadigan zabardast kompozitoriga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Zero, uning 200 dan ortiq estrada qo'shiqlari xalq orasida keng tanilib, yurtimizning eng ilg'or san'atkorlari, xalq artistlari, xizmat ko'rsatgan artistlar, yosh xonandalarning repertuarida muntazam yangraydi.

Dilorom Darvinovna Omolullayeva 1998 yili "Do'stlik ordeni" bilan taqdirlangan. U 2009-yilda O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi faxriy unvoni, "Ofarin mukofoti" sohibasi, "O'zbekiston-Vatanim manim" va boshqa tanlovlar sovrindori bo'lgan.

**Asar tahlili**

Kompozitor ushbu asari bilan O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrini chin ma'noda o'z qo'shig'ida madh aylagan. Kompozitorning kelajakka bo'lgan ishonchli nigohi, Toshkent shahrini vatanimiz yuragiga mengzatishi ayni haqiqatdir.

Usbu asar sol minor (g-moll) tonalligida bo'lib, tempi "Moderato con anima", 4/4 o'lchovida yozilgan. Asar mazmuni Vatan haqida bo'lib undagi lirik xususiyatlar kompozitor va shoirning ichki kechinmalari chuqur hissiyot bilan bayon etilgan. Melodiyasi juda ta'sirli bo'lib tinglovchida o'zgacha yoqimli hissiyotlarni, vatanga bo'lgan jo'shqin hissiyotlarni jumbushga keltira oladi. So'zlarda "Vatan", "O'zbekiston", "Toshkent"ga ko'p martalab urg'u berilishi insonga vatanparvarlik, unga bo'lgan mehr va muhabbat, sadoqat kabi tuyg'ularni vujudga keltiradi.

Asar oddiy ikki qismli shaklda yozildan bo'lib undagi avvalgi 8 takt cholg'uda ijro etiladi. Cholg'u partiyasidagi kuy sekvension ko'rinishda bo'lib tanho shu qismning o'zida yangrab asar davomida boshqa uchramaydi.

Dirijyor o'z navbatida asar mazmuniga most ravishda erkin va chiroyli ko'rinishdagi dirijyorlik etishi maqsadga muvofiq. Ikkinchi qisimga o'tishda kuyda 4/4 o'lchovidan 2/4 o'lchoviga bir taktli o'tish mavjudligi dirijyorga o'z navbatida hushyorlik va diqqatni talab etadi. Dinamikaning ff (fortissimo)ga o'zgarishi keng va aniq ifodaviy dirijiyorlik qilishni taqozo etadi.

Kuyda naqorat qismi harakatchanlikni talab etgani tufayli unda "piu mosso" ayni muddao bo'lib barchaga jo'shqinlik ruhini taqdim etadi. So'nggi taktdagi fermato ijrochi jamoadan dirijyorga nisbat diqqatlilikni talab etadi va fermatoni ayni dirijyor ko'rsatganidek tutib turish, undan keyin bir xil boshlash va aniq "Toshkent" so'zini ifodaviy ijro etilishi muhim jarayonlardandir.

Bu kabi 4/4 o'lchovidagi qo'shiqlar talabalarning dirijyorlik mahoratlarini oshirishda va yangicha ijro ko'nikmalarini shakillantirishda, ulardagi bilim va malakalarining oshishida xizmat etadi.



## Yakkadur Toshkent

Moderato con moto

D. Omonullayeva musiqasi




13
Va - tan qay - da bo'l - may meh - ring - ni sez - dim
15
meh - ring tor - ta-ver - di, jon O'z - be-kis - ton
17
mf
Dun - yo - ning u-lug' - vor sha-xar - la - ri ko'p
19
Pa-rij - dir, Qo - hi - ra, I - mon, Mak - ka-dir




21
Ey, do's - tim Tosh - kent-ning tup-ro-g'i-ni o'p, O'z-be-kis-ton tan-xo
24
cresc.
Tosh - kent yak - ka - dir
f
O - nam - san, mex-rim-ni ay-












II. Ko'zlangan manzilim uzoqdir, zotan,
Istiqlolga boqqan ko'zimsan, Toshkent.

Mening uyg'oq turgan yuragim - Vatan,
Vatanim yuragi o'zingsan, Toshkent.

Bir sayoh singari dunyoni kezdim,
Poytaxtlarni ko'rdim, dovrug'i doston,

Vatan, qayda bo'lmay, mexringni sezdim,
Mexring tortaverdi, jon O'zbekiston.

## 4-Laboratoriya mashg‘uloti: “Shamol eshik ochadi”

## O‘zbek xalq qo‘shig‘i B. Umidjonov xor uchun moslashtirgan

### Asar tahlili

Bu asar o‘zbek xalq qo‘shig‘i bo‘lib uni kompozitor va bastakor Botir Umidjonov xor uchun moslashtirgan. Asosan ayollar xori uchun moslashtirilgan bo‘lib unda soprano va alt ovozlari mavjud.

Qo‘shiq mi major (E-dur) tonalligida yozilgan bo‘lib asarda tonallik alteratsion belgilaridan tashqari tasodifiy alteratsion belgilar mavjud emas. Sur'ati andante (o‘rtacha) tezlikda bo‘lib, 2/4 o‘lchovida yozilgan. Takrorlanishlar bilan qo‘shib hisoblaganda 29 taktdan iborat.

Ovoz partiyalari yengil ko‘rinishda yozilgan bolib katta sakrashlar deyarli kuzaltilmaydi. Qo‘shiq mazmuni jihatdan ayollar aytishuvi shaklida yozilgan. Asar o‘rtasidagi 5 taktda har bir ovozning o‘z navbatida yana ikki ovozga bo‘linishi ko‘zga tashlanadi.

Asarning dirijyorlik texnikasini o‘rganishda ushbu tahlil katta yordam beradi. Dirijyorlik texnikasini egallashda asarni har bir partiyasini boshlanishi, pauzadan so‘ng keyingi qaysi partiya tushishi kerakligini aniq bilishi darkor. Dirijyor asarning musiqa ifoda, kuyi va ovozlarini yaxshi yod olishi zarur.

Dirijyorlik 2/4 o‘lchoviga qilinadi. O‘rtacha tempda ijro etilishi o‘z navbatida dirijyordan shoshilmay, xotirjam dirijyorlik qilishni talab etadi. Qo‘shiqni birinchi bo‘lib alt partiyasi boshlab beradi. Ovozlarda frazalar oxiridagi yarimtalik notalarni ushlab turish lozim. Asarda mf (metsoforte) va p (piano) dinamik belgilar qo‘llanilgan bo‘lib, jumlalarning qaytarilishlarida ya’ni reprizalarda, dinamika metsofortedan pianoga o‘zgartirilishi zarur. Ushbu holat kuyga rang baranglik baxsh etadi. O‘z navbatida dirijyordan o‘zgaruvchan dinamikalarni aniq va ovozlar uchun tushunarli ko‘rsata olish, ayni ta’kidlanuvchi mavzulardandir. Shu tarzda barcha nyuanslarga e’tibor bergan holda asarni dirijyorlik qilish texnikasi o‘rganiladi.



### SHAMOL ESHIK OCHADI

O'zbek xalq qo'shig'i

Xor uchun B.Umidjonov moslashtirgan



## 5-Laboratoriya mashg'uloti: "Yoshligim"

### D. Omonullayeva musiqasi, I. Jiyanov she'ri

### Asar tahlili

Dilorom Omonullayeva qalamiga mansub ushbu asarni S. Muzaffarova xor uchun moslashtirgan. Tempi "moderato con anima"– ya'ni yurakdan o'rtacha tempida, re minor (d-dur) tonalligida, 4/4 o'lchovida yozilgan. Asarda cholg'u partiyasi va to'rt ovozli cholg'u partiyasi mavjud.

Asarning kirish qismi o'n taktli chog'u ijrosi bilan boshlanadi. Qo'shiq ijrosi vaqtida cholg'u partiyasi doimiy garmonik ko'makchi ko'rinishida yangraydi. Asardagi garmoniyalar o'zgaruvchan bo'lib unda doriy ladiga, garmonik minor, ikki karra garmonik minor va qo'sh daminantaga xos akkordlar va bog'lovchilar foydalanilganki bular qo'shiqning diqqatni jalb etuvchi xususiyatlarini kuchaytirishga xizmat etadi.

Asosiy qismning ovoz partiyasi bir ovozli bo'lib uni qaytarilish hisobidan qizlar va yigitlar ovozi ketma ketlikda ijro etishadi. Bunda ovozlar diapazoni hisobga olinib ohang barcha ovozlar ijrosiga moslanib qulay, yengil va notalar ketma ketligi bir maromda sakrashlarsiz yozilgan. Qo'shiqning kulminatsiyasi naqorat qismiga to'g'ri kelib unda ovozlar to'liq to'rt ovozga (soprano, alt, tenor va bass) bo'linadi.

Dirijyorlikda asarning tempiga mos ravishda yurakdan, o'rtacha temp bilan 4/4 o'lchoviga dirijyorlik etiladi. Asardagi cholg'u partiyasi va asosiy qism doimiy ko'rinishda dirijyorlik etiladi. Qo'shiqning qizlar va yigitlar ovozida alohida ijro etilishi dirijyor tomonida inobatga olinmog'i zarur. Naqorat qismi taktning ikkinchi hissasining ikkinchi yarmidan boshlanishi undan oldingi jumlani o'z vaqtida yopib naqorat qismini boshlashda dirijyorga qiyinchilik tug'dirishi tayin. Aynan shu qismdagi ovozlarning turli o'rinlarda ushlab turiluvchi uzun notalar ko'rinishida paydo bo'lishi dirijyordan partiya bilan to'liq tanishib olishni, shunga qaramasdan qo'shimcha ziyraklik, topqirlik va chaqqonlilikni talab qiladi.



### Yoshligim

I. Jiyanov she'ri

D. Amanullaeva musiqasi
Xor uchun S. Muzafarova moslashtirgan




15
Dil - ga baxt suv - ra - tin chiz - gan - da,
Nur - ga to'- la bu yosh - lik kez - da,
17
Va - tan - se - ning meh - ring - ni sez - dim.
19
1.
Va - tan - se - ning meh - ring - ni sez - dim.
21
2. Naqorat:
S.
A.
T.
B.
dim. O, yosh - li - gim, qa - not ber - men - ga, al - yor




24
S.
A.
T.
B.
ay - tay. xa - yot. men sen - ga. Yu - ra -
26
gim - dan ket - ma, mu - xab - bat,
28
bo - shim uz - ra qu - yosh bo'l - gin, baxt!









2.Bu tiniq buloqlar suvida.
Bu mayin shabboda kuyida.
Osuda, tinch diyor qo'yingda,
Vatan - sening mehringni sezdim.
Vatan - sening mehringni sezdim.

3.Ming yillik chinorlar so'z ochsa.
Ko'xna bu minorlar yuz ochsa.
Qalbimda bir g'urur ko'z ochsa.
Vatan - sening mehringni sezdim.
Vatan - sening mehringni sezdim.

Naqorat:
O, yoshligim, qanot ber menga.
Alyor aytay, xayot, men senga.
Yuragimdan ketma, muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin Baxt!
Yuragimdan ketma. muhabbat,
Boshim uzra quyosh bo'lgin Baxt!

## 6-Laboratoriya mashg'uloti: "Arshin mal alan" operasidan "Gulchehra ariyasi"

### U. Gadjibekov musiqasi

Ozarbayjonlik buyuk bastakor, musiqashunos olim, publitsist va jamoat arbobi, Ozarbayjon professional musiqa san'ati va opera teatrining asoschisi - **Uzeir Gadjibekov** 1885-yil 18-sentyabrda Ozarbayjonning madaniy markazi — Shusha shahrida tug'ilgan.

Uzeir Gadjibekov Boku va Moskvada ta'lim olib, yoshligidanoq xalq musiqasi va mug'om san'atini chuqur o'rgangan.

U Ozarbayjonda opera, musiqali komediya va simfonik musiqa janrlariga asos soldi. Uning "Leyli va Majnun" (1908) operasi Sharqda birinchi opera hisoblanadi.

Durdona asarlari: "Kyor-og'li" (opera), "Arshin mal alan"(musiqali komediya), "Mashadi Ibod" (musiqali komediya) kabi asarlari bilan katta shuhrat qozongan.

Uzeir Gadjibekovning uchinchi va oxirgi musiqali komediyasi "Arshin malalan"dir. "Arshin mal alan" musiqali komediyasida inqilobdan avvalgi Ozarbayjon maishati, xalq odat va an'analari o'z aksini topgan. Gadjibekov 1911-yilda musiqiy tahsilini orttirish uchun Moskvaga borib, shu yili u yerda filarmonik jamiyatning musiqiy kurslarida, 1913-yilda esa Peterburg konservatoriyasida o'qigan. Peterburg davri Gadjibekovning ijodida muhim rol o'ynagan, u "Arshin molchi" musiqali komediyasini ana shu yerda yozgan. Uzeir Gadjibekov yozgan bu opera 70 ga yaqin chet tillariga tarjima qilinib, 100 dan ortiq teatr sahnasida qo'yildi. "Arshin molchi" besh marta ekranlashtirilgan, necha marta grammafon valina yozilgan. "Arshin molchi" musiqali komediya asosida ilk badiiy film 1916-yilda olingan.

Ozarbayjon xalq musiqasining asoslarini ilmiy asoslab, "Ozarbayjon xalq musiqasi asoslari" nomli fundamental tadqiqot yaratgan. Gadjibekov faoliyati davomida nafaqat kompozitor, balki pedagog va musiqiy jamoat arbobi sifatida ham Ozarbayjon madaniyatini yuksaltirishga katta hissa qo'shgan.

Uzeir Gadjibekov 1948 – yilda vafot etgan.



### Asar tahlili

Ozorbayjon kompozitori Uzeir Gadjibekovning "Gulchehraning ariyasi" nomli ariyasi kompozitorning "Arshin mal algan" hajviy operettasidan bo'lib butun jahonga tanish asarlardandir. Chuqur dramatik, lirik, emotsional hissiyotlarga boy bo'lgan ushbu ariya 1913-yilda yaralganiga qaramasdan hozirgacha, o'z mavqeyini saqlab, oliy ta'lim repertuarlaridan joy olib kelmoqda.

Asar sol minor (frigiy) ladida, andante (o'rtacha) tempida, 2/4 o'lchovida yozilgan. Asardagi kirish va tugallanish qismlari cholg'u ijrosida yozilgan bo'lib kirish va yakunlanish qismlari bilan birga oddiy iiki qismli shaklda yozilgan. Har bir davriya qaytariluvchi, takrorlanuvchi ikkita katta jumlalardan tashkil topgan. Asar davomida garmonik minor va ikki karrali garmonik minorga taalluqli garmoniya va ohanglar qo'llanilgan.

Qo'shiq ovoz va cholg'uga mo'ljallangan bo'lib, asosan kuydagi matn ma'nosidan kelib chiqib ayollar ijrosi uchun mo'ljallangan. Qo'shiqdagi ovoz diapazoni birinchi oktava sol notasidan ikkinchi oktava sol notasigacha bo'lgan oraliqni qamrab oladi va kuyda kvarta, kvinta va oktavagacha bo'lgan sakrashlar mavjud.

Dirijyor o'z navbatida asar boshidagi 12 takt va tugallanishdagi 11 taktni cholg'u partiyasi uchun dirijyorlik qiladi. Ariyadagi temp o'rtachaligini va kuydagi ohangning ta'sirchan melodiyasini inobatga olgan holda latif va chiroyli, mayin ko'rinishdagi 2/4 dirijyorligi talab etiladi. Asar davomida aksariyat motivlarda yarimtalik notalar mavjud bo'lib, dirijyor barcha holatlar bilan tanishib chiqmog'i zarur. Dinamik ko'rinishlarning rang barangligi, ikkinchi qismdagi kulminatsion, shiddatli f (forte) va ikkinchi oktava sol notasi dirijyorda xuddi shunday jo'shqinlilikni talab etadi.

# Gulchehra ariyasi

**("Arshin Mal Alan" operasidan)**

Uzeir Gadjibekov musiqasi









В раз - лу - ке жить мне судь - бой да - но!
Бун - ча чә - фа - ны ла - јиг көр - дү!
В раз - лу - ке жить мне судь - бой да - но
Бун - ча чә - фа - ны ла - јиг көр - дү!
Нет боль - ше сил тер - петь и ждать.
Јох - дур та - гәт сәб - рә һа - ләт.
Нет боль - ше сил тер - петь и ждать.
Јох - дур та - гәт сәб - рә һа - ләт.
Не в си - лах жить так и так стра - дать.
Өл - мәк јах - шы - дыр нәки бу зил - ләт.




по - мо - ги - те! Ах, по - мо - ги - те!
ху - да рәһм ет. Еј, ху - да рәһм ет.
Вся ис - то - ми - лась, вся
Гыл мә - дәд ја - рәб, мән
1. 2.
ис - стра - да - лась я! я!
ја - зы - ға рәһм ет. ет!

## 7-Laboratoriya mashg‘uloti: “Maysaraning ishi” operasidan “Hoji darg‘a” ariyasi S. Yudakov musiqasi

**Sulaymon Yudakov** 1916-yil 14-aprelda Qo‘qon shahrida buxorolik yahudiylar oilasida dunyoga kelgan.

Uning birinchi musiqa o‘qituvchisi Mixail Genrixovich Naygof bo‘lgan. Sulaymon Yudakov 1932-yili P.I.Chaykovskiy nomidagi Moskva konservatoriyasi musiqa fakultetida fleyta sinfida o‘qishni boshlagan. 1939-yil — R. M. Glier sinfida konservatoriyaning kompozitsiya bo‘limi talabasi bo‘lgan. 1941 – yil urush boshlanishi bilan bastakor Sulaymon o‘qishni to‘xtatib, Toshkentga qaytib kelgan.

Sulaymon Yudakov 1944-yilda Tojikiston SSR madhiyasining kuyini yozgan. Keyinchalik u yozgan kuy Tojikistonning zamonaviy madhiyasining asosini tashkil etdi. 1945-yili „Farzand“ musiqali dramasini yozadi. Urushdan keyin (1940-yillarning ikkinchi yarmi) u ko‘plab asarlar yaratgan: Skripka va pianinoda chalish uchun “Sharq she’ri”, “Skripka, violonchel va pianino uchun fantaziya”, Ikkita fortepianoda chalish uchun mo‘ljallangan “Raqs Syuitasi”. Syuita kompozitsiyasi uch qismdan iborat: “Xorazm bayrami yurishi”, “Ozarbayjon lirik raqsi”, “Farg‘ona raqsi”.

Sulaymon Yudakov 1958-yilda “Maysaraning ishi” nomli birinchi o‘zbek hajviy operasini yozgan. Opera 1959-yilda A.Navoiy nomidagi taetrda sahnalashtirilgan. Opera katta muvaffaqiyatga erishgan. U 9 tilga tarjima qilingan va Toshkent, Samarqand hamda ko‘plab yaqin va uzoq xorij mamlakatlarining (Moskva “Rim” teatrida — 1960-yilda, Polshaning Lodz shahrida — 1975-yilda, shuningdek, Ashxobod, Dushanba, Bishkek, Ufada) teatrlarida sahnalashtirilgan, simfonik asarlari ko‘p orkestrlar repertuaridan o‘rin olgan.

Sulaymon Yudakovning qo‘shiqdaridan “Dugonalar”, “Davra qo‘shig‘i”, “Jon O‘zbekiston”, “Karnaval valsi” va boshqalar ommalashgan. Davlat mukofoti (1951), Hamza nomidagi O‘zbekiston Davlat mukofoti (1977) laureati bo‘lgan.

Sulaymon Yudakov 1990-yil 5-noyabrda vafot etgan. Toshkentda, Buxoro-yahudiylar qabristoniga dafn etilgan.

**Asar tahlili**

Sulaymon Yudakovning “Maysaranin ishi” operasidan “Hoji darg‘a” ariyasi cholg‘u va ovoz uchun yozilgan bo‘lib, erkaklar ovozi (bariton)ga mo‘ljallangan. Ushbu asar “Allegro tranguillo” () tempida, fa



major (miksolidiy) ladida, 7/4 o‘lchovida yozilgan bo‘lib, asar oddiy uch qisimli shaklda yozilgan. Kirish qismi to‘rt taktli cholg‘u ijrosi bilan boshlanadi. Kirish qismidagi ohang fakturasi vokal partiyasida asaosiy ohang ko‘rinishlarida yangraydi. Asar davomida cholg‘u va ovoz partiyalari doimiy savol javob ko‘rinishida yangrab rivojlanadi.

Qo‘shiq ishqiy-hajviy mazmunga ega bo‘lib quvnoq ijro etilishni talab qiladi. Qo‘shiq diapazoni kichik oktava do notasidan, fa birinchi oktavasigacha bo‘lgan oraliqda yangrab bir yarim oktavani qamrab oladi. Bu o‘z navbatida ijrochidan chuqur ijrochilik salohiyati, asarga puxta tayyorgarlik, ko‘nikma va kerakli ovoz va nafasni olish, ushlab turish va tejab ishlatish mashqlarini bajarishni talab etadi. Frazalarning yakunidagi so‘zlarning unli haflarda (O) yakunlanishi ijrochilarga qulaylik tug‘diradi.

Ushbu ariyaning 7/4 olchovida yozilganligi undagi kuchli hisssarning noodatiy, birinchi va to‘rtinchi hissalarda kelishi, dirijyordan kuchli hissalarni aniq urg‘u bilan ko‘rsatishni talab etadi. Dirijyor qulayligi uchun 7/4 o‘lchovini [3/4+4/4] tarzida bajarilishi tavsiya etiladi. Ariyaning sho‘x xarakterini dirijyor yuz ifoda mimikasi va yengil harakatlari bilan ko‘rsatishi kerak. Asardagi ilk to‘rt takt cholg‘u ijrosida yangrashini inobatga olgan holda dirijyor faqatgina o‘ng qo‘li bilan dirijyorlikni boshlashi lozim.

Birinchichi qismning ilk jumlalridanoq dirijyor ovoz partiyasidagi yarimtalik notalarni, frazalarning tugllanishini va pauzalarni aniq va o‘z vaqtida ko‘rsatmog‘I darkor. Asarning dinamik xilmaxilligi va uning aniq ko‘rsatilishi asarning mazmunini to‘laqonli yoritib berishini hisobga olish kerak.

# XOJI ARIYASI

"Maysaraning ishi" operasidan

S.Yudakov
musiqasi









16
Xe - mi - ti yo'q xam - yon - da ol - may qo ying jo - non - ni
18
Xey!
21
Ol - may qo' ying jo - non - ni
23
Oy - xon i - la xar tun - da qil - sam yal - la - lo, yal - lo yal - la - lo




Os, o'r - gi - la - yin dey - man jo - nim be - ra - yin dey - man
28
oh, o r - gi - la - yin dey - man jo - nim be - ra - yin dey - man
30
jon!
33

boyigan. Ijro diapazoni do birinchi oktavadan ikkinchi oktava mi notasigacha bo‘lib bir yarim oktava oralig‘ida yangraydi. Kuy davomida tonallik og‘ishma mavjud bo‘lib, asar so‘ngida yana avvalgi si minor tonalligiga qaytadi. Ovoz qismidagi qochirim (forshlaglar) ovozxonlardan yuqori malakaviy mahorat talab etadi. E’tiborga arzigulik jihatlardan yana qo‘shiqda kvarta, kvinta va seksta sakrashlari mavjud.

Ovoz partiyasidagi so‘nggi motivlar cholg‘uda takroriy yangrashi asarning melodik esda qolarli bo‘lishiga o‘z ta’sirini ko‘rsatadi.

Asar 3/4 o‘lchoviga dirijyorlik qilinadi. Asarning kirish qismidagi to‘rt takti fortepiano partiyasida dirijyorning o‘ng qo‘l harakatlari ishorasi bilan boshlanadi. Beshinchi taktdagi dirijyorning auftakt ishorasi bilan chap qo‘l harakatining boshlanishi, ovoz partiyasining qo‘shilishini ta’minlaydi. Dirijyorning qo‘l harakatida birinchi kuchli hissani aniq ko‘rsatish va nuqtali chorak va yarimtalik notalarni qo‘l harakatida ushlab turilishini ko‘rsatishi lozim. Ushbu asar dirijyordan doimiy mo‘tadillik va sokinlikni, asarning lirik xarakteriga moslashishni talab etadi. Ushbu ko‘rsatmalarga amal qilgan holda dirijorlik qilish talabalarda dirijyorlik mahoratini sayqallash va oshirishga to‘laqonli xizmat etadi.



## Ständchen.

Rellstab.

Musik von Franz Schubert




Flüs - ternd schlan - ke Wip - fel rau - schen
При лу - не шу - мят у - ны - ло
in des Mon - des Licht,
ли - стья в по - здний час,
in des Mon - des Licht.
ли - стья в по - здний час.
pp
des Ver - rä - ters feind - lich Lau - schen
и ни-кто, о друг мой ми - лый,
fürch - te, Hol - de, nicht.
не у - слы - шит нас.






f
fürch - te, Hol - de, nicht.
не у - слы - шит нас.
f
mf
pp
Hörst die Nach - ti - gal - len schla - gen? ach! sie fle - hen dich,
Слы - шишь в ро - ще за - зву - ча - ли пе - сни со - ло - вья,


mit der Tö - ne sü - ßen Kla - gen fle - hen sie für
зву - ки их по - лны пе - ча - ли, мо - лят за ме-
mich.
ня.
Sie vers-tehn des Bu-sens Seh - nen,
В них по - ня - тно все то - мле - нье,
ken - nen Lie - bes - schmerz,
вся то - ска лю - бви,
ken - nen Lie - bes - schmerz,
вся то - ска лю - бви.
pp






ruh - ren mit den Sil - ber-tö - nen je - des wei - che Herz,
и на - во - дят у - ми-ле - нье на ду-шу о - ни,
je - des wei - che Herz.
на ду-шу о - ни.
Laß auch dir die Brust be - we - gen,
Дай же до-ступ их при-зва - нью,
f
cresc.
Lieb - chen hö - re mich!
ты к ду - ше сво - ей
be - bend harr ich dir ent-ge-gen!
и на тай-но - е сви-да - нье






## 9-Laboratoriya mashg'uloti: "Duxtari sanam"

## O'zbek xalq qo'shig'i B. Umidjonov xor uchun moslashtirgan

### Asar tahlili

Botir Umidjonov xor uchun moslashtirgan, o'zbek xalq xalq qo'shig'i, to'rt ovozli aralash xor uchun yozilgan. Qo'shiq lya minor tonalligida bo'lib "Allegro", ya'ni tez, quvnoq sur'atda, 6/8 o'lchovida ijro etiladi. Qo'shiq davomida frigiy ladiga bo'lgan og'ishmalar, ya'ni iikinchi bosqichning yarimtonga pasayib si o'rniga si bemol (h>b) yangrashi kuztiladi.

Asardagi kattaroq qism erkaklar ovozi (tenor va bass) va ayollar ovozida (soprano va alt) aytishuv, savol javob ko'rinishida yangraydi. Ovozlarda erkaklar ovozi nisbatan ustunlikga ega bo'lib qo'shiqning asosiy qismini aynan ular ijro etishadi qolgan qismlarda esa ovozlar deyarli bir xil mavqeyga ega bo'lib, faktura ko'rinishi bir xilda, ammo har biri o'zining melodik chizig'iga ega.

Dirijyorlikda asar 6/8 o'lchovida yozilishiga qaramasdan uni qulay bo'lishi maqsadida 2/4 o'lchovida dirijyorlik qilish mumkin. Asarning boshida erkaklar ovozi boshlab berishini inobatga olib dirijyor bunga mostlashib olmog'i zarur. Ilk taktlardanoq f (forte) bilan boshlanilishda dirijyor o'z ishoralarini chuqurroq, aniqroq va konkret tarzda ifodalay olmog'i asar xarakterining yaqqol namoyon bo'lishida yaxshigina xizmat etadi. Ovozlarning erkaklardan (tenor va bass), ayollarga (soprano va alt) va yoki aksincha bo'lib o'zgarib turishi o'z navbatida frazalarni yopish, qo'l harakatlarinig aniq ko'rsatilishini, bunga qo'simcha qilib asar so'ngidagi holat holat ya'ni, har bir ovozdagi alohida ijo dirijyorning ovozlar tartibini to'g'ri va aniq ko'rsatishni talab etadi. Dinamik jihatdan erkaklar ijrosi paytida reprizani birinchi bora f (forte)da qaytarilishda esa p (piano)da ijro etish maqsadga muvofiq va sasrga dinamik rangbaranglik bag'sh etadi.

## Duxtari sanam

O'zbek xalq qo'shig'i

B. Umidjonov xor uchun moslashtirgan






## 10-Laboratoriya mashg'uloti: "Karnaval valsi"

### S. Yudakov musiqasi T. To'la she'ri

### Asar tahlili

Ushbu asar cholg'u va ovoz uchun kompozitor Sulaymon Yudakov tomonidan yaratilgan. Qo'shiq mi minor (e-moll) tonalligida, vals tempida, 3/4 o'lchovida yozilgan. Asar yirik shaklli bo'lib, aynan ikki qismli murakkab shaklda yozilgan. Undagi jumlalar takroriy bo'lib har biri o'n olti takt va undan ham ko'proq hajmda yozilgan.

